

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

Himoyaga ruxsat etildi.

“Milliy g’oya, ma’naviyat
asoslari va huquq” kafedrası
mudiri J. Toshqulov

“ ” _____ 2014 yil.

Aripov O`tkir Saparovich

**Mavzu: XXI asrda ekologik tahdidlar va ularni bartaraf etishning
huquqiy chora – tadbirlari**

Ta`lim yo`nalishi: 5380200-Yurisprudensiya (islom huquqi)
Bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilgan
bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy raxbar: “Milliy g’oya, ma’naviyat
asoslari va huquq” kafedrası Dotsenti, y.f.n.
N.Yusupova

MUNDARIJA

Kirish.....	1-6
I. BOB. Ekologik tahdid tushunchasi va ularni vujudga keltiruvchi omillar.....	7-33
1.1. Ekologik tahdidlar tushunchasi, rivojlanish tarixi va tasnifi.....	7-14
1.2. XXI asrdagi ekologik tahdidlar va ularning oqibatlari.....	14-33
II. BOB. XXI asrda O`zbekistondagi ekologik tahdidlar va ularni bartaraf etishning huquqiy chora-tadbirlari.....	34-72
2.1. XXI asrda O`zbekistondagi ekologik tahdidlar va ekologik siyosatining mohiyati hamda asosiy yo`nalishlari.....	34-45
2.2. Ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklarga milliy javobgarlik.....	45-67
2.3. Ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklarga xalqaro javobgarlik hamda xalqaro va mintaqaviy ekologik tashkilotlar.....	68-72
Xulosa.....	73-77
Foydalanilgan adabiyotlar.....	78-83

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi 1991 yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, o'z davlatchiligiga ega bo'ldi va rivojlanishning evalutsion yo'lini tanladi. Bu yo'l jamiyatimizning barcha soxalarida tadbiq etila boshlandi va o'tish davrida albatta har qanday davlat oldida bir qancha muammolar mavjud bo'ladi yoki vujudga keladi. Anashunday muammolardan biri bu butun dunyodagi ekologik muammolar va tahdidlardir hamda bu muammolar va tahdidlarning O'zbekistonni ham chetlab o'tmaganligidir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki bugungi kunda ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uning xavfi hatto yadro xavf-xataridan ham daxshatliroq bo'lib, butun yer shari xalqlarini tashvishga solmoqda.¹ "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi,- deb yozadi I.A.Karimov,- juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir".²

Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda planetamizda har xil yoqilg'ilarni yoqish sababli har yili 10,1 mlrd tonna kislorod sarf bo'lmoqda, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 70 foizi, chuchuk suvlarning 20 foizi o'zlashtirilib foydalanilmoqda, o'rmonlar egallagan maydonlar yildan-yilga kamayib bormoqda, cho'l zonalarining maydoni oshib bormoqda, havo harorati yildan-yilga ko'tarilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi har yili o'sib borib, tabiiy zahiralaridan xo'jalik maqsadlarida yanada ko'proq foydalanishga to'g'ri kelmoqda.³ Agar insoniyat hozirgi tarraqiyot yo'lidan borishni davom ettirsa uning xalokati ikki-uch avlod yashab o'tgandan so'ng yuz berishi ehtimoldan xoli emas. "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni xal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning xal qilinishiga bog'liqdir".⁴ Ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, tabiat bilan jamiyat bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada, chambarchas bog'liqlikda bo'ladi. Bu muvozanatning

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror tarraqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998. -B.145

² Karimov.I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat // O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 -T.: "O'zbekiston", 1992. -B.105

³ Usmonov M.B. Ekologiya huquqi. Darslik.-T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi", 2000. - B.465

⁴ Karimov.I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat // O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 -T.: "O'zbekiston", 1992.-B. 108

buzulishi salbiy holatlarni keltirib chiqarib, tirik mavjudodning yashashiga xavf soladi. Tabiat obyektlaridan foydalanishda shunday vositalarni topish, ularni qonunlarda o'rnatish, amaliyotga qo'llash lozimki, bu bir tomondan, xo'jalik faoliyati taraqqiyotini ta'min etsin, ikkinchi tomondan, tabiatni muhofaza qilish munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilsin. Shuni aytish kerakki, tabiatni muhofaza qilish bahonasida ishlab chiqarish manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishga ham yo'l qo'yish yaxshi holat emas. Shuningdek iqtisodni rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga keng yo'l ochib berish, iqtisodiyot va ekologiya manfaatlarini bir biriga qarama-qarshi qo'yish ham mumkin emas. Muammoni shunday tartibda xalq etish kerakki, bunda birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishda ekologiya ham, iqtisodning ham manfaatlari hisobga olinsin, ikkinchidan, ularning uzviyligini ta'minlash mumkin bo'lmasa, ustuvorlik ekologiyaga berilishi kerak. Huddi shunday prinsip O'zbekiston olib borayotgan ekologik siyosatda, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan tabiiy atrof muhitni muhofaza etishga bag'ishlangan qonunlarda o'z ifodasini topgan. Buning yuridik ifodasi sifatida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi, "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Tabiiy boyliklar monopoliyalari to'g'risida"gi, "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi "Chiqindilar to'g'risida"gi, "Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilinishi, shuningdek, O'zbekiston ekologik harakati va senatda ekologik harakatdan 15 senatorlik o'rini ajratilganligini o'zi yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekistonning atrof-tabiiy muhitni sog'lomlashtirish chora-tadbirlari bo'yicha amalga oshirayotgan ishlariga qaramasdan ekologik munosabatlar xali ham tabiat va jamiyat uchun nomutanosib darajada rivojlanishni davom ettirmoqda. Buni biz, birinchidan, tabiatdan foydalanishda sohaviy yondoshishni, ya'ni har bir tashkilot faqat o'z manfaatini ustun qo'yib tabiiy resurslardan foydalanishi va, ikkinchidan, tabiatga faqat resurs sifatida qarashni, ya'ni tabiatdan foydalanish birinchi darajali, uni himoya etish esa ikkinchi darajali sifatda qarashda ko'ramiz.

Tabiatni muhofaza etish turli xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shulardan eng muhimi - tabiatni huquqiy muhofaza etishdir, ya'ni tabiatni qonunlar yordamida ifloslanishdan, xo'jasizlarcha foydalanishdan, zaharlanishdan himoya qilishdir. Demak bugungi kunda ekologik tahdidlarning ortishi inson hayoti va taqdiriga juda katta xavf- xatarni yuzaga keltirayotganligidir. Bu muammolarga be'tibor bo'lish O'zbekiston va O'zbekiston xalqiga qimmatga tushishi mumkin. I.Karimovning ta'kidlashicha, xozirgi ekologik xavfga quyidagilar kiradi:⁵

1. Yer yuzida tuprok nurab, eroziyaga uchrab sho'rlanib, xosildorligi kamayabdi;
2. O'rmonlar kesilib ketmoqda, yong'inlarda yonib ketyabdi;
3. Tuzli yomg'irlar yog'ishi kuchaymoqda;
4. Atmosfera benixoya ifloslanmoqda: Azon qatlami tuynuklar ochilmoqda;
5. Suvlar xaddan ziyod ifloslanmoqda;
6. Axolining yildan yilga ko'payib, 5mlrd.dan ortib unga kerakli narsalarni ishlab chiqarishga energiya sarflanib, xavo zaxarlanmoqda;
7. Yer shari iqlimining o'rtacha xarorati ortmoqda;
8. Dunyoga radiatsiya zarralari chiqaradigan qurol-yarog'lar, ximik moddalar ishlab chikarish, ularni sinash kengaymoqda;
9. Avtomashinalar tobora ko'payib, zaxarli tutunlar chiqishi ortmoqda va x. k.;

Xavflarning bir qismi respublikamizda xam bor. Yo'qlari o'rnini dunyodagi ekologik xavflar bosayotir. Demak,shuning uchun ham bu muammolar o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ekologiya faqat tabiiy muammogina emas, balki ijtimoiy muammo xam ekanligi, xozirgi sivilizatsiya taqdiri ko'p jihatdan uning yechilishiga bog'likligini uqtirib, I.Karimov bunday deb yozgan edi: "Ekologiya, xozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni xal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning xozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning xal qilinishiga bog'likdir".⁶

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.142

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.149

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan umuman ekologiya va ekologik xolatni o`rganish hamda bu jabhada qilinishi lozim bo`lgan ishlar ko`lamini belgilash va uni amalga oshirishga kirishdi. 1960-yillarda global ekologik inqiroz belgalari namoyon bo`ldi va uning ko`lami oshib bormoqda. Shuning uchun mamlakatimiz va butun dunyo mamlakatlarning oldiga anashunday mushkul jarayondan chiqib ketish va bu muammolarning oldini olish kabi mashaqqatli vazifa ko`ndalang turib qoldi. Bu jarayonlarning murakkablashib borishi bu sohani o`rganish va oldini olish choralari ishlab chiqish majburiyatini yukladi. Bu muammolarni O`zbekistonlik<sup>7</sup> va xalqaro maydondagi<sup>8</sup> olimlar, mutaxassislar va tatqiqotchilar muttasil o`rganib bormoqdalar. Bu borada birqancha ilmiy ishlar, o`quv darsliklari, maqolalar va boshqa adabiyotlar yaratilmoqda.

⁷ Nigmatov A.N Овражная эрозия и техногенно-нарушенные земли Узбекистана: сельскохозяйственные, экологические и правовые аспекты их мелиорации.-Т.: "Академия МВД", 1996. - 230 с. Jo`raev Y.A. Экологическое законодательство Республики Узбекистан. Понятие, основные общерегулирующие нормы и проблемы кодификации.-М.: // "Гос. и право", 1996. № 11; Usmonov. M.B. Ekologiya qonunchiligi muammolari .-Т.: // "Xayot va qonun". 2002. № 2, - 30 b. Xolmo`minov J.T.// Ekologiya va qonun. – Т.: "Adolat", 2000. №10; Nigmatov A., Pardayev G`. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish.O`quv qo`llanma. – Т.: 2005.- 132 b. Nigmatov A.N, Nigmatova G.N. Atrof muhofazasida iqtisodiy mexanizm.-Т.: // "Iqtisod va hisobot", 10-son, 1997. – 80 b. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –Т.: // "Saodat RIA", 1997. – 35 b. O`zoqova G.Sh. Aholi punkti yerlaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish muammolari.O`quv qo`llanma.-Т.: 2006. – 156 b. Xolmuminov J. Ekologik tahdidlarni oldini olish.-Т.: // "Inson va huquq", 2001.№6. – 36 b. Karimov J. Ekologik muammolar.O`quv qo`llanma.-Т.: "Adolat".2010.-148 b. Maxmudova Sh. Xozirgi dunyo va muammolar.O`quv qo`llanma.-Т.: "Ilim".2009.- 114 b. Rajabov N. Ekologik meyorlarni huquqiy tartibga solish.Darslik.-Т.: "Sharq".2011.- 277 b. Oripov D. Ekologik tasir, uning huquqqa oid muamolari.O`quv qo`llanma.-Т.: "Dunyo".2005.-143 b.

⁸ Marsh.G, Inson va tabiat yoki Insonning tabiatni fizik-geografik sharoitlarining o`zgarishiga ta`siri,-Н.: "Nature",1884.-В.456; Малеин Н.С.Правовая охрана природы и здоровья населения СССР.- М.: 1976. -79 С. Лапина М.А. Нормативное правовое обеспечение экологической безопасности в зарубежных государствах.- М.: // "Экологическое право". 2001. № 1.-С.38. Краснова И.О. Экологическое право США: сравнительно-правовое исследование. // Дисс. на соис.уч.ст. д.ю.н.,-М.: 1997.-С.45; Николас А.Робинсон. Правовое регулирование природопользования и охраны окружающей среды в США.-М.: // Прогресс, 1990. - 12 С. Колбасов О.С. Экология: политика – право – М.: "Наука", 1986.-123 С. Галкин Ю.С. Правовые проблемы экологии.-Киев.: 1989.-123 С. Иванов Ю.Е. Правовая охрана окружающей природной среды в странах Восточной Европы- М.: 1990, -.230 С. Жариков Ю. Закон на страже землепользования: предупреждение земельных правонарушений. - М.: "Юрид. лит.", 1985. – 265 с. Петров В.В. Правовая охрана природы в СССР.- М.: "Юрид. лит.", 1984.- 294 с. Шалтакбаев С.Ж. Теоретические вопросы правовой охраны вод. // Дисс.к-ю-н. - Алма-Ата, 1999. -165 с.http: // www.zashpriroda.ru. Кравченко С.Н. Материальная ответственность в системе охраны природы.-К.: "Вища школа", 1981. -406 с; Жариков Ю.Г. Охрана права землепользования.- М.: "Юрид. лит.", 1974.- 214 с. Осипов Н.Т. Методы правовой охраны окружающей среды.- Л.: "Юрид. лит.", 1989.- 95 с. Колбасов О.С. Правовое исследование по охране окружающей среды.- М.: "ВНИИТИ", 1988. – 201 с. Петров В.В. Экология и право.- М.: "Наук", 1981. – 154 с. Кравченко С.Н. Имущественная ответственность за нарушение природоохранительного законодательства.- Львов.: "Наук", 2003. – 171 с. Колбасов О.С. Природноресурсовое право и правовая охрана окружающей среды.- М.: "Юрид. лит.", 1988. – 162 с. Масевич М.Г. Споры о возмещении вреда, причиненного природным ресурсам.- М.: "Юрид. лит.", 1981. – 63 с. Колбасов О.С. Возмещение гражданам экологического вреда // "Государство и право",-М.:1994.- № 10, -107 с. Субботин А.А. Проблемы возмещения вреда, причиненного источником повышенной опасности объектам природы и другим благам.- М.: "Наук", 1985. – 102 с. Колбасов О.С. Возмещение вреда, причиненного неправомерным использованием природных объектов.-М.: "Масква"1983.-264 с. Иванченко Н.С. Природоохранительный аспект международно-правовой проблемы. - Л.: "ЛГУ", 1983. - 119 с.

Iqtibosda asarlari keltirilgan olimlar quyidagi jihatlarini ochib berganlar: Tabiatga yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik masalalari, Qishloq xo'jaligiga oid muammolarning kelib chiqish sabablari va yechimlari, Tabiat ab'yektlariga yetkazilgan zararni qoplashning huquqiy asoslari va uning natijalari hamda fuqorolik javobgarlik, Xavfli tabiat ab'yektlarini muxofaza qilish muammolarining dolzarbligi, Tabiat ab'yektlaridan foydalanishning qonuniylik prinsipi, bugungi kundagi ilmiy kashfiyotlar va ularning dunyo hamjamiyatiga keltirayotgan ijobiy va salbiy tomonlari, sharqiy yevropadagi ekologik muammolar va ularni muxofaza qilish masalalari, chet el davlatlaridagi ekologiya huquqining qiyosiy jihatlari hamda huquqiy taminlanganlik darajasi, shu bilan birga ekologik muammolar va ularning yer sayyorasida tarqalish mashtablari, tuproq va uning melerativ holatlari va yemirilish sabablari, ekologiya sohasidagi qonunchilik masalalari va ularning qonuniy himoya qilinganligi, ekologiya va qonun o'rtasidagi munosabat, bugungi kunda vujudga kelayotgan ekologik vaziyatda rivojlanish sharoitlari va uning iqtisodiy yechimlari, yer va yerdan foydalanishga oid muammolar yechimi, ekologik muammolarni oldini olishda davlat va fuqorolarni o'rni, xozirgi dunyodagi global o'zgarishlar va ularning oqibatlari, shuningdek ekologik muammolarning huquqiy tartibga solinganlik darajasi va huquqiy qonunchilikning bunga munosabati kabi masalalar keng yoritilgan.

Bundan tashqari quyidagi nomzodlik ishlari ham O'zbekistonda qilingan: Buriyev E.S "Oqava suvlarni biologik tozalash tizimini gidravlik xisoblash usullari va ishini mukammallashtirish", Pirnazarov R.T. "To'g'onli tog' ko'llari holatini kompleks gidrometeorologik baholash va ular xavfini kamaytirish choralari", Turabaev A.N. "Tog' jigarrang tuproqlarining xilma-xilligini saqlovchi ayrim tabiiy omillar tavsifi", Axmedov A.A. "Ekologik nazoratning ijtimoiy-falsafiy masalalari", Komilova N.Q. "O'zbekiston tabiiy geografik sharoitining hududiy tahlili va aholi salomatligi muammolari" va hokozolardir. Manashu masalarni o'rganish bilan birga biz bu mavzuning XX asrdagi va XXI asrda vujudga kelayotgan muammolar va ularning oldini olishning huquqiy chora tadbirlari va qilinishi kerak va kechiktirib bo'lmas ishlar, hamda huquqiy masalalarini yoritib berishga imkon qadar harakat qilamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohasi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar ko'lami ham shunchalik chigallashib borayotganligi

ko`zga tashlanmoqda hamda bu muammolarni xal qilishni zamon bilan hamohanglikda rivojlantirib, ularni to`g`ri va chuqur tahlildan so`ng amaliyotga tadbiq etish tahlikali davrda zamon talabi hisoblanadi. Anashu muammolarni o`rganish va tadqiq etish bilan ekologik muammolar va tahdidlarni bartaraf etish hamda profilaktik chora tadbirlarni imkon qadar ishlab chiqish, ekologik muammolarning oldini olishning huquqiy chora tadbirlarini o`rganish va takliflar bildirish, tadqiqotning bosh maqsadi hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish yo`lida tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo`yildi:

1. Ekologik muammolarning vujudga kelishi va tarixini yoritish
2. Global ekologik muammolar va xalqaro hamjamiyatning bunga munosabatini nazariy tadqiq etish
3. O`zbekistondagi ekologik muammolar va uni jamiyatimizga tasirini imkon qadar o`rganish
4. O`zbekiston va xalqoro ekologik jinoyatlar uchun javabgarlik masalalarini qiyosiy tahlil qilish
5. Ekologik muammolarni xal qilishning huquqiy choralari imkon qadar o`rganish va takliflar berish

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi. Tadqiqot natijasida ekologik tahdidlarning bo`lishi mumkin bo`lgan oqibatlari va ularning qonunchiligimiz va xalqaro qonunchilikda oldini olish chora tadbirlarini imkon qadar ochib berish va uni amaliy hayotga chuqurroq tadbiq etish yo`llarini taklif etish.

Tadqiqot natijalarining ahamiyati. Ekologik muammolarning insoniyat uchun, uning taraqqiyoti uchun nechog`lik xavfli ekanligini anglagan holda uning oqibatlarining kelib chiqishini oldini olishga nafaqat o`zim balki bu tadqiqot bilan tanishgan har bir O`zbekiston fuqorosida tabiatga nisbatan ijobiy munosabatda bo`lish hissini uyg`otish, ularning huquqiy jihatlarini qonunchiligimizga tadbiq etish choralari jadallashtirish, shuningdek tadqiqot natijasida ekologik tahdidlarning jamiyatimizga nechog`lik tasir ko`rsatayotganligini yana bir bor aniqlab uni oldini olish choralari ko`rish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

I.BOB. Ekologik tahdid tushunchasi va ularni vujudga keltiruvchi omillar

1.1 Ekologik tahdid tushunchasi, rivojlanish tarixi va tasnifi

XXI asr insoniyatning rivojlanishi tarixida tub burilish asri bo'lishi shubhasizdir. Insoniyatning yashash muhiti bo'lgan biosferadagi xayot sharoitlarini kelajak avlodlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda saqlab qolish zarurdir. Buning uchun misli ko'rilmagan say-harakatlarni amalga oshirish talab qilinadi. Atrof muhitni ifloslanishdan saqlash, axolini ichimlik suvi, ekologik toza oziq maxsulotlari bilan ta'minlash, biologik xilma-xillikni asrash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish dolzarb muammolar hisoblanadi va ularni ijobiy xal qilish insoniyatning kelgusi taraqqiyotini belgilaydi. Hozirgi davrda jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlarining tez sur'atlar bilan o'sishi, tabiatdan pala-partish foydalanish va o'zlashtirish natijasida ekologik muvozanat buzilib, ekologik tanglik yuzaga kelmoqda. Ekologik tangliklar o'z navbatida avj olib, sayyoramizning ba'zi mintaqalarida ekologik halokatlarni keltirib chiqaradi. Ekologik tanglikning tinmay kuchayib borishi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ekologik muammolar o'z vaqtida hal qilinmasa muayyan hududga ekologik halokat xavfini olib keladi. Bu jarayonlarning ortib borishi keyinchalik dunyo hamjamiyatiga qimmatga tushishi mumkin. Yani yer yuzidagi tabiiy jarayonlar va muxit tubdan o'zgarishi hamda yer yuzida yashash imkoniyatlarining kamayib ketishi muqarrar bo'lib qoladi.

Ekologik tahdid (muammo) deganda insonning tabiatga ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning ham insoniyatga aks ta'siri tushuniladi. Yani tabiatdagi tabiiy qaytarilish yoki tabiiy jarayonlarning sodir bolishiga inson omili natijasida zarar yetkazilishi shuningdek bu jarayonning tiklab bo'lmas darajaga keltirilishi natijasida tabiat tomonidan insonlarga salbiy tasir qiluvchi xodisa va jarayonlarning yuz berishini tushinish lozimdir. Bu jarayonlar yer va insonlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Bu xodisaning ko'lam qanchalik ortgan sari hayot kechirish va yashash imkoniyati kamayib boraveradi. Bundan tashqari ekologik inqiroz degan tushuncha ham mavjud bo'lib, Ekologik inqiroz deganda atrof-muhitga inson ta'sirining me'yorida ortishi natijasida munosabatlarning keskinlashuvi holati tushiniladi. Ekologik inqiroz insoniylikning inqirozi oqibatidir. Ijtimoiy muhitning ayrim insonlarning g'arazli, xasadli, nosog'lom fikrlari bilan «ifloslanishi» tabiiy muhitning kimyoviy birikmalar bilan

ifloslanishidan xam xavfliroqdir!»⁹ Umuman olganda ekologik tahdid, muammolar, inqirozlar kabi tushunchalar bir biriga yaqin bo`lib ularning barchasi inson va tabiat munoasabatlarining salbiy jihatini o`zida aks ettiradi. Faqatgina ular alohida tushuncha sifatida alohida va oqibati nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Insoniyatning rivojlanish tarixi tabiiy sharoitlarga moslashish, yangi yerlarni ochish, tabiiy boyliklarni topish va o`zlashtirishdan iborat bo`lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichida aholi sonining o`sishi oziq-ovqat yetishmasligi, yirtqich xayvonlar, iqlim sharoitlari kabi omillar ta`sirida cheklangan. Insonning tabiiy kuchlar oldidagi qaram-mutelig juda uzoq vaqt mobaynida davom etgan va ko`plab noxush voqealarining ro`y berishiga sabab bo`lgan. Habashistonda musson yomg`irlarining kuchayishi Nil o`zanining botqoqlashtirilishiga olib kelgan va aholi janubga ko`chishiga majbur bo`lgan. Quyi Misr qashshoqlasha boshlab vohadagi siyosiy va mintaqaviy ahamiyatidan mahrum bo`la borgan. Iqlim qurg`oqroq bo`lsa odamlar joylariga qaytishgan va qadimgi Misr davlatining qudrati yana o`sa boshlagan. Qadimgi shumerlar haddan tashqari ko`p sug`orish natijasida Tigr va Evfrat daryolarining quyi oqimida tuzlarning ko`payib ketishiga sabab bo`lishgan va Shumer madaniyati barbod bo`lgan. Endilikda faqat arxeologlarga Mesopotamiyada eng qadimgi sivilizasiyalardan biri bo`lganligiga guvohlik berishlari mumkin. Qadimgi Shumer ekologik tanazzuldan chiqish yo`lini topa olmadi va halok bo`ldi. Sug`oriladigan dehqonchilikning yangi shakllarini topgan (suv quyilgan cheklarda sholi yetishtirish va ayni vaqtda baliq urchitish) qadimgi Xitoy ekologik tanazzuldan o`tib oldi va boyib ketdi. U o`z sivilizatsiyasini barpo etdi va turmushlarini qayta qurib, tanazzuldan o`ta olmagan qo`shni xalqlarni haqli ravishda varvarlar deb hisoblay boshladilar va shu kabi jarayonlar asosida inson va tabiat shu kungacha yetib kelgan.¹⁰

«Tabiat-inson-jamiyat» tizimining evolyusion rivojlanishi tarixida beshta ijtimoiy-ekologik bosqichni ajratish mumkin.

1. Uzoq vaqt davomida insonlar tayyor maxsulotlarni termachilab va ov bilan kun kechirganlar. Insonlar tabiiy sharoit va oziq-ovqatning mavjudligiga to`la qaram bo`lgan. 40 ming yil oldin yer yuzidan axoli soni 10 mln kishidan ortgan. Keyingi 3 ming yil davomida mexnat va ov qurollarini takomillashtirish,

⁹ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6 -T.: "O`zbekiston", 1998.-B.11-14

¹⁰ To'raev V.A. Insoniyatga glaballashuv tahdidlari.// "Jahon adabiyoti", 12-son. 2003. -B.121-122

xayvonlarni xonakilashtirish, ayrim o'simliklarni yetishtirish bilan insoniyat ovqat ta'minoti masalasini asosan xal qilgan. Bu davrda insonlarning atrof-muhitga ta'siri maxalliy darajada bo'lgan. Bu ibtidoiy bosqich deb yuritiladi. Keyinchalik dexqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan insonlar o'troq yashashga o'ta boshladilar va jamiyat shakllandi. Insonlarning atrof –muhitga ta'siri xarakteri va miqyosi o'zgargan.

2. 10 ming yil oldin oziq yetishmasligi va tabiiy sharoitlarni cheklovchi roli yana ham kamaygan. Yer yuzida axoli soni 50 mln. kishidan ortgan. Dastlabki antik shaxarlar vujudga kelgan, madaniyat rivojlangan. O'simlik va xayvonlarning xayot tarzi, yashash sharoitlari va moslashishlari, sonining o'zgarishlari xaqidagi dastlabki ekologik bilimlar eramizdan avvalgi asrlarda qadimgi Rim va Yunonistonda vujudga kelgan. Bu davrga kelib tabiatga inson ta'sirining kuchayishi, o'rmonlarni kesilishi, yerlarni sho'r bosishi, dastlabki cho'llashish vaziyatlari kuzatilgan. Antropogen ta'sir natijasida, ayrim xayvon turlari qirilib ketgan, aloxida noyob o'simlik va xayvon turlari muhofaza qilingan. Bu agrar bosqich deb yuritiladi. Keyinchalik insonlarning atrof tabiiy muhitga ta'siri kuchayib borgan.
3. O'rta asrlarga kelib axoli soni 500 mln kishidan ortgan. O'rta Osiyoda dastlabki ekologik bilimlar vujudga kelgan. Yevropada uyg'onish davrida ekologik bilimlar rivojlangan. XVIII asrning oxirlarida, 1784-yilda bug' mashinasining ixtiro qilinishi bilan insoniyat tarixidagi industrial bosqich boshlangan. Bu davrga kelib inson xilma-xil tabiiy resurslardan foydalana boshlagan, antropogen modda almashinuvining ko'lamini oshgan.
4. XIX asrda axoli soni 1 mlrd kishidan oshgan, tabiiy resurslarni qazib olish va ishlatish hajmi o'sgan, ayrim o'simlik va xayvon turlari qirilib ketgan. Atrof-muhitning ifloslanishi kuchaya boshlagan. XIX asrning ikkinchi yarmida jamiyat tarixidagi texnogen bosqich ajratiladi.

Anashu davrlarda ekologik tahdidlar bazilari mavjud bo'lgan bazilari esa mavjud bo'lmagan lekin keyinchalik vaqt o'tishi bilan inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar murakkablashib borgan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib xayot sharoitlarining yaxshilanishi, fan texnika inqilobi axoli sonining keskin ortishi «Demografik portlash»¹¹ga olib keldi. Axoli sonining o'sishi, tabiatga ta'sirining kuchayishi natijasida maxalliy, regional, dunyo miqyosidagi global ekologik

¹¹ Xolov Y.D., Tÿpaev M.M. Ekologiya konsepsiyasi va tarixi. O'quv qo'llanma.-B.: "BuxDU", 2010.-B.14

muammolar kelib chiqdi. Yadro energiyasidan keng foydalanila boshlandi, sayyoramizning xayot qobig'i-biosferaning barqarorligiga jiddiy putur yetdi, o'rmonlarning maydoni qisqardi, cho'llashish, turlar sonining keskin kamayishi, atrof-muhitning kuchli ifloslanishi avj oldi. Bugungi kunda umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlari mavjudki, ularni xal qilishning o'zidayoq butun planetamizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun xal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

Birinchidan, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va h.k.) bo'lib, bular shartli ravishda «intersotsial»¹² muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilarni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, «Inson va jamiyat» o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi («Demografik portlash», kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyatda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitga moslashishi) shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, «inson — tabiat» munosabatlariga esa xomashyo resurslarini tejash, aholini oziq — ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu muammolar ijtimoiy omillar tasirida vujudga keladi, ularni xal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rnini va ahamiyatini to'g'ri anglagan holdagina masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin. Xuddi shuningdek, sof ijtimoiy global muammolarning yechimida tabiiy omillarning bu jarayonga bevosita ulanib ketishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak.

Insoniyatning kelajagi to'g'risida tarixda turli-tuman bashoratlar mavjud, ular bir necha xillarga bo'linadi. Masalan, xalqimizning ilk tarixiy qadriyatlaridan bo'lgan muqaddas «Avesto» yozma yodgorligi ham umumiy bir tarzda insoniyatning kelgusi istiqbolini bashorat qilib, kishilarni mushtarak maqsadlar tomon yo'naltirishga harakat qilgan. Bunday bashoratlar diniy mazmunga asoslangan bo'lib, o'z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan edi. «Avesto»da Zardusht o'limidan so'ng 3000 yil o'tgandan keyin, erkin farovonlik zamoni keladi,

¹² Xolov Y.D., Tÿpaev M.M. Ekologiya konsepsiyasi va tarixi. O'quv qo'llanma.-B.: "BuxDU", 2010.-B.14

Axura Mazda qudrati Axriman yovuzligi ustidan to'la g'alaba qazonadi, deya ishonch bildirilgan edi. "Avesto"da tabiat, yer, turli madanlar, o'simlik va hayvonot dunyosi insoniyat uchun moddiy ne'matlar asosi sifatida ahamiyatini sira yo'qotmasligiga alohida e'tibor berilgan. Zardushtiylik dini bayonicha, onazaminni, uning har siqim tuprog'ini e'zozlash, nopok bo'lishidan asrash lozim. "Avesto"da yerni yigit qizni sevgandek sevishi, e'zozlashi, mo'l hosil beruvchi zaminga aylantirishi da'vat etiladi. Ahura Mazda ko'rsatmasicha, yerga sara va kuchli urug' sepmoq dunyodagi eng zarur qonundir. "Yosh kelin eriga go'dak hadya etganidek, yer ham peshona teri va qo'l mehnati bilan uni parvarish qilgan odamlarga mo'l-ko'l hosil beradi. Haydalmagan va ekilmagan yer ersiz va farzandsiz bo'lgan johil qiz kabi baxtsizdir. Qiz yaxshi erni orzu qilganidek, yer ham yaxshi qo'shchiga ilhaq".¹³

Islom ta'limotida esa, Oллоh Taolo hamonki, hamma narsani inson uchun, uning xayri, rizq-nasibasi, baxt-saodat uchun yaratib qo'ygan ekan, uning vazifasi, burchi tevarak-atrofni e'zozlash, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabototni asrab-avaylash, ularning hammasiga mehr-shafqat ko'rsatishdan iboratdir. Islomda, Hadislarda ba'zi hayvon turlarini ov qilish, daraxtlarni kesish qat'iy man qilingan. Imom Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asarlarida Ibn Abbos raziollohu anhudan rivoyat qiladilarkim, Fathi Makka kuni payg'ambarimiz marhamat qiladilarkim, "Makkai mukarrama muqaddas – haramdur. Undagi tikon va nabotot uzilmaydi va hayvonlar ov qilinmaydi va tegilmaydi, faqat yaxshi yo'llar bilan ularga muomala qilinur".¹⁴

Ikkinchi xil bashoratlar o'rta asrlarda keng tarqalgan, hozirda ham G'arb mamlakatlarida keng shuhrat qazonayotgan bir qator G'arb futurologiyasi mazmuniga ega. G'arb futurologiyasining mashhur namoyandalaridan fon Karman, Y.E. Shervin, G. Kan va boshqalar insoniyatning kelgusi istiqbolini, asosan, yadro xalokati yoki boshqa bir umumbashariy global muammolar bilan bog'lab pessimistik manzaralarni chizib ko'rsatishga urinadilar. Kishilik jamiyatining kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida 1968 yilda A. Pechche tomonidan asos solingan «Rim klubi» a'zolari bo'lgan J. Forrester, D. Medouz, Y.A. Tinbergen, A. King va boshqalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning

¹³ Avesto - tarixiy-adabiy yodgorlik. Mahkam A. -T.: "Sharq", 2001.-B.54

¹⁴ Mansur A. Poklik imondandir. -T.: "O'zbekiston", 1999.-B.33

ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumbashariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zulurning mudhish oqibatlari qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritadilar. «Rim klubi» a'zolari tomonidan qilingan bashoratlari ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan o'tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan holda insoniyatning kelajagi to'g'risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan. Ana shunday misollar anchagina. Masalan, 1955 yil 31 yanvarda Frederiko Julio Kyuri (u shu paytda jahon ilmiy xodimlari fedyeratsiyasi tashkilotining prezidenti edi) Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda harakat qilishi lozimligini bildiradi. B. Rassel F. Kyuri taklifini qo'llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdorlari bo'lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq, jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda «yangicha tafakkur uslubi» deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A. Eynshteyn, F. Julio-Kyuri, M. Born, L. Poling va boshqalar tomonidan imzo qo'yilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955 yil 9 iyul kuni B. Rassel tomonidan o'tkazilgan press-konfyerensiyada «Rassel-Eynshteyn manifesti» nomi bilan shuhrat qazongan, butun yer yuzi aholisiga, siyosiy va davlat arboblari qaratilgan mashhur chaqiriq e'lon qilingan. U hozirgi paytda tinchlik va qurolsizlanish uchun kurashuvchi Paguosh harakatini boshlab bergan edi. Manifestda «Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o'z-o'zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarining harbiy g'alabasini ta'minlash uchun nimalar qilish zarur deb emas, balki yadro xalokati va uning dahshatli oqibatlari qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilding deb so'rashimiz kerak», — degan so'zlar bor edi.¹⁵ «Rassel-Eynshteyn manifesti» chop etilganiga ham mana 59 yil o'tdi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish va sinab ko'rish ko'lami bir necha barobar ko'paydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tgan yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida qurollanishga 20-25 trl dollar mablag` sarflandi. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'ta kamyob aql egalari, talantli kishilarning aqliy faoliyatini

¹⁵ Rustamboyev M.X., Usmonov M.Y., G'ofurov Z. Tabiatni muhofaza qilishning manaviy huquqiy asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: "Adolat", 2005.-B.261

ham o'z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo'nalishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Xozirgi vaqtda mavjud ekologik muammolarni o'rganish va hal qilish masalasiga ikki xil yondashish mavjuddir.

Texnosentrik yondashishda ekologik muammolarni xal qilishning texnologik choralari asosiy deb xisoblanadi va tabiatning imkoniyatlari, qonuniyatlari yetarlicha e'tiborga olinmaydi. Tabiiy boyliklardan foydalanishda texnologik qudrat xal qiluvchi rol o'ynaydi. Texnika imkoniyatlari yordamida biosfera barqarorligini tiklash, ekologik muammolarni xal qilish mumkinligi ta'kidlanadi. Bunday yondashish ko'pchilik iqtisodchilar, siyosatchilar va xo'jalik raxbarlari uchun asosiy xisoblanadi.

Ekosentrik yondashishda tabiatdagi qonunlarni xisobga olish, mavjud tabiiy ekosistemalarni asl xolida saqlab qolish ustuvor vazifa xisoblanadi. Biosferadagi mavjud boyliklarning buzilishi texnik yechimlar yordamida tiklab bo'lmaydi deb xisoblanadi. Insoniyatning taraqqiyoti ekologik imperativ- tabiat qonunlariga bo'ysunish talabi bilan chegaralanadi.

Ekologik tahdidlar o'z nomi bilan ham ma'lum, ammo ularning insoniyatga ta'siri, yetkazadigan va yetkazishi mumkin bo'lgan zararlari jihatidan bir biridan farqlanadi. Chunki ularning bazisi butun dunyoni egallasa, ba'zisi juda katta hududlarni egallasa, ba'zilar esa juda kichik va chegaralangan hududlarni qamrab oladi. Biroq ular oqibatlari jihatidan esa yana farqlanadi, chunki global darajadagi muammolardan ko'ra malum hududdagi ekologik muammolarning oqibati og'ir bo'ladi. Bunday muammolar yuzaga kelishi nuqtayi nazaridan tabiiy va sunniyga bo'linadi. Ekologik tahdidlar (muammolar) tasnifi quyidagilardan iboratdir: *Global (umumbashariy)*- Chuchuk suv muammosi; Azon qatlamining siyraklashishi; Atmosferaning dimiqishi; Pestitsidlardan foydalanish; O'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi; Aholi sonining ortishi; Cho'llanish jarayoni; Chiqindilarning ko'payishi. *Regional (mintaqaviy)*- Orol va Orolbo'yi muammosi; Chuchuk suv muammosi; Cho'llanish jarayoni; O'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi; Pestitsidlardan foydalanish; Radioaktiv ifloslanish; Kosmonavtika. *Lokal (mahalliy)*- Har qanday hududda yuzaga keladigan muammolar; Masalan: Toshkent shahrida havoning avtotransport bilan ifloslanish.

Ekologik inqirozni bartaraf qilish uchun insonlarning axloqiy poklanishi, yangilanishi xayotiy zarurdir. Xar bir inson o'z xayot tarzini o'zgartirishi lozim

bo'ladi. Buning uchun inson tafakkuri, ongini ekologiyalashtirish, mavjud ta'lim tizimini qaytadan tashkil qilish, yangi madaniyatni shakllantirish talab qilinadi. Insonlarning oilasini ixtiyoriy rejalashtirishi, ayrim ehtiyojlaridan voz kecha bilishi, tabiatga jonkuyar bo'lish biosfera barqarorligini saqlab qolishning asosiy shartlaridan xisoblanadi. Ta'lim, madaniyatni rivojlantirish, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni tiklash mavjud muammolarni xal qilishda yetakchi ro'l o'ynaydi. Insonlarning ta'siri biosferaning sig'imidan oshib ketmasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalana bilishga erishish, barqaror rivojlanishni ta'minlash xayotiy zarurdir. Bu dolzarb masalalarni xal qilishda axolining ekologik savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga egadir. Ekologik ta'lim va tarbiya tegishli darajada yo'lga qo'yilgan va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun yetarlicha mablag' sarflanadigan mamlakatlarda inqiroz vaziyatlari tugatiladi va barqaror rivojlanish yo'liga o'tiladi.

1.2 XXI asrdagi ekologik tahdidlar va ularning oqibatlari

Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida shunday muammolar domiga tortildiki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umubashariy muammo-yadro xalokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, II jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga ruju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani chigallashtirib yubordi. Ana shunday sharoitda har bir aql zakovatli odam «Bunday yo'lida qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilmayapmizmi» — degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savollarni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz xal etib bo'lmaydi.¹⁶

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri tobora xalokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina, har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida

¹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.- B.116

jipslashish, zudlik bilan ta'sirli choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. «Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir».¹⁷

Hozirgi paytda insoniyatga xafv solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolar tushuniladi. Bunday muammolar quyidagilardir: iqtisodiy qoloqlikni; yer yuzida qashshoqlik va ochlikni tugatish; insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish; (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash; dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; Yer yuzida haroratning ortib borishi; Changning atrof muxitga tasiri; Chiqindilarning ko'payib borishi; Orol dengizi muammosi; Chuchuk suv muammosining ortib borishi; Tuproq eroziyasining jadal rivojlanayotganligi; Azon tuynigining kengayayotganligi; Xomashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi; Urush va tinchlik muammosi-yalpi qirg'in urushlarni oldini olish va tinchlikni saklash; Ekologiya muammolari atrof-muxitni muxofaza qilish; Demografik muammolar yer yuzi axolisining tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi; Oziq-ovqat muammosi yer yuzi axolisini moddiy ne'matlar bilan optimal darajada ta'minlash imkoniyatlarining keskin qisqarib borayotganligi; Energetika muammolari yer ostidan va ustidan olinadigan energiya manbalari miqdorining tobora kamayib borayotganligi; Sotsial kasalliklarning oldini olish muammosi jahon axolisi orasida keng tarqalayotgan Spid, Sil, yurak-qon tomir, kam qonlik, gepatit, rak kabi xavfli kasalliklarning tarqalib borayotganligi; Etikologiya muammolari, inson va insoniyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasida tanazzul yuz berayotganligi: axloksizlik, jinoyatchilik, korrupsiya, terrorizm, reketchilik, buzuvchilik, siyosiy va diniy ekstremizmning butun dunyoda xuruj qilayotganligi va hokozolar.

Bundan tashqari yana shunday ekologik muammolar borki, masalan turli mintaqalarda yuzaga kelayotgan muammolar, ular hozirda hal qilinmasa keyinchalik global muammolarga aylanib insoniyat uchun xavf-xatar tug'dirishi mumkin. Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang turib qolishining o'ziyiq kishilik sivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni

¹⁷Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. Global iqtisodiyotga integratsiya. O'quv qo'llanma.-T.: "TDIU", 2009.-B. 232

boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Yuqoridagilarning bazisini ko'rib chiqamiz.

O'rmonlar. O'rmonlar inson hayotining asosiy manbalaridan biridir. Tabiat uchun ham, jamiyat va inson hayoti uchun ham o'rmonlarning xosiyati beqiyosdir. «O'rmon barcha tabiat boyliklarini o'zaro bir-biri bilan bog'lovchi, inson hayotining davom etishida ekologik muvozanatni mustahkamlovchi, yer, suv, hayvonot, o'simliklar dunyosi hamda havoning muvozanatini ta'minlovchi asosiy manbadir».¹⁸ Inson hayoti o'rmonlar bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Odamzot qurilish ishlarida hamda yog'ochsozlik va qog'oz sanoati uchun o'rmonlardan foydalanadi. Har xil mevalarni ham, inson salomatligi uchun o'ta zarur va muhim hisoblangan shifobaxsh giyohlar, dori-darmonlarni ham o'rmonlardagi daraxtlar, o't-o'lanlardan olinadi. Bundan tashqari, o'rmonlar-istirohat qilinadigan joy, sof havoning koni, tabiiy boyliklar manbaidir. Olimlarning fikricha, bir gektar o'rmon yozda bir kunda 200 kilogramm karbonat angridrini yutib, 220 kilogramm kislorod ajratib chiqaradi. Ana shu ma'noda o'rmonlarni sof havo manbai, atrof muhitni tabiiy tozalagichi, deb ta'riflaydilar. Keyingi yillarda dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida o'rmonlar har xil bahonalar bilan o'ylamay-netmay, vahshiylarcha kesib tashlanmoqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormoqda, 200 ming km kv territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib qayta tiklanmay qolmoqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln gektar, yoki minutiga 16 gektar o'rmon yo'qotilmoqda. Istiqbolni o'ylamay qilingan ko'r-ko'rona harakatlar oqibatida «millionlab gektar ekin maydonlari va tropik o'rmonlar yildan-yilga yo'qolib bormoqda. Bundan tashqari, bu oziq-ovqat, ip-tola, qurilish materiallari va energiyaga ta'sir qilayotgan iqtisodiy tanglikka hamda farmasevtik mahsulotlari tabiiy manbalarning kamayib ketishi va parazitlarni qiruvchi tabiiy agentlarning yo'qolib ketishiga sababchidir».¹⁹

Okean.Suv ta'minotining an'anaviy manbalari hisoblangan daryolar, ko'llar, Shimoliy qutb muzliklari, dengizlar, suv omborlari ham ifloslanmoqda. Insoniyatning eng katta oziq-ovqat manbalari hisoblangan jahon okeanlari hozirgi vaqtda inson sivilizasiyasi qurboni bo'lmoqda. Har yili jahon okeanlariga millionlab tonnagacha miqdorda neft va neft mahsulotlari, sanoat chiqindilari kelib tushmoqda. Halokatga uchrab suvda cho'kib ketgan va ketayotgan samolyotlar, «Mir» deb atalgan kosmik korabllar, atom bombalari, har xil zahri qotillar bilan

¹⁸ Xolmuminov J. Ekologiya va qonun. O'quv qo'llanma. -T.: "Adolat", 2000.-B. 325

¹⁹ Federiko Mayor. Kelajak xotirasi.-T.: "O'zbekiston", 1996.-B.136

limmo-lim bo'lgan harbiy kemalarning dengiz va okeanlar qo'riga nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi suvni va havoni zaharlab jonivorlarga qiron keltirmoqda.

Issiqxona. Atmosfera tarkibida zararli gazlarning ko'payib ketishi oqibatida «issiqxona ta'siri» («parnik effekti») degan hodisa ko'paymog'i aniq. Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, atmosferada qalinlashgan uglerod qatlami Quyosh radiyasiyasining yerga bemalol o'tkazib yuborgan holda issiqlik nurlanishining atmosferaning yuqori qatlamlariga qaytishini to'xtatib qoladi. Shunga muvofiq atmosferaning quyi qatlamlarida harorat ko'tariladi. 1970-yillarda modellar yasab o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, atmosferada to'planib qolgan zaharli gaz ikki barobar oshsa, buning oqibatida yerda harorat o'rtacha 2,9 darajaga ko'tarilar ekan. Bu holda qutb hududlarida mangu muzliklarda muz va qorlarning erishi muqarrar bo'lib qoladi, okean sathi ko'tariladi. Dengiz bo'ylaridagi quruq yerlarning juda ko'p qismini suv bosadi. Dengiz sathi atigi bir metr ko'tariladigan bo'lsa, masalan, Bangladesh o'z yerining 11 foizini yo'qotadi. Misr hududi 15 foizga qisqaradi. Maldiv orollari va Xitoyning dengiz sathidan quyida joylashgan daryo havzalaridagi hududlari deyarli to'la tarzda suv ostida qoladi. Hozir bu hududlarda bir necha o'n millionlab aholi yashaydi, ularning boshiga qochoqlar qismati tushmog'i mumkin. Bundan tashqari, haroratdagi muvozanatning yo'qolishi tufayli ko'pgina turdagi o'simliklar va jonivorlar dunyosining vakillari zurriyod berish qobiliyatidan mahrum bo'ladi.²⁰ Shu paytgacha hech qachon qattiq sovuq bo'lmagan joylarda qish sovug'i kuchayib ketmoqda. Qurg'oqchilik va suv toshqinlari ko'pgina mintaqalarda ochlik va qashshoqlikni yuzaga keltirdi. Ochlik esa qurolli mojarolardan ko'ra xavflidir. Iqlimdagi o'zgarishlar muqarrar ravishda iqtisodiy qiyinchiliklarga olib kelmoqda. 2011 yilda 200 nafar iqlimshunos Yer sharida haroratning keskin ko'tarilib ketishi munosabati bilan 1997 yil qabul qilingan Kioto protokolini amalga tezroq tatbiq qilish masalalarini ko'rib chiqdi. Iqlimshunoslar vaqtni qo'ldan boy bermay, protokol yuzasidan kerakli choratadbirlar ishlab chiqish zarurligiga alohida urg'u berishdi. Dastlab haroratning ko'tarilib ketishi va atmosferaning ifloslanish darajasi xavfli nuqtaga yaqinlashib qolganligi haqida iqlim o'zgarishi munosabati bilan tuzilgan huqumatlararo komissiya rahbari Rajendra Pachauri to'xtalib o'tgandi. U bu mavzuda BMTning Mavrikiyada bo'lib o'tgan konfyerentsiyasida ma'ruza qildi. Keyin Oksford universitetning bir guruh olimlari iqlimning keskin

²⁰ Qarang: To'raev A.V. Insoniyatga globallashuv tahdidlari. // "Jahon adabiyoti". 12-son. 2003. -B.124-125

o'zgarishi ikki marta ko'p xavf keltirishini aniqlashdi. Xalqaro ishchi guruhining ta'kidlashicha, o'n yildan keyingi vaziyat asl holiga qaytarib bo'lmaydigan darajaga yetadi. 1986 yil Venada yig'ilgan yadro energetikasi mutaxassislari Chernobl fojeasini ko'tarib chiqishgandi. Sobiq Ittifoq delegatsiyasi o'shanda vertolyotda suratga tushirilgan yadro reaktorining cho'g' rangiga kirish jarayonini havola etgandi. Albatta, tasvirlarning bari keskin ruhda emasdi. Lekin jonli hujjat o'z davrida dunyo siyosatdonlariga yetarlicha tashvish tug'dirayotgan yadro inqirozini yaqqol namoyon etdi. Hozirga kelib yadro muammosiga haroratning oshishi, muzliklarning erishi qo'shildi. Shunday bo'lsada, Arktikadagi dengiz muzliklari deyarli yarim hajmidan ayrilganini keltirib o'tmoq joiz. Qashshoqlik, qurg'oqchilik, kuchli shamollar va suvsizlik kabi ofatlar zilzilaga nisbatan uch marta ko'proq sodir bo'layapti. Bularning bari iqlim o'zgarishiga bog'liq hodisalardir. Olimlarning aniqlashicha, Shimoliy dengizdagi qushlar soni keskin kamayib ketgan. Chunki ular iste'mol qiladigan baliqlar iliq suv havzalarini tark etishgan. Britaniyada Antarktika loyihasi bilan shug'ullanuvchi olimlar hozirning o'zidayoq bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, G'arbiy Antarktikadagi muz qoplamining erishi oqibatida dengiz sathi o'n besh fut, taxminan 4,57 metrgacha ko'tariladi.²¹ Ayni paytda yangi ilmiy xulosa vujudga kelmoqda: agar biz fojeaning oldini olishni istasak, unda isish haroratini ikki gradus oraliqda ushlab turmoq lozim. Bu uglekislorodli gazlar kontsentratsiyasining maksimal miqdori 400 birlikni tashkil etishi kerakligini bildiradi. Afsuski, hozirning o'zidayoq kontsentratsiya 370 birlikka yetgan va o'sishda davom etmoqda. Mutaxassislarning fikricha, masalaga yechim topish mumkin. Buning uchun davlatlar 2050 yilgacha uglekislorodli gazlar hajmini 50 foizga qisqartirishlari, rivojlangan mamlakatlar 2020 yilgacha 30 foizga kamaytirishlari darkor. Vaqt esa kam qolgan. Agar kelayotgan o'n yil yana harakatsiz o'tkazilsa, keyin ikki barobar kuch talab qiluvchi tadbirlarga ehtiyoj tug'iladi. Yigirma yil bekorga sarflansa, bu uch-yetti barobar qimmatga tushadi. Yaxshisi, zararsiz texnologiyalarni ishlab chiqmoq, energetik chiqindilar miqdorini kamaytirish, qayta ishlash sanoatini takomillashtirmoq, o'rmon va qishloq xo'jalik resurslaridan unumli foydalanmoq zarur.

Kasalliklar. Yer yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irlar, atmosfera

²¹ Qarang: To'raev V.A. Insoniyatga globallashuv tahdidlari. // "Jahon adabiyoti", 10-son.2003. -B.127-128

ifloslanishi, azon qatlami buzilishi va tarkibida oltingugurt qo'sh oksidi bo'lgan tuzli yomg'irlar yog'ishi natijasida butun dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli-tuman kasalliklar soni ortib bormoqda. Dunyo miqyosidagi rak, SPID singari o'ta xatarli kasalliklar yildan-yilga ko'payib ketdi. Yerning ozon qatlamining barbod bo'lishi Ona zaminimizni radiasiyaning ultra binafsha nurlaridan himoya qilinishini yo'qqa chiqarmoqda. Bir qator olimlar teri rakining ko'payib ketganini insonga ultra binafsha nurlari ta'siri kuchaygani bilan bog'laydilar. Hozirgi paytda dunyo bo'yicha har yili 500 mingdan ko'proq kishi rak bilan kasallangan bo'lsa, uning 60 foizi muhitdagi har xil moddalarning ko'payishi natijasida hosil bo'lgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Demografik muammolar. Dunyo aholisining yildan-yilga o'sib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarga bo'lgan ehtiyojlarining muttasil ravishda o'sib borayotganligi ham odamlar bilan atrof muhit o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766-1834 yy.) ogohlantirgan edi. U o'zining «Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar» nomli kitobida aholining geometrik progressiya bo'yicha ko'payishini, uning xayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik progressiya bo'yicha ro'y berishini aytgan edi. Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar mashtabda, tabiiy muhit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez sur'atlarda ko'payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.²² Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, 1996 yilda jahonda 5 milliard 702 million aholi yashagan. 1998 yilda esa 6 milliarddan oshib ketgan. 2025 yilga borib 8,5 milliardga o'sishi faraz qilinmoqda. Demak, bu davrda jahon aholisi 1996 yilga nisbatan yana 2 milliard 610 million kishiga ko'payadi. Bu raqamlarning ko'proq tashvishlantiradigan tomoni shundaki, ilgari, ya'ni dunyo aholisining 1 milliarddan 2 milliardga o'sishi uchun 130 yil zarur bo'lgan edi. Bu o'ziga xos demografik jadal o'sish shu dalilga asoslanadiki, aholining ko'payishi sur'atlari rivojlangan mamlakatlarda asta-sekin kamaymoqda.²³ XXI asr davomida kurrai zaminning yangi milliardlab avlodlari katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qiyinchiliklarni

²² Jon Edmund. Protection of Environment.-L.: "Maccillan",2009.-B.23

²³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.113-114

boshidan kechirayotgan Osiyo, Afrika mamlakatlarida dunyoga keladi. Osiyo qit'asining aholisi 1996 yilda 3 milliard 451 million bo'lsa, 2025 yilda bu 5 milliard kishiga yetadi. Afrika aholisi esa shu davr ichida 720 milliondan 1 milliard 510 millionga yetadi. Ayrim mamlakatlarning aholisi nihoyatda katta tezlik bilan o'sib bormoqda. Saudiya Arabistonining aholisi 1996 yilda 18,5 million kishi bo'lsa, 2025 yilda 48,2 million kishiga yetadi. Shu vaqt ichida Mali aholisi 9,4 milliondan 23,7 millionga, Nigeriya aholisi 101,3 milliondan 246 millionga, Gana aholisi 17,5 milliondan 38 millionga yetadi. Taxmin qilishlaricha, Yer yuzi aholining 80 foizi, ya'ni g'oyat katta qismi Uchinchi dunyoda yashaydigan bo'ladi.²⁴ Markaziy Osiyo respublikalarida ham aholining jadal sur'atlar bilan o'sishi kutilmoqda. O'zbekiston aholisi 1995 yilda 22,7 million bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 42,3 millionga yetadi. Shu davr ichida Qozog'iston aholisi 16,9 milliondan 20,2 millionga, Tojikiston aholisi 5,8 milliondan 13,1 millionga, Turkmaniston aholisi 4,5 milliondan 7,9 millionga, Qirg'iziston aholisi, 4,4 milliondan 7 millionga yetishi taxmin qilinmoqda. Shu 30 yil ichida Markaziy Osiyodagi besh mustaqil davlatning aholisi 54,3 milliondan 90,8 millionga yetishi mumkin. Rossiya aholisi esa shu 30 yil ichida faqat 5-6 millionga ko'payishi kutilmoqda. Bu o'sish ham Shimoliy Kavkaz va Sibir aholisi hisobiga yuz beradi.²⁵ XX asrning oxirlari va XXI asr boshlarida aholisi 11 milliondan ortiq har 20 shaharning 17 tasi uchinchi dunyoga to'g'ri keladi. «Biroq katta shaharlar shunday ham yetishmay turgan oziq-ovqat va suv resurslarini iste'mol qilib, yoqilg'ini sarflab va axlat chiqaribgina qolmay, balki sanoat korxonalari hisobiga tez kengayib atrof maydonini o'zlarining chiqindilarini o'zlashtirishga va tozalashga majbur qiladi».²⁶

Suv muammolari. Aholining dunyo miqyosida yildan-yil ortib borishi, yangidan-yangi, ilgari bo'lmagan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ana shunday dolzarb muammolardan yana biri ichimlik suv masalasidir. Masalaga yuzaki qaraganda, sayyoramizda suv behisob, chek-chegasiz bo'lib ko'rinadi. Agar jahondagi barcha suv zaxiralari 1.500 million kub km. bo'lsa, uning 94 foizi okean, dengiz suvlaridir. Suv zaxiralarining 6 foizi esa yer osti suvlari va muzliklardir. Jahondagi ichishga yaroqli suvlar esa barcha suv zaxiralarining faqat 0,0221 foizini tashkil etadi. Ko'rinib turganidek, ichimlik suvi, boshqacha

²⁴ Federiko Mayor. Kelajak xotirasi.-T.: "O'zbekiston", 1996.-B.197

²⁵ Shodiyev A.U. Qadryatlar va ijtimoiy taraqqiyot. O'quv qo'llanma.-T.: "O'zbekiston".1997.-B.61-62

²⁶ Federiko Mayor. Kelajak xotirasi.-T.: "O'zbekiston", 1996.-B.138

aytganda, chuchuk suv masalasi dunyodagi eng og'ir muammolardan biri sifatida kun tartibida turibdi. «Sayyorada chuchuk suv zaxiralari halokatli tarzda kamayib bormoqda. BMT ma'lumotlariga qaraganda hozirgi paytda zamin ahlidan 1,3 milliard kishi sifatli ichiladigan suvga zor bo'lib yashamoqda. Hozir shahar aholisining 20 foizi va qishloq aholisining 75 foizining suvga bo'lgan ehtiyoji qondirilmoqda, shuni ham aytmoq kerakki, suvni iste'mol qilish hamma mintaqaga va yashash darajasiga bog'liq ravishda sutkasiga bir kishiga 3 litrdan 7 litrgacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi. Xo'jalik ehtiyojlari uchun inson yiliga jamiki jahondagi chuchuk suvining 5 foizdan ortiqrog'ini iste'mol qiladi. Lekin bundan tashqari, yana uning 40 foizi ifloslanish natijasida iste'mol qilmoq uchun yaroqsiz holga keladi. Ko'p mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, bu jarayon davom etadigan bo'lsa, XXI asrning o'rtalariga borib sayyorada toza chuchuk suv boyliklari butunlay tamom bo'ladi»²⁷.

Muammolarni xal qilishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Bor suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvni befoyda sarflanishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, agarda bu yo'l bilan suv xo'jaligi muammolarini uzil-kesil xal qilish mumkin bo'lmasa u holda.

2. Havzalararo mavjud suv resurslarini qayta taqsimlash yo'li bilan suv bilan kam taminlangan havzalarga (hududlarga) suv resursi katta va ortiqcha miqdorda bo'lgan suv resursini qo'shni havzaga uzatish yo'li bilan xal qilish.

3. Tabiatda juda katta miqdorda bo'lgan (okean, dengiz, ko'l va yer osti) sho'rroq va sho'r suvlarni sho'rsizlantirish yo'li bilan mavjud suv tanqisligini xal qilish.

4. Katta-katta aysbyerglarni (qutb qoplama muz parchasini) kemalar yordamida shatakka olib, qirg'oqda eritib chuchuk suv olish yo'li bilan xal qilish. Hozirgi kunda dunyo miqyosida yuqorida sanab o'tilgan to'rtala yo'llardan foydalangan holda mavjud suv xo'jaligi muammolarini xal qilish amalga oshirilmoqda.

Azon qatlami yemirilishi. Azon qatlami Yer atmosferasining qismini tashkil qiladi va yuqori konsentratsiyadagi azonni (O_3) saqlaydi. Ushbu qatlam taxminan 93 foizdan 99 foizgacha quyoshning o'tkir ultrabinafsha nurlarini yutadi. Agar bu qatlamdan ultrabinafsha nurlari to'liq o'tsa, yerdagi hayotga yakun yasashi

²⁷ Qarang: To'raev V.A. Insoniyatga glaballashuv tahdidlari.// "Jahon adabiyoti". 11-son. 2003.-B.126

mumkin. Azon qatlamining katta qisimi stratosferaning quyi ya'ni, Yer yuzasidan 10 dan 50 kmgacha bo'lgan masofada joylashgan. Azon yemiruvchi moddalarning atrof-muhitga ta'siri birinchi marta 1980 yilning o'rtalarida Antarktida ustidagi stratosferadagi azon qatlamining 1975 yildagi holatiga nisbatan 60-70 foiz kamayishining kuzatilishi bilan aniqlangan. Umumiy kenglikda azon qatlamining taxminan 3-6 foizga siyraklashgan. Azon qatlamining siyraklashishi natijasida, ultrabinafsha nurlarining ortishi oqibatida, Yer yuzasi bu nurlarning yetib kelishi, o'z navbatida aholi salomatligi va ekologiya bilan bog'liq muammolarni ortishiga olib keladi. Xususan: teri raki, o'simliklarning shikastlanishi, shu jumladan o'simlik mahsulotlarini yetishtirilishining kamayishi, fotosintez jarayonlarining susayishini chaqiruvchi plankton va fitoplankton kabi okeanning xilma-xilligining muhim turlarining kamayishiga olib keladi. Fitoplanktonlarning qisqarishi global isishga ta'sir etadi. Ma'lumki, ular okeandagi uglerod zahirasini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Azon qatlami yemirilishi inson salomatligi va qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarishga ta'siri tufayli xukumatlararo choralar 1985 yilda azon qatlamini muhofaza qilish haqidagi Vena konvensiyasiga qabul qilindi, 1987 yil 16 sentyabrda esa, azon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga kiritilgan. Ushbu ikki hujjat azon yemiruvchilarni ishlab chiqarilishi va ulardan foydalanishni bosqichma-bosqich qisqartirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, sanab o'tilgan xalqaro kelishuvlarda belgilangan choralar o'ziga, azon yemiruvchi moddalar va tarkibida ular mavjud bo'lgan mahsulotlarni importi va eksporti ustidan nazorat o'rantiilishini ham oladi.

Har yili 16 sentyabr Monreal protokoli qabul qilingan kun xalqaro azon qatlamini himoya qilish kuni sifatida bayram qilinadi. Stratosferaning azon qatlami buzilishi tahdidlarining global tavsifini his qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi 1993 yilning mayida Vena konvensiyasi va Monreal protokolini imzoladi va bugungi kunda protokolning barcha tuzatmalari tomoni hisoblanadi. Monreal protokolini bajarish uchun O'zbekiston 1994 yil yanvarida gallonlar importi (foydalanishi), 1996 yil yanvarida esa, xlorftoruglerod (keying o'rinlarda XFU) va boshqa turdagi azon yemiruvchi moddalarning importini to'xtatishi lozim edi. Gallonlarni oborotdan chiqarish o'z muddatida bajarildi. Biroq, XFU va boshqa moddalarning importi belgilangan muddatdan keyin ham davom etdi. Monreal protokoli mamlakatlari bu muammoni muhokama qildilar va 1998 yilda qaror qabul qildilar. Unga muvofiq, O'zbekiston o'ziga azon yemiruvchi moddalardan

foydalanishni to'xtatish bo'yicha milliy Dasturni qabul qilish majburiyatini oldi. Shu bilan bir qatorda, barcha mamlakatlar ustida ish olib borilishini nazarda tutuvchi umumiy xalq bo'lmagan muammolar qolmoqda. Xususan: Moreal protokolining talablariga muvofiq, AYEMlarni foydalanishdan chiqarish lozim; AYEM bo'yicha cheklanishlar kiritish, hom ashyo sifatida qurilmalarda bo'lgan metil bromidi bo'yicha, karantin ishlov berish uchun istisno tariqasida foydalanilayotgan yangi AYEM bo'yicha Monreal protokoli bilan nazorat qilinmayotganligi; AYEM bo'yicha loyixalarni boshqa ekologik vazifalar bilan o'zaro foydali birlashtirishlarni ta'minlash.

Energiya va yoqilg'i resurslaridan tejimli foydalanish mammosi.

Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jahon iqtisodiyotining sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar hozirgi sur'atda jahon iqtisodiyoti davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg'i talab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025 yilda 35-40 mlrd, XXI oxiriga borib 80-85 mlrd tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda. Vujudga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo'li esa bitta, u ham bo'lsa, yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va x. k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x.k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin. Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan ko'paytirib borish ko'zda tutilmoqda. Butun jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyb 34% ana shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi²⁸. Elektr energiyasining shu qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon atrofidagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GESlarning qurilishi o'z navbatida ana shu regionning, iqlim sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning sho'rlanishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin). Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning yechilishi murakkab muammolariga aylandi.

²⁸ Qarang: To'raev. V A. Insoniyatga glaballashuv tahdidlari.// "Jahon adabiyoti". 15-son. 2003. -B.112

Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi natijasida juda katta miqdordagi radiatsiyaning xavoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi. 2011 yildagi Yaponiyadagi AES ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq, bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar sirasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Xom-ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi. Jahon statistik axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holatni xom-ashyoning boshqa turlari to'g'risida ham gapirish mumkin. Tahlillarga qaraganda, 90-yillarda ishlab chiqarilgan xomashyo miqdori 60-70-yillardagiga qaraganda 1,5-2 barobar ko'paygan. Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xom-ashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshqa xom-ashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan ekologik vaziyat, tabiiy muhitning inson organizmiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Boshqa tomondan esa, fan-texnika taraqqiyotining ko'lami asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini xomashyo resurslari, foydali qazilmalari bilan yetarli miqdorda ta'minlash muammosini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Mazkur muammoni ijobiy xal qilish uchun, iqtisodchilarning tahlillariga ko'ra, jahon mamlakatlarining har biri o'zi ishlab chiqargan yalpi milliy maxsulotning 3-5% miqdorida mablag` ajratishi zarur. Demak, xar yili o'rta hisob bilan 650-850 mlrd dollar hajmida mablag` ajratilishi talab etiladi. Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan qiyinchiliklar yuzaga chiqmoqda. Ayni shu mamlakatlardan 42-45% km kub hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqava suvlar, suv havzalari, ko'l, dengiz, okean suvlarini o'zining zaharli tarkibi bilan bulg`amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza

ichimlik suvlariga bo'lgan ehtiyoj dunyo miqiyosida asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3-2,5 barobar oshdi.

Oziq-ovqat muammosi. Nihoyatda tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining $\frac{2}{3}$ qismi doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqalarda ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib 0,2 ni tashkil etmoqda. Holbuki, 1950 yilda bu ko'rsatkich 0,5 ni tashkil etgan edi. Oziq-ovqat zaxiralarining o'sishini, bir tomondan, ishlanadigan yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan ekilayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi paytlarda hosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, 80 — yillarning oxirlariga kelib dunyo miqiyosida yetishtirilgan mahsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qattiq zug'um qilish natijasida erishiladi.

Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotish ham davrimizning eng chigal jahonshumul muammolari qatoridan o'rin oldi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiya, ilg'or ishlab chiqarish malakasi va insoniyatning ilmiy-texnika yutuqlari sistemalashtirilgan bilimlar zaxirasi to'planib, shu bilan birga aholining tabiiy o'sish darajasining pastligi boshqa mamlakatlarga nisbatan o'z mamlakati aholisining iqtisodiy yashash tarzining beqiyos darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning o'ziga xos tomonlari shundaki, mazkur mamlakatlarda industrilashtirish jarayoni asrimizning 70-yillari boshidayoq tugallanib, eng avval AQSH va keyinchalik Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuqoriroq bosqichiga o'ta boshladi. Bunda ilmiy-texnika yutuqlari ko'proq talabga mos va yuqori texnologiyani rivojlantirishga ko'p e'tibor berdi, tabiiyki, oqibatda juda katta foyda olinib boshlandi.²⁹ Bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-bilim, texnologiya, murakkab mashina va uskunalar bilan o'lchanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu

²⁹ Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. Global iqtisodiyotga integratsiya. O'quv qo'llanma.- T.: "TDIU", 2009.-B.232

darajaga yetishish uchun bir qator jarayonlardan o'tgan. Birinchidan, bu mamlakatlar tabiiy boyliklari hisobiga orttirilgan milliy daromad miqdorining mamlakat aholisi jon boshiga tushadigan salmog'i keskin darajada ko'paydi. Ikkinchidan, mamlakat aholisining tug'ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag'ni yuqori texnologiyani egallashda zarur bo'lgan mutaxassislar yetkazish uchun sarflash ko'zda tutildi. Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot, oliy o'quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy manba sifatida qarab, birinchi darajali ahamiyat berildi. Ijtimoiy taraqqiyot darajasini belgilovchi eng asosiy omil ilmiy tafakkur esa jamiyat a'zolarining ma'rifatlilik darajasini belgilab beradi. Bu sohada, butun jahon miqyosida fan va ta'limga 3-4% yalpi milliy mahsulotning miqdorida mablag` ajratilayotgan bir paytda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 8,3% miqdorda ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug'diradi. XX asrning so'nggi o'n yilligida ba'zi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy ko'rsatkich orasidagi tafovut tobora kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Agar XX asrning 60-yillarida Hindistonda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50-70 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Afg'onistonda 60-70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQShda 3600-3800 dollar bo'lgan. 1994 yilgi ma'lumotlarga muvofiq, yalpi milliy mahsulot jon boshiga: Hindistonda 370 dollar, Afg'onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshda 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar, Italiyada 14,8 ming dollar, AQShda 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo'lgan.³⁰

Demak, kambag'al davlatlarning kambag'allashishi yanada kuchayib bormoqda. Buning bosh sababchisi, shu mamlakatlardagi demografik jarayon ekanligi ta'kidlanmoqda. Aholining faqat miqdoriy o'sishining o'zi ko'r-ko'rona yaxshi yashash tarziga olib kelavermaydi. Buning uchun mamlakat aholisining e'tiqodi, milliy psixologiyasi, qadriyat va an'analarini hisobga olgan holda faol demografik siyosat olib borish zarur.

Cho'l tuproqlarida eroziya muammolari. Tuproq qatlami yerda hayotning kelib chiqishi bilan bir vaqtda paydo bo'la boshlagan va hayotda paralel holda rivojlangan tuproq hosil bo'lish jarayonining har xil yo'l bilan rivojlanishi hayotning suvdan quruqlikga chiqishi bilan bog'liq bo'lib bu xolat 400-500-million yillar o'tgan va asta sekin tuproq qobig'i yuzaga kela boshlagan. Tuproq qobig'i turli ekotizmlarda uchraydigan o'simliklar o'sish, rivojlanish va fotosintes

³⁰ Komilova N.Q. O'zbekiston tabiiy geografik sharoitlarining hududiy tahlili. g.f.n. ... dis. - T., 2012.-B.32

jarayonini o'tishi uchun zarur bo'lgan suv, mineral moddalar gaz bilan ta'minlaydi va sayyorada organik moddalarning hosil bo'lishiga asos soladi. Moddalar almashinuvi jarayonida hosil bo'lgan biomassani 93-95 % u yoki bu ekotizmlarda qoladi faqat 5-7 % gina tuproq eroziyasi suv bilan yuvilish natijasida katta geologik modda almashuvi jarayoniga o'tadi. Yer yuzining foydali maydoni 13,4 - 13,5 mlrd gektarga teng. Shundan 1,45 mlrdga (1.8%) madaniy yerlar, ekinzorlar, bog'lar, 2,6-2,9 mlrd gektar (22,1-22,5 %) o'tloqzorlar va yaylovlarni tashkil qiladi. Inson faoliyati natijasida buzilgan yerlar maydoni 1,1 mlrd gektar ekin ekishga, o'simlik o'stirishga yaroqsiz bo'lib qolgan. Insonlar ta'monidan ruxsatsiz foydalanilgan yerlar, landshaftlar 4,4 mlrd gektarni tashkil etadi cho'l va chala cho'l, yuqori tog' Artika va Antarktikaning sovuq cho'llari maydoni -3,3 mlrd gektar insonning salbiy faoliyati ta'sirida cho'l mintaqasi 1 mlrd gektarga ko'paygan. Ma'daniy yerlarning 50% maydonidagi tuproq xosildorlik qobiliyatini yo'qatgan uning ustiga 600-700 mlrd gektarga yaqin o'tloqzorlar buzilgan orol bo'yida salkam 2 ming gektar o'tloqzorlar sho'rlab ketmoqda³¹. Ma'lumki tuproqda 2-3 sm qalinkikdagi xosildor qatlaminin xosil bo'lishiga sal kam 300 yildan 1000 yilgacha kerak. Tuproqni muxofaza qilishda tuproqning tabiiy va ikkilamchi xususiyatlari to'la xisobga olinishi lozim. Tuproqning unimdorligiga zarar keltiradigan eng xavfli ekologik omil eroziyadir.

Quyidagi yo'llar bilan bu muammoni hal qilishga erishish mumkin.

1. Har bir xo'jalik o'zining tabiiy sharoitini hisobga olib, o't-dalada almashlab ekishni joriy qilishni, ayniqsa beda ekishni yo'lga qo'yish lozim. Bu ish tuproqning yuvilishiga barxam beradi.
2. Ilg'or agrotexnikani joriy qilish suv eroziyasiga qarshi kurashda eng muhim tadbirlardan biri hisoblanadi bunda yerni chuqur ag'darib haydash maxalliy o'g'itlardan oqilona foydalanish, ekin oraliqlariga sifatli ishlov berish.
3. Eroziya vujudga kelayotgan yerlar atrofiga ixota daraxtzorlarini tashkil qilish yo'llar, kanallar, jarliklar, soylar chekkalarida tutash tarzida daraxtlar ekishlarini tashkil etish yaxshi samara beradi.
4. Suv eroziyasiga qarshi kurashda gidrotexnika tadbirlari ham katta ro'l o'ynaydi, ya'ni qirg'og'ini yuvadigan daryo butalaridan damba va ko'tarmalar jang bo'lgan yerlarda suv ushlagich ko'tarmalar, yumshoq yengil tuproqli joylarda temir beton latokli va boshqa gidrotexnik chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

³¹ Turaboyev A.N. Tog' jigarrang tuproqlarning xilma-xilligini saqlovchi ayrim tabiiy omillari tasnifi. e.f.n. ...dis. - T., 2012.-B.26

5. O'zbekiston cho'llarida ko'chma qumlarni, mustahkamlashda va shamol eroziyasiga qarshi kurashda qum ustiga saksovul, izen, shuvoq, qandim va boshqa o'simlik urug'ini sepib fitomelioratsiyalashni tavsiya qilamiz.

Orol muammosi. Orol dengizi (qoz. *Aral Teñizi*, *Aral Tengizi*, toj. *Daryochai Xorazm*,) O'rta Osiyoda joylashgan yopiq suv havzasidir. Shimoldan Qozog'iston, janubdan Qoraqalpog'iston (O'zbekiston) yerlari bilan o'ralgan. 1960-yillargacha maydoni 68,000 km² bo'lib, dunyoda kattaligi bo'yicha to'rtinchi ko'l bo'lgan. Havzasining kattaligi (690 ming kv km) jihatdan Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqoriko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin to'rtinchi o'rinda turgan. Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lib, ulardan eng kattasi Ko'korol, Vozrojdienie, Borsakelmas bo'lgan. Orol dengiziga 20-asrning 60-yillarigacha Amudaryodan 38,6 kub km, Sirdaryodan 14,5 kub km, suv kelib turgan. Dengiz akvatoriyasiga yiligi 82-170 mm yog'in yog'adi. Dengizga 5,5 kub km yerosti suvlari ham qo'shilib turgan. Suvning sho'rliigi 10-11% bo'lib, suv tarkibida tuzlar miqdori 11 mlrd tonna ga yaqin deb baholangan. Dengizda kemalar qatnovi mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlari bo'lgan. Biroq, uni ta'minlovchi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining ko'p miqdorda irrigatsiyaga sarflanishi uning hajmini keskin kamaytira boshladi. 2004-yil ma'lumotlariga ko'ra Orol dengizi chuqurligi 30.72 m, maydoni 17,600 km², hajmi 115 km³ dir. 2007-yilga kelib, Orol dengizi maydoni 50 yil avvalgiga nisbatan 90% qismini yo'qotib, uchta alohida ko'lga aylandi. Sho'rlik oshishi Orol dengizi va atrofidagi nabotot va hayvonot qirilishiga sabab bo'ldi. Maxalliy iqlim o'zgardi; yoz issiqroq, qish esa quruq va sovuqroq bo'la boshladi.

Orol dengizi muammosi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimda Amudaryo O'zboy orqali Kaspiyga, To'rg'ay daryosi esa Orol dengiziga quyilgan. Orol dengizi 1573 yilgacha Kaspiy dengizi bilan bog'lanib bo'lgan. Paleontologlar Orol dengizi qirg'oqlaridan kit, akula va dengizda yashaydigan qizil baliq qoldiqlarini topishgan. 1850 yilda Rossiya buyurtmasi asosida Shvesiyada qurilgan paroxod Orol dengiziga tushirilgan. 1965 yilgacha Aralsk, Mo'ynoq, Xo'jayli, Chorjo'y o'rtasida yo'lovchi va yuk tashuvchi paroxodlar qatnagan. XX asr o'rtalarida Orol bo'yida 10 ta baliq zavodi va baliq konservalash kombinati ishlab turgan, Orol dengizidan yiliga 450 ming sentnergacha baliq ovlangan. 1981 yilda

Amudaryoda kema va parom qatnovi to'xtatilgan.³² Orol dengizining 100 km dan ko'proq ichkariga chekinishi natijasida kemalar quruq qum ustida qolib ketdi. XX asr o'rtalarida Orol bo'yida umurtqali hayvonlarning 178 turi, o'simliklarning 1200 turi aniqlangan. Amudaryo qirg'oqlaridan yiliga 1 mln dan ortiq ondatra mo'ynasi tayyorlangan. O'tgan asrning 90 yillarga kelib, mo'yna tayyorlash butunlay barham topdi. Yerlarning sho'rlanishi, turar joylar, ma'muriy binolar va asfaltlangan yo'llarga katta ziyon keltirmoqda. 1986 yilda 78 % turar joylar foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan. Bu halokat ichimlik suvlarni ifloslantirib, aholi o'rtasida kasallikni kuchayishiga olib keldi.

Orol dengizi atrofidagi aholi, asosan, baliqchilik, qisman chorvachilik, mo'ynachilik (ondatra), sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. Aral'sk va Mo'ynoq shaharlari va bir qancha orollarda baliq ovlash xo'jaliklari, baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan. Baliq ovlash o'tgan asrning 90-yillarigacha davom etgan.

Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Keyingi geologik davrda dengiz suvi ko'tarilib, ba'zan Sariqamish va O'zboy o'zanlari orqali Kasbiy dengiziga quyilgan.

Sug'oriladigan dexqonchilikning rivojlanishi natijasida sug'orilishga foydalaniladigan qaytmas suvlar va qurg'okchilik yillari Amudaryo va Sirdaryoning deltasiga quyiladigan suv miqdori kamaydi. Shunday qilib, 1994 yil 36,6 m. Bunda dengizning hajmi 3 marta, yuzasi 2 marta, sho'rlanish darajasi 9-10 % dan 34-37 % ga ortadi; 2000 yilga borib 180- 200 % ko'tarildi. Hozirgi kunda dengiz sathining pasayishi yiliga 80 - 110 sm tashkil etmoqda. Qirg'ok chizigi 60 - 80 km pasayib, ochilib qolgan yerlar 23 ming km kv tashkil etadi. Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida suvning sifati yomonlashadi, hamda ichish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi.³³ Eng yomon axvol Janubiy oroldir. Ushbu mintqa o'z ichiga shimoliy g'arbiy Qizil qum, Zaungauz, Qoraqum, Janubiy ustyurt va Amudaryo deltasi kabi landshaft komplekslarini oladi. Orol bo'yining umumiy maydoni - 473 ming km² bo'lsa, uning Janubiy qismi 245 ming km² tashkil etadi. Bunga Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi, O'zbekistonning Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshavuz viloyatlari kiradi. Dengiz tubining ochilishi va daryo deltalarining qurishi hisobiga cho'l maydonlari kengaymoqda. Ochilib qolgan 1

³² Shixov O.O. Mustaqillik sharoitida quyi amudaryo hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. i.f.n. ...dis. - T., 2012.- B.32

³³Maxmudova Sh. Xozirgi dunyo va muammolar.-T.: "Sharq".2010.-B.15

mln gektar maydon yuzasi mayda tuz zarrachalari bilan qoplanib yangi shakldagi qum qoplamlarini hosil qiladi.

Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda yiliga atmosferaga 100-150 mln. tonnagacha chang - to`zon ko`tarilishi mumkin. Dengiz tubidan ko`tarilgan chang - tuz to`zoni atmosfera ifloslanishi 5% ortirib yubormoqda. Chang - to`zonlarning atmosferaga ko`tarilishi 1 marta 1875 yili kosmosdan ko`zatilgan. Chang - to`zon uzunligi - 400 km, eni esa 40 km bo`lib, radiusi 300 kmni tashkil etgan. Tuzlarning yer yuzasida yog`ilishi natijasida paxtaning hosildorligi 5 - 15 % sholining esa 3-6 % pasayib ketdi. Orol bo`yiga yog`ilayotgan chang - tuz zarrachalaridan umumiy miqdor o`rtacha 520 kgni tashkil etib, tuproq holati yomonlashuvining asosiy sababchilaridan biri bo`lib qoldi. Qoraqalpog`iston Respublikasining sug`oriladigan maydonlari chang - tuz fraktsiyalari 250 kgdan Chimboy tumanida 500 t gacha boradi. Sho`rlangan qum tuzlari yo`li orol bo`yidagi 15 ming km yaylovlarni egallab bormoqda. Qurigan maydonlar aholi uchun xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchilar bilan to`lib bormoqda. Orol bo`yining sanitar - epidemiologik ahvoli nixoyatda og`ir aholi markazlashtirilgan suv bilan ta'minlash 29- 67 % ni tashkil etadi. Aholini yarmi ifloslangan ochiq suv havzalaridan foydalaniladi.

Orolni saqlab qolish haqida hozirgi vaqtda bir necha fikrlar mavjud.

1. Orolni qanday bo`lmasin qutqarish va uni avvalgi holatiga qaytarish zarur.
2. Orol dengizi sathini barqaror bir sathida saqlab bo`lmaydi, shuning uchun uni to`liq qurishi muqarrar.
3. Orol sathini ma'lum bir sathda saqlab qolish mumkin va uni amalga oshirish mumkin.
4. Ikkinchi fikirda, ular suvni yangi yerlarini o`zlashtirish va su`orishga sarflash kerak, dengizni qutqarib bo`lmaydi, uning qurishi muqarrar demoqda.
5. Orol muammosi bilan maxsus shug`ullangan olimlar va mutaxassislar tomonidan ko`tarilgan. Ular o`z fikirlarini ushbu muammo ustida olib borgan. Ko`p yillik ilmiy izlanishlari asosida tushuntirib, dengizni barcha ekologik va ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyatini to`g`ri taxmin qilgan holda uning sathini ma'lum mutloq balandlikda saqlab qolish mumkinligini isbotlab berdilar. Orol dengizini dastlabki mo`tloq balandlikka (53 ) m ko`tarishning iloji yo`q.
7. Ba'zilar Kasbiy dengiz suvini kanal orqali Orolga o`tkazishni:
8. Ko`pchilik Orolni Sibir daryolari suvi hisobiga to`ldirishni

9. Ba'zilar Amudaryo va Sirdaryo boshlanishi muzliklarini 17 ming km² eritib yuborishni ko'pchilik maslaxat berdilar.
10. Markaziy Osiyodagi suv omborlari (92 ta, 72- O'zbekistonda) suvni daryolarga ochib yuborishni o'rta tashlagan.
11. Bulardan tashqari ba'zi mutaxassislar Orol dengizi ostida taxminan 1-1,5 ming m chuqurlikda Orolning 1961 yilga qadar bo'lgan suv hajmiga nisbatan 4 barobar va undan ham ko'prok miqdordagi yer osti suvlari mavjud ushbu suvlarni bug'lanish yo'llari bilan bir necha skvojinalar (burg'ular) orqali dengizga ko'tarib chiqish mumkinligini ko'rsatadilar. Dengizni saqlab qolish uchun 70 km kub suv kerak. 100 km kub suvni yer ostidan chiqarish uchun 600 ming ta skvojina kerak. Unga 100 mlrd so'm mablag' kerak. 70 km kub suvni yer ostidan skvajina orqali suv chiqarish uchun 70 mlrd so'm pul kerak. 600 ming ta skvajina kazish uchun 1 mlrd tonna truba yoki quvur kerak. Orolga xar yili kamida 20 km kub suv quyilib turish kerak. Ma'lumki sug'orish uchun 90 % suv sarf bo'ladi. Uning foydali ish ko'ffitsenti 0,63 ga teng. Agarda ushbu ko'rsatkichga 0,80 ga etkazilsa ancha suv jamg'ariladi.
12. Amudaryo va Sirdaryo irmoqlarida sun'iy yomg'ir yog'dirish;
13. Kollektor suvlari, Sariqamish, Arnasay, Aydarko'l va tabiiy yerosti suv zahiralarini kanallar orqali Orol dengiziga oqizish;
14. Kanallar va sug'orish tarmoqlarini beton va polimyer bilan qoplab filtrasiyani kamaytirish orqali suvni tejash;
15. Amudaryo va Sirdaryo deltasi, Orolning qurib qolgan tubini sho'rlanish va qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar o'stirish (fitomeliorasiya) yordamida mustahkamlash va hokozolar.

Bu muammolarning kelib chiqishini asosiy sabablari quyidagilardir: Orol dengizi havzasi va shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida chuchuk suv zaxiralarini o'ta chegaralangan miqdorda ekanligi; chegaralangan chuchuk suv resurslarini hududiy o'ta notekis taqsimlanganligi va tarqalganligi; Orol dengizi havzasida umuman va shu jumladan, O'zbekistonda sobiq sovet tuzumi davrida paxta yakkahokimligini vujudga kelishi; qishloq xo'jaligini ekstensiv ravishda rivojlantirilganligi, paxta yetishtirish hajmini yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga amalga oshirilganligi, har bir o'zlashtirilgan gektar yerning unumdorligini ko'tarishga yetarli ahamiyat berilmaganligi, Sirdaryo va Amudaryo suvlarini to'laligicha asosan, sug'orishga sarflanishi va natijada, Orol dengiziga XX asr

80-yillarning oxiridan boshlab bir tomchi suv quyilmaganidadir. Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta'siriga qoldi.³⁴

Havo muhitni muhofaza qilish muammolari. Atmosferaning tarkibi mavjudodlar uchun muhim ahamiyatga ega. U 78% azot, 21% kislarod, 0,9 argon va 0,03% karbonat angidrid va juda kam miqdorda uchraydigan boshqa gazlardan iborat. Bulardan tashqari, atmosferada suv bug'lari (4%), bir qancha turli tabiiy mexanik bo'lakchalarning aralashmalari ham uchraydi. Xozirgi vaqtda atmosfera xavosini muhofaza qilish maqsadida uch xil tadbirni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bular mantiqiy, texnik va loyihalashga asoslangan tadbirlardir. Atmosferani ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha o'tkaziladigan mantiqiy talbirlar majmuasiga — atmosferani ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri bo'lgan avtomobillar uchun yangi turdagi dvigatellar yaratish, ularni texnologik toza yonilg'i turiga o'tkazish, atmosfera havosini ifloslantiruvchi barcha korxonalarni shahardan tashqariga joylashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini bir-biriga yaqin joylashtirishni qat'iyan man etish va boshqa shu kabi tadbirlar kiradi. Atmosferaning ifloslanishiga qarshi kurashda elektrlashtirish, gazlashtirish va issiqlik ta'minotini yaratish ham muhim o'rin tutadi. Aynan yashil o'simliklar foto sintez natijasida havo tozaligini ta'minlaydi, gazlanganlik va zararli tashlamalar bilan ifloslanishini kamaytiradi, mikroiklimni yaxshilaydi. Zararli moddalarning maksimal miqdori qish faslida kuzatiladi. Shuning uchun yil davomida o'sadigan yashil o'simliklar egallagan maydonlarni ko'paytirish lozim. Ttransport vositalari tashlamalari bilan o'simliklarning ifloslanishi asosan yo'l chetidan 50 metrgacha bo'lgan masofada kuzatiladi. Eng ko'p ifloslanish 7-25 metr masofada sodir bo'ladi. Shuning uchun yo'l chetlarida etishtirilgan mevalar, ko'katlar va dorivor o'simliklarni iste'mol qilish ta'qiqlanadi. Yo'l yoqasidan 50 metr masofada joylashgan bog'larda etishtirilgan mevalar tarkibida qo'rg'oshin miqdori normadan 3 marta yuqori bo'lishi aniqlangan.

Texnologik tadbirlar. Ko'riladigan tadbir asosida tashqi muhit ob'ektlariga, jumladan, havoga tashlanadigan chiqindilar miqdorini qisqartirish yoki mutloq to'xtatish zarur. Buning uchun sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni takomillashtirish, hatto chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish mumkin. Bunday texnologiyalar mutloq berk

³⁴ Murodov Sh.O., Panjiyev U.R. Atmosfera xavosini muxofaza qilish texnologiyasi O'quv qo'llanma.-Q.:// "QashDu".2003.-B.103

jarayonlar bo'lib, unda chiqindilar butunlay bo'lmaydi, chiqindi moddalar boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo vazifasini o'taydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kam chiqindili hamda chiqindisiz sanoat korxonalarini tashkil qilish to'g'risida maxsus Deklarasiya qabul qilingan. Bu xujjat asosida BMT- Yevropa iqtisodiy hay'atining chiqindisiz va kam chiqindili korxonalar tashkil qilish faoliyatida ko'p mamlakatlar qatnashmoqda.

Diqqatga sazovor texnologik jarayonlardan yana biri, ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan zaharli moddalarni zaxarli bo'lmagan moddalarga almashtirishdir. Masalan, isitish tarmoqlarida ko'mir yoki mazutdan foydalanmasdan, balki tabiiy gazdan foydalanish, atmosferaga chiqarib gazlanadigan zararli moddalar xajmini 70-90% kamaytiradi. Texnologik jarayonlarda tabiiy yonilg'i yondirishdan elektr toki bilan qizdirishga o'tish chiqindilarni kamayishiga olib keladi.

Loyihalashga asoslangan tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxar xududini zonalarga bo'lish; tabiiy changlarga qarshi kurashish; sanitariya ximoya chegaralarini tashqil qilish; turarjoylar loyixalarini takomillashtirish; turarjoylarni ko'kalamzorlashtirish.

Pestitsidlardan foydalanish muammosi. Ushbu zaxarli kimyoviy moddalar guruhiga begona o'tlar, zararkunanda hashoratlar, o'simliklarda kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga qarshi kurashda foydalaniladi. Pestitsidlardan qishloq xo'jaligida o'rmonchiliklarda, aviatsiadan foydalanish keng ko'lamda atrof muhitning ifloslanishiga olib keladi. Pestitsidlar atmosferada uzoq masofalarga tarqalishi shuningdek suv orqali dala, daryo, ko'llardan o'tib dunyo okeanlarida to'planadi. Eng xavfli joyi shundaki ular ekologik oziqa zanjiriga, qo'shilib ketmoqda. Ular tuproq va suvlardan o'simliklarga undan hayvonlar va odam organizmiga o'tadi. Pestitsidlarning zaharli ta'sirini oldini olish uchun quyidagi chora tadbirlarga amal qilish lozim: Hayvon va odamlarga ta'sirini susaytirish; Tuproq va suvlarda to'planishining oldini olish; Tez parchalanuvchi va beqaror pestitsidlarni sintez qilish; Pestitsidlardan foydalanishni iloji boricha cheklash; O'simliklarni biologik himoya qilish. Bunday muammolarni sanasak adog'iga yetish ham qiyin, biroq ularga e'tiborsiz bo'lish bundanda daxshatliroqdir.

II. Bob. XXI asrda O`zbekistondagi ekologik tahdidlar va ularni bartaraf etishning huquqiy chora-tadbirlari

2.1 XXI asrda O`zbekistondagi ekologik tahdidlar va ekologik siyosatining mohiyati hamda asosiy yo`nalishlari

XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa, so`ngi choragi O`zbekiston uchun ham eng murakkab, og`ir, yechimi qiyin bo`lgan ekologik muammolarga duch kelingan davr bo`ldi. Bunday vaziyat respublikada o`tkir ijtimoiy, ekologik muammolar hal etilmayotgan, nufusi jadal sur`atda o`sib borayotgan aholi turmush darajasi jihatidan MDH davlatlari orasida eng oxirgi o`rinlardan birida turgan paytda ro`y berayotgani ayniqsa achinarli edi".³⁵

Qayd etib o`tganimizdek, O`zbekistonda tabiatga g`ayri ekologik yondashuv, tabiatdan foydalanishda uning bir butunligi, doimiy muvozanati, dinamik o`zgaruvchanligi kabi qonunlariga amal qilmay, cho`l va tog`larni o`zlashtirishda tabiatga zug`um, zo`rlik qilish, ona tabiatni go`yo "yengishga" urinish kabi holatlar jiddiy salbiy oqibatlariga olib keldi. Bular natijasida respublika tabiatining barcha komponentlari – tog` jinslari va rel`ef shakllari, iqlim va suvlari, tuproq, o`simlik hamda hayvonot dunyosidan foydalanishdagina emas, balki bir butun landshaftlari – cho`llari, vohalari, tog` va adirlaridan foydalanishda ham jiddiy ekologik xatoliklarga yo`l qo`yildi. Tabiatni tubdan o`zlashtirishga zo`r berib urinish, chunonchi cho`llashuv, ya`ni cho`lga aylanish jarayonlarining kuchayishida ayniqsa yaqqol namoyon bo`ldi<sup>36</sup>. Mahalliy aholining manfaatlari, sog`ligi – salomatligi, kelajak avlodlarning taqdirini o`ylamasdan mintaqaning ekologik holatiga yovuzlarcha tajovuz qilinishi, tabiiy suv havzalaridan noto`g`ri foydalanish, qishloq xo`jaligida, birinchi galda paxtachilikda o`ta zaharli kimyoviy moddalarning o`lchovsiz qo`llanilishi ko`ngilsiz oqibatlarining kelib chiqishiga, bir – biridan dahshatli rak, o`pka sili, jigar, buyrak, qandli diabet, me`da-ichak kasalliklari, ayollarning kamqonligi, homilador onalar va bir yoshgacha bo`lgan chaqaloqlar o`limining avj olishiga olib keldi. Nimjon, mayib-majruh, nosog`lom bolalarning tug`ilishi ko`paydi. Faqat shugina emas, o`lkamizning, respublikamizning o`simlik olami va hayvonot dunyosiga ham ancha putur yetkazildi.

³⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: "O'zbekiston", 1999.-B.4-5.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi. T.6. -T.: "Toshkent", 2003.-B.459

Dunyoning hamma mamlakatlarida, boshqa mintaqalarda sodir bo'lganidek, O'zbekistonda ham ekologik muammolar borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. "Shu sababli O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi g'oyat muhim vazifa yerlarning holatini yaxshilashdan, tuproqning ifloslanishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishdan iborat. Shu o'rinda gap eng avvalo tabiiy zaxiralardan foydalanishni tubdan yaxshilash haqida bormoqda".³⁷ Mamlakatimizda olib borilayotgan ekologik siyosatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab berilgan. Asosiy Qonunning 55-moddasida belgilab qo'yilganidek, "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boyliklardir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir".

O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida 1993 yil 28 sentyabrdagi ma'ruzasida jahon xalqlarining diqqat – e'tiborini Orol muammosiga qaratdi: Eng avvalo bu gap Orol dengizi fojiasiga taalluqli. Keyingi yillarda uning hajmi uch baravardan ko'proq qisqardi, maydoni 3 baravar kamaydi, qirg'oq 100 kilometrga chekindi, suvning minerallashuvi darajasi to'rt baravargacha oshdi, haydaladigan ikki million gektar yerni qum bosdi, chang-to'zonlar bo'roni 300 kilometr va undan ko'proq masofaga yetib boradigan bo'ldi. Mana shularning hammasi mintaqadagi sanitariya holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. BMT ekspertlarining fikriga ko'ra, Orol muammosi o'zining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini jahatidan XX-asrning eng katta ofatlaridan biri bo'lib qoldi. Orol dengizining halokati butun dunyo uchun oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Biz jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, Orolni va Orolbo'yini qutqarishda yordam berishga chaqiramiz."³⁸ Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta'kidlanishicha, 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 kub kilometrni, suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni va minerallashuv darajasi bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan. Orolning sathi 20 metr pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki ikki qoldiq ko'lga aylanib qoldi. Dengizning suv qochgan tubi 4 million gektardan va eni 40 kilometr

³⁷ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.121

³⁸ Karimov I.A. Vatan, el manfaati muqaddasdir // Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. -T.: "O'zbekiston", 1996.-B.58

maydonga yetib boradigan chang-to'zonlar tarqalib, uning ta'sir doirasi 300 kilometracha yetmoqda. 1983 yildan boshlab Orol baliq ovlashga yaroqsiz bo'lib qoldi. Orol bo'yidagi tabiiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashib, jahon jamoatchiligini tashvishga solgan "Orol kulfati", "Orol muammosi" vujudga keldi. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta'sirida qoldi. "Biz 20-25 yil mobaynida – deydi Prezident, - jahondagi eng yirik yopiq suv havzalaridan birining yo'qolib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biroq bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz halok bo'lgan hol hali ro'y bergan emas edi".³⁹

"Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo'yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fojia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo'ronlarning paydo bo'lishi, faqat Orol bo'yida emas, balki dengizdan ancha naridagi bepoyon hududlarda yerlarning cho'lga aylanishi, iqlim va landshaftning o'zgarishi – bular ana shu fojia oqibatlarining to'liq bo'lmagan ro'yxatidir".⁴⁰

Orol fojiasi, dengizda yuz bergan ekologik vaziyat, avvalo, shu hududdagi davlatlar – O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston manfaatlariga, xalqlariga ta'sir qilishi, quriyotgan dengizni halokatdan saqlab qolishga xizmat qiladigan daryolar Qirg'iziston va Tojikiston tog'laridan boshlanishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, fojianing oldini olish, shoshilinch chora-tadbirlari ko'rish uchun o'sha davlatlar rahbarlarining bir joyga to'planishlari va kelishib olishlarini hayotning o'zi ko'ndalang qilib qo'ygandi.

Besh davlat rahbarlarining Orol muammolariga bag'ishlangan dastlabki uchrashuvi 1993 yil mart oyida Qozog'istonning Qizilo'rda viloyatida bo'lib, unda Orol dengizi havzasidagi ekologik buhronning oldini olishni xalqaro muammo darajasiga ko'tarish, bu masalaga BMT, Jahon banki, boshqa xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar ham jalb etilishi zarurligi ta'kidlandi. Bu uchrashuvda Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi-Ijroiya Qo'mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi.

Bir yildan keyin, 1994 yil yanvarida Markaziy Osiyo respublikalari davlat boshliqlarining Nukus shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvda Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin uch-besh yilga

³⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.124

⁴⁰ O'sha asar.-B.126

mo'ljallangan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi.

Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida 1994 yil mart oyida uchinchi marta to'plangan uchrashuvda Markaziy Osiyo rahbarlari Orolni qutqarish, mintaqa ekologik holatini yaxshilash, aholi sog'lig'ini muhofazalash, xalqaro moliyaviy tuzilmalar hamkorligida Orol bo'yi aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, turmush tarzini yaxshilash borasida bir qarorga kelindi.

Mamlakatimiz rahbarining Orol dengizi fojiasi oqibatlariga jahon jamoatchiligining e'tiborini qaratish yo'lidagi harakatlari o'laroq, 1995 yilda Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo'yicha uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv qatnashchilari asosiy e'tiborni suv zaxiralaridan foydalanishning tejimli usullarini ishlab chiqish, sug'orishda va atrof muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni qo'llash vositasida irrigasiyaning samaradorligini oshirish, tabiatning nochor ahvolga tushib qolgan muvozanatini barqarorlashtirib, insonning yashashi va faoliyat ko'rsatish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratib berish kabi g'oyat muhim muammolarni hal qilishga qaratdi.

Oroldagi ekologik halokat muammolari bugungi kunda bir mintaqa doirasidan chiqib, sayyoramiz miqyosida ahamiyat kasb etgan bo'lib, endilikda uning taqdiri bilan BMT, YUNIEP, YUNESKO, YOHXX, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar shug'ullanmoqda. 1997 yil 15 oktyabrda Toshkentda "Orol halokati – XX asrning sayyoraviy fojiasi" mavzusida xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Orol dengizi havzasida yuzaga kelgan vaziyat faqatgina shu mintaqa mamlakatlari miqyosida emas, balki jahon miqyosidagi katta muammo ekani, uni hal etish ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hamjihatlikda ish olib borishini talab qilayotganligi qayd etildi.

Prezidentimiz 2009 yilning aprel oyida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlarining uchrashuvida mazkur jamg'arma doirasida Orol dengizi havzasi mintaqasiga yordam ko'rsatish bo'yicha 2011-2015 yillarga mo'ljallangan harakatlar dasturining navbatdagi uchinchi bosqichi konsepsiyasini ilgari surdi va Nukus va Toshkent deklaratsiyalari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida atrof muhitni, ayniqsa, Olmaliq, Farg'ona, Bekobod, Andijon, Samarqand, Navoiy kabi yirik shaharlar havosining

ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik masalasiga keyingi yillarda jiddiy e'tibor berilyapti. Shaharlar atmosfera havosini eng ko'p buzuvchi omil-avtomobil transportidir. Avtotransportni yangi, ekologik bezarar yoqilg'i turlariga yetkazish, tejamli dvigatellarga o'tish, yirik shaharlarda maishiy chiqindilarni zararsizlantirish, sanoat usulida qayta ishlash, radioaktiv ifloslanishga yo'l qo'ymaslik, ko'chalar, yo'llar chekkasiga daraxtlar ekish, gulzorlar barpo etish, suv havzalari inshootlarini qurish, sun'iy ko'llar barpo etish hozirgi davrda ekologik muammolarni hal etishning eng muhim yo'llaridandir. Keyingi yillarda atmosfera havosining tozaligi ustidan nazoratning kuchaytirilishi, korxonalarda texnologik jarayonlarning takomillashtirilishi, havo tozalagich moslamalaridan ko'plab foydalanilishi natijasida atrof muhitni muhofaza etishda bir qancha ijobiy siljishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berilishicha, Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalanilgan holda ma'suliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak. Boshlang'ich xomashyodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarni o'rnatish lozim".⁴¹

Suvni muhofaza qilish, suvdan tejab-tergab, oqilona foydalanish, isrof qilinishiga yo'l qo'ymaslik – O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu haqda O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda Prezident Islom Karimovning "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli va boshqa asarlarida muhim yo'l-yo'riqlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilab qo'yilganidek, yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar singari suv ham davlat mulki- umummilliy boylik hisoblanadi. Suvdan oqilona foydalanish lozim, u davlat tomonidan qo'riqlanadi. Hayotning mavjudligi suv bilan bog'liq. Suv-buyuk ilohiy ne'mat. "Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebaho in'omidir. Butun hayot suv bilan tirik. Zotan, suv tamom bo'lgan joyda hayot ham tugaydi".⁴²

⁴¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.132

⁴² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.122

Tabiatning bebaho in'omi bo'lgan suvdan oqilona foydalanish, uning bir tomchisining ham isrof bo'lishiga, ifloslanishiga yo'l qo'ymaslikni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Chunki suvga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, toza ichimlik suvga nisbatan talab butun dunyoda, shular qatorida Markaziy Osiyo mintaqasida, O'zbekistonda ham yildan-yil kuchayib bormoqda. Inson ehtiyoji uchun haddan tashqari zarur bo'lgan suv esa tobora taqchil bo'lib bormoqda. "Respublikada iste'mol qilinayotgan suv miqdorining 95 foizi daryo va soylardan olinadi. Suvni iste'molchilarga o'z vaqtida va kerakli miqdorda yetkazib berish maqsadida ko'plab kanal, zovur, gidrouzel, gidrotexnika inshootlari, suv omborlari, doimiy nasos stansiyalari qurilgan. Suv xo'jaligida umumiy suv sarfi sekundiga 2500 kub metrdan ortiq bo'lgan 75 yirik kanal, umumiy hajmi 18,6 kub metr bo'lgan 53 suv va 25 sel omborlari, 32,4 ming kilometr xo'jaliklar aro kanallar (uning 9,4 ming kilometriga beton qoplangan), 4889 nasos agregatlari o'rnatilgan 1479 doimiy nasos stansiyalari, 10180 tik drenaj va suv chiqish quduqlari, 30,4 ming kilometr xo'jaliklararo kollektorlar bor".⁴³

XX asrning keyingi 30-40 yili mobaynida O'zbekistonda qo'riq va bo'z yerlar haddan tashqari ko'p o'zlashtirilib, paxta ekiladigan maydonlar va sholikorlik qilinadigan joylar kengayib, suvga bo'lgan talab o'ta kuchayib ketdi. "Mutaxassislar O'rta Osiyo sharoitida ekinlarni sug'orishga gektariga o'rta hisobda salkam 10 ming kub metr suv sarflanishi maqsadga muvofiq ekanligini asoslab berganlar. Amalda esa O'zbekiston xo'jaliklarida 1960-1990 yillar mobaynida sug'oriladigan har gektar ekin maydoniga 17,2 ming kub metr suv sarflangan, ya'ni gektariga 7,3 ming kub metr suv ortiqcha sarflanib isrof qilingan".⁴⁴ Amudaryo va Sirdaryo suvlari Markaziy Osiyo mintaqasi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi va sanoati ehtiyojlari uchun mislsiz darajada ko'plab ishlatildi. Har ikkala daryo suvidan Markaziy Osiyodagi barcha respublikalarning yerlarini sug'orish uchun foydalanildi. Bu ikki daryodan Orol dengiziga borib tushadigan suv hajmi kamaygan sari kamayib bordi. Dengizga suv kirimi suv sarfidan deyarli 10 baravar kamayib ketdi. Bugun kumda Tojikistonda qurilayotgan Rog'un va Qirg'izistonda qurilayotgan Qambarota GESlari ham juda katta muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ularda qurilish ko'zda tutilayotgan bu hududlarning yuqori seysmik xavfi – ushbu ko'rsatkich Rixter shkalasi bo'yicha 9 ballgacha, bu yerda yuz beradigan ko'chki va sel kelish jarayonlari hisobga olinmagan. Holbuki, so'nggi

⁴³ Xolmo'minov J. Ekologiya va qonun.-T.: "Adolat", 2000.-B.64

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy Entsiklopediyasi. T.5. -T.: "Toshkent", 2002.-B.59

110 yil mobaynida bu yerda 20 dan ortiq kuchli zilzila qayd etilgan. Jahon amaliyotida hali bu kabi hududlarda ulkan gidroinshootlar qurilishi kuzatilmagan. Masalan, Tojikistondagi Rog'un GESida balandligi 335 metrlik to'g'on qurish ko'zda tutilmoqda. Holbuki, dunyoda hali bunday to'g'on yo'q. Mabodo to'g'on o'pirilgudek bo'lsa, boshlang'ich nuqtada suv to'lqinining balandligi 250 metrdan oshadi, Rog'un GESidan 1,5 ming kilometr uzoqda joylashgan Qoraqalpog'istonda esa 6-7 metrga yetadi. Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston va O'zbekiston hududidagi 1,5 million gektar maydon, 700 dan ortiq aholi punkti suv ostida qoladi. Shuni unutmaslik kerakki, ushbu hududlarda qariyb 5 million aholi istiqomat qiladi.⁴⁵

Hatto, eng qulay vaziyatda ham Rog'un GESining ko'zda tutilayotgan energetik rejimda ishlashi Amudaryo quyi qismida yashayotgan ko'p millionli aholi turmush sharoitining keskin yomonlashuviga olib keladi. Daryoda suvning minerallashuvi ikki baravar ortadi, vegetatsiya davrida uning oqimi ancha kamayadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, qishloq xo'jalik ekinlari, aralash qayta ishlash tarmoqlari va baliq resurslarining nobudgarchiligi tufayli ko'riladigan zarar 5 yil ichida qariyb 20,6 milliard dollarni tashkil etadi. Elektr energiyasini Rog'un GESidagi kabi miqdorda, nisbatan xavfsiz, ammo bir necha baravar arzon kichik GESlarni qurish yo'li bilan ham olish mumkin. Prezident Islom Karimov 2010 yil 20 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan sammitidagi nutqida gidroenergetikani rivojlantirishga bu tarzda yondashish oqilona yo'l bo'lishini ta'kidladi. Davlatimiz rahbari transchegaraviy daryolarda gidroinshootlar qurish bo'yicha har qanday loyiha ushbu daryolar hajmi va oqimi buzilmasligi hamda mintaqada ekologik vaziyat yomonlashmasligini kafolatlaydigan xalqaro mustaqil ekspertiza natijalariga asoslanishi lozimligiga bir necha bor e'tibor qaratgan edi. BMTning Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni himoya qilish va ulardan foydalanish, Xalqaro suv oqimlaridan foydalanishning kema yurmaydigan shakllari huquqiga oid konvensiyalari, Xalqaro daryolar suvidan foydalanishning Xelsinki Qoidalari, Gidroelektr energiyasini ishlab chiqarishning boshqa davlatlarga ta'siriga doir Jeneva Konvensiyasi va ushbu sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga muvofiq, bunday gidroenergetika inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish shartlari transchegaraviy daryolar havzasida joylashgan barcha davlatlar bilan kelishilishi

⁴⁵ <http://www.eko.uz>

shartligi aks etgan ammo Tojikiston va Qirg'iziston bu yo'ldan qaytmayotganligi achinarli holdir. O'zbekiston Respublikasi bunday muammolarni hal etishni, suvni muhofaza qilishni dunyo miqyosidagina emas, mamlakatimiz doirasida ham birinchi darajali vazifa sifatida qarab kelmoqda. Mamlakatimizda suv va suvdan oqilona foydalanishning huquqiy asoslari yaratilgan. Bunga O'zbekiston Respublikasida 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun misol bo'ladi. Qonunda davlat suv fondi va unga egalik qilish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining suvga doir munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari, suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va davlat nazoratini olib borish, suvdan foydalanuvchi sub'ektlar, suvdan foydalanishning turlariga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat qo'riqxonalari, shu jumladan biosfera bog'lari, davlat milliy bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, davlat buyurtma qo'riqxonalari ham qonuniy asosda muhofaza etiladi. "Qo'riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq. Chunki bu hududlarda ham ekologik muamolar bor. Respublikada alohida qo'riqlanadigan 11 tabiiy-hududiy ob'ekt, shu jumla-dan 9 qo'riqxona bo'lib, 3 tasi tog'da, 3 tasi daryo qayiridagi to'qayda va 3 tasi cho'l landshaftlarida joylashgan. Bular Chatqol tog'-o'rmon, Payg'ambarorol, Qizilqum, Bodoyto'qay, Nurota, Zarafshon, Hisor, Vardanzi, Ko'hitangtog', Kitob qo'riqxonalaridir. Bu qo'riqxonalarda bioekologik tadqiqotlar olib boriladi. Qo'riqxonalardan tashqari kamayib ketayotgan o'simlik va hayvonot turlarini saqlab qolish va tiklash maqsadida 10 ga yaqin zakazchiklar barpo etilgan"⁴⁶.

O'zbekiston hududida qadimiy davrlardan hozirga qadar saqlanib kelinayotgan shunday o'ta nodir qush (o'rdak, g'oz, birqozon, oqqush, laylak va burgutlar, kaklik, to'vus, bulbul, mayna, tustovuqlar, ajoyib hayvon-jonivor (Buxoro tog' qo'yi, arxar-lar, kiyiklar, morxo'rlar, to'ng'iz, shoqol, tulki, bo'rsiq, bo'ri)lar, o'rmonlar, tog' yon bag'irlari va daryolar bo'ylarida unib-o'sib tabiatning husniga-husn qo'shadigan nodir o'simlik (pista, bodom, yong'oq, anor, anjir, tut terak, o'rik, tol, archa)lar borki, ular bebaho tabiiy boylik sifatida ko'z qorachig'idek asrab-avaylab saqlab qolinmasa, hademay nom-nishonsiz, butunlay yo'qolib ketishi hech gap emas. Mamlakatimizda birinchi marta 1993 yil 7 mayda qabul qilingan "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun shu tariqa dunyoga keldi.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy Entsiklopediyasi. T.6. -T.: "Toshkent", 2003.-B.142-143

Yer osti boyliklarini muhofaza qilish ham, O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida katta o'rin tutadi. Mamlakatimizda yer osti boyliklariga alohida e'tibor berilishida katta ma'no va zaruriyat bor. Yer va jamiyki yer osti boyliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilganidek, umummilliy boylikka nisbatan hech qachon befarq munosabatda bo'lish mumkin emas.

Hozirgacha respublikamizda mineral-xomashyoning 95 turi borligi aniqlangan. Bu mineral-xomashyolarning 700 ta koni mavjud. Amalda, Mendeleev jadvalidagi hamma elementlar respublikamizda bor. 370 ta kon ishlab turibdi, ularda bir yil ichida qazib olinayotgan tog' jinslari, hajmi 200 million tonnadan oshadi. Respublikada katta tabiiy resurslar gaz, neft, gidroenergetika resurslari va ko'mirning mavjudligi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo mintaqasidagi gaz kondensati zaxiralarining deyarli 74 foizi, neftning 31 foizi, tabiiy gazning 40 foizi va ko'mirning 55 foizi O'zbekiston ulushiga to'g'ri keladi⁴⁷. O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatida mamlakatimiz atmosfera havosini muhofaza etishga birinchi darajali masala sifatida qarab kelinayotganligini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Odamzotu o'simliklar va hayvonot dunyosi hayoti, jamiki jonivorlarning hayoti, tirikligi suv bilan, havo bilan bevosita bog'liq. Jonli mavjudodlardan birontasi suv va havosiz yashay olmaydi. Nafas olinadigan havo, ichiladigan suv iflos, zamin zaharlangan bo'lsa yashash mumkin bo'lmay qoladi. Ma'lumki, uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida yurgizilgan noodilona ekologik siyosat natijasida O'zbekistonda tuproq, daryo, ko'l, yer osti va ichimlik suvlari ifloslandi. Atrof muhitning, havoning, daryo suvlarning ifloslanishi ekologiya gigiena va sanitariya-epidemiologiya vaziyatini o'ta yomonlashtirdi. Ichimlik suv ta'minoti manbalari ifloslandi. "Havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 million tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to'g'ri keladi, 15 foizini uglevodorod chiqindilar, 14 foizini oltingugurt qo'sh oksidi, 9 foizini azot oksidi, 8 foizini qattiq moddalar tashkil etadi va 4 foizga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

"Atmosferada uglerod yig'indisining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lamdagi issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda yer havosining

⁴⁷ Karimov.I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat // O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 -T.: "O'zbekiston", 1996.-B.295-296

o'rtacha harorati ortib ketadi".⁴⁸ O'zbekiston hududida Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek tez-tez chang-to'zonga, tez-tez chang bo'ronlarini qo'zg'atib turuvchi, atmosferani chang -to'zonga bulg'atuvchi tabiiy manbalar mavjud. Keyingi o'n yilliklar mobaynida Orol dengizining qurib borishi ham atmosferaga tuz bo'ronlari tarqaladigan yana bir tabiiy manba bo'ldi. Bundan tashqari, Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavf-sizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida aytilishicha, 80-yillarning boshlarida qo'shni Tojikistonda alyumin zavodi ishga tushirilishi munosabati bilan O'zbekistonning Surxondaryo viloyatiga qarashli ko'plab tumanlarida ekologik jihatdan tang ahvol vujudga keldi. Zavod atmosferaga ko'p miqdorda ftorli vodorod, uglerod oksidi, oltingugurt gazi, azot oksidlarini chiqarib tashlashmoqda. Qo'shni respublika alyumin zavodidan chiqayotgan chiqindilar tog'dan Surxondaryoga tomon esadigan shamol bilan vodiyning ko'pchilik tumanlariga va hatto ulardan uzoqlarga ham tarqalmoqda. Toshkentda 2010 yil 20-21-avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O'zbekiston Ekologik harakati bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Tojikiston "Talko" davlat unitar korxonasining ishlab chiqarish faoliyati ekologiyaga va odamlar sog'lig'iga ko'rsatayotgan halokatli ta'sirni bartaraf etish choralari" mavzusida xalqaro seminar bo'ldi. "Talko" DUK har yili atmosferaga qariyb 22-23 ming tonna zaharli moddalar, jumladan, odamlar salomatligi hamda atrof-muhit uchun o'ta xavfli 200 tonnadan ziyod ftorli vodorod chiqarmoqda. atmosfera, suv resurslari, tuproqda ftorli vodorod hamda "Talko" DUK chiqarayotgan boshqa zaharli moddalar miqdori oshib ketayotgani oqibatida turli kasalliklar ko'payib borayotgani, ayniqsa, chaqaloqlar o'lik tug'ilayotgani, ushbu zaharli moddalarning transchegaraviy ta'sirida qolgan tumanlarda bolalar va katta yoshli aholining patologik buzilishlar takrorlanishi bo'yicha kasallanish darajasi Surxondaryo viloyatidagi o'rtacha ko'rsatkichdan 3 barobar yuqoriligi insonni tashvishga solmoqda⁴⁹. Chet ellik ekspertlar "Talko" DUK ishlab chiqarish chiqindilarining salbiy ta'sirini kamaytirishga doir tegishli choralar ko'rilmayotgani, ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, 1992-yil Rio-de-Janeyroda qabul qilingan Atrof-muhit va rivojlanish deklaratsiyasi hamda 1982-yilda qabul qilingan

⁴⁸ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.129

⁴⁹ Murodov O. Sh., Panjiev U.R. Atmosfera xavosini muxofaza qilish texnologiyasi. O'quv qo'llanma.-Q.: "QashDU".2003.103-bet.

Butunjahon tabiat xartiyasi normalari buzilayotganini alohida ta'kidladi. 1994-yil 17-noyabrda imzolangan Tojikiston alyuminiy zavodining salbiy ta'siri zonasida ekologik ahvolni yaxshilash bo'yicha hamkorlikka oid O'zbekiston-Tojikiston hukumatlararo bitimi ham amalda bajarilmayotir. Bundan tashqari, xalqaro ekologiya tashkilotlari, O'zbekistonning davlat va jamoat tuzilmalari, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Ekologik harakatining xulosa va murojaatlari, Surxondaryo viloyati aholisining murojaatlariga qaramay, Tojikiston tomonidan taqdim etilayotgan materiallarda alyuminiy korxonasi ishlab chiqarish faoliyatining mintaqadagi ekologik vaziyat va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, atrof-muhitga zarar yetkazishga barham berish choralarini ko'rish zarurligi inkor etilmoqda.

Ko'rinib turganidek, mintaqamizda bo'lganidek, O'zbekistonda ham so'ngi o'n yilliklar mobaynida ekologik jihatdan tang ahvol vujudga keldi. Yurtboshimiz tomonidan aytilganidek, "Ekologiyaga solinayotgan xavf O'zbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta e'tibor bermoqda. Atrof muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi"⁵⁰. Ana shunday muhim hujjatlardan biri 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonundir.

Ushbu Qonunning 3-moddasiga binoan atmosfera havosini muhofaza qilishdan asosiy maqsad atmosfera tabiiy havosini saqlash, atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishdan iborat.⁵¹

O'zbekiston Respublikasi ham tabiatni muhofaza etishdek umumbashariy muammoni ijobiy hal etishda o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Ekologiyaga solinayotgan xavf nafaqat respublikamiz va mintaqamiz, shu bilan birga insoniyatga, banibashariyatga ham daxldor ekanligini zaruran e'tiborga olib O'zbekiston davlati atrof muhitni – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni, yer va yer osti boyliklarini, suvni, atmosfera havosini, hayvonot dunyosini,

⁵⁰ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.12

⁵¹ Xolmo'minov J. Ekologiya va qonun.-T.: "Adolat", 2000.-B.65

o'simliklarni, tuproqni muhofaza qilishga, ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylashni ta'minlashga qaratilgan juda ko'plab qonun hujjatlarini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza etish borasidagi tadbirlari, amalga oshirayotgan ishlari mintaqamizdagi va dunyoning boshqa davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik, hamjamiyatlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda.

Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda, "Atrof muhitni muhofaza qilish borasidagi yuqorida tilga olingan ta'sirchan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish yaqin vaqt ichidayoq oldingi tizimdan yosh respublikaga meros bo'lib qolgan ekologiya sohasidagi ko'pgina illatlar, kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, keng ko'lamdagi ekologik tanglik tahdidini barham toptirish, respublika aholisi uchun jismonan sog'lom yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda ekologiya jihatdan musaffo hayotiy muhit yaratish imkonini beradi".⁵²

2.2 Ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklarga milliy javobgarlik

Tabiatni muhofaza qilish davlatning asosiy vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda tabiiy ob'ektlar va komplekslarning ifloslanishi, qurib qolishi, buzilishi, yo'q bo'lib ketishidan saqlanib qolishga qaratilgan ogohlantiruvchi, taqiqlovchi, qayta tiklovchi huquqiy usullar va qonunbuzarliklar uchun javobgarliklar belgilangan. Tabiatni muhofaza qilish borasidagi yuridik javobgarlik tizimi javobgarlikning barcha ma'lum turlari bo'lmish jinoiy, ma'muriy, fuqaroviy-huquqiy, intizomiy, moddiy javobgarliklardan iborat

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun intizomiy javobgarlik. Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun intizomiy javobgarlik korxona, tashkilot va muassasalar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ekologik huquqbuzarlik uchun intizomiy choralar qo'llash uchun xodimlarga tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish vazifalari yuklatilgan bo'lishi kerak. Xodim atrof tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarish hisobini noto'g'ri yuritganligi, tozalash uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzganligi va boshqa mehnat vazifalari bilan bog'liq bo'lgan ekologik majburiyatlarni bajarmaganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

⁵² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998.-B.134

Intizomiy-huquqiy javobgarlik bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, u ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka nisbatan oddiyroq va engilroqdir, ikkinchidan, intizomiy javobgarlik aybdorga nisbatan pullik va mulkiy xarakterdagi choralarni yuklashni nazarda tutmaydi, uchinchidan, intizomiy javobgarlik jamoalarning o'zlari tomonidan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Mehnat kodeksi"ning 181-moddasiga muvofiq, mehnat intizomini buzganlik uchun quyidagi jazo choralari qo'llaniladi: xayfsan; o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortik bo'lmagan miqdorida jarima; ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan hollarda xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida jarima solish; mehnat shartnomasini bekor qilish.

"Mehnat kodeksi"ning 180-moddasi to'rtinchi qismida intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilmaydi. Bu muddat O'zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi"ning 183-moddasiga muvofiq, agar jazo bir yil o'tmasdan oldin ish beruvchi tomonidan olib tashlanmagan bo'lsa, bir yildan oshib ketishi mumkin emas.

Intizomiy jazo choralari korxona, tashkilot, muassasa rahbari yoki nizomda belgilangan boshqa shaxs yoki organ (mulkdor, kollegial organ) tomonidan qo'llaniladi (Mehnat kodeksining 82, 182-moddalari). Agar O'zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi"da boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, nojo'ya xatti-harakat aniqlanganidan keyin bir oy ichida ushbu jazo qo'llanilishi mumkin. Intizomiy jazo chorasi berilganligi to'g'risidagi bo'yruc yoki qaror xodimga yozma ravishda ma'lum qilinadi va u tanishganligi to'g'risida uning nusxasiga imzo qo'yadi. Intizomiy jazo chorasi berilganligi to'g'risidagi qaror ustidan O'zbekiston Respublikasi "Mehnat kodeksi"ning 184-moddasida belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

Ekologik talablar buzilishi oqibatida yetkazilgan zarar aybdor shaxsdan undiriladi. Agar zarar yetkazuvchi yuridik shaxs bo'lsa, u zararni qoplash majburiyati bilan birga, ushbu zarar yetkazilishiga bevosita aybdor xodimni moddiy javobgarlikka tortish huquqiga ega bo'ladi. Korxona, tashkilot, muassasaning atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan xodimning moddiy javobgarligini fuqarolik qonunchiligida belgilangan mulkiy javobgarlikdan farqlash lozim. Moddiy javobgarlik mulkiy javobgarlikdan undiriladigan zararining

miqdorini belgilash va zararning faqat xodimning mehnat munosabatlari natijasida vujudga kelishi bilan farq qilinadi.

Moddiy javobgarlikka tortish tartibi va shartlari mehnat qonunchiligida belgilangan. Moddiy javobgarlikning vujudga kelishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim: xodimning noqonuniy xatti-harakati, ya'ni o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida korxona, tashkilot, muassasaga haqiqiy zarar yetkazilgan bo'lishi, xodimning harakat yoki harakatsizligi aybli bo'lishi, xodimning harakat yoki harakatsizligi bilan kelib chiqqan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi.

Aksariyat hollarda moddiy javobgarlikning miqdori qonun bilan chegaralangan, masalan, "Mehnat kodeksi"ning 201-moddasiga muvofiq, agar mazkur kodeksda boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, xodim etkazilgan zarar uchun o'zining o'rtacha oylik ish haqi miqdori doirasida moddiy javobgar bo'ladi. Agar xodim ekologik talablarni buzib qasddan zarar yetkazgan bo'lsa yoki alkogolli ichimlik, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazganda, yetkazilgan zarar uchun to'liq moddiy javobgarlikka tortiladi ("Mehnat kodeksi"ning 202-moddasi).

Ish beruvchi xodimlardan yetkazilgan zararni undirish to'g'risida qarorni qabul qilishidan oldin zarar miqdorini va kelib chiqish sabablarini aniqlashi lozim. Buning uchun komissiya tuzilishi hamda xodimdan tushuntirish xati olinishi lozim. Xodim tomonidan zararning ixtiyoriy ravishda qoplanishini yoki uni majburiy undirilishi tartibi O'zbekiston Respublikasining "Mehnat kodeksi"ni 206 va 207-moddalarida o'z aksini topgan. Zararning miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa, korxona, tashkilot va muassasa rahbarining qaroriga binoan undiriladi, agar zarar miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lsa yoki zarar aniqlangan kundan keyin bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, zarar sud tartibida undiriladi. Korxona, va muassasa mol-mulkiga yetkazilgan zararni undirish haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik. Amaliyotda ma'muriy javobgarlik juda ko'p qo'llaniladi. Ma'muriy-huquqiy ekologiya qonunchiligini buzganliklari uchun javobgarlik, Y.M.Kozlovning yozishicha, shunday huquqiy javobgarlik turlaridan biriki, u ma'muriy huquqbuzarlik (nojo'ya xatti-harakat) sodir etgan shaxslarga vakolatli

organlar va mansabdor shaxslar tomonidan aniq ma'muriy-huquqiy sanksiyalarni (ma'muriy choralarni) qo'llashda ifodalanadi.⁵³

Ma'muriy huquqbuzarlik (nojo'ya harakat) deganda, - O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 10-moddasida ko'rsatilishicha, davlat yoki jamoat tartibiga, mol-mulkka, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, boshqaruv yuzasidan belgilangan tartibga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik ma'muriy nojo'ya xatti-harakat sodir qilinganda kelib chiqadi. Bu javobgarlik o'zining xarakteriga ko'ra jinoiy javobgarlikka nisbatan juda oddiy bo'lib, tez qo'llash mumkinligini taqozo etadi. «Ma'muriy javobgarlik shunday kamchilik bo'lganda vujudga keladiki, - deb ta'kidlaydi Y.G.Jarikov, - bunda u o'zining ijtimoiy xavfi jihatidan jinoyat ta'qib qilishni talab etmaydi. Ma'muriy javobgarlikning umumiy xususiyati yana shuki, u huquqbuzarlarga xizmat yuzasidai bo'ysunmaydigan organlar tomonidan qo'llaniladi. Nihoyat, ma'muriy javobgarlik, qoidaga ko'ra, yetkazilgan mulkiy zararni undirish maqsadini ko'zlamaydi.⁵⁴

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik davlatning yerga egalik huquqini buzish, davlatning suvga egalik huquqini buzish, yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, yerlarni ishdan chiqarish, vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni foydalanish uchun yaroqli holga keltirmaslik, yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, suv resurslarini muhofaza qilish, suvdan foydalanish qoidalarini buzish, ifloslantiruvchi moddalarni me'yoridan ortiq darajada yoki ruxsatsiz atmosferaga chiqarish va atmosfera havosiga zararli fizik ta'sir ko'rsatish, atmosferaga chiqarib yuboriladigan zararli moddalarni tozalash uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzish, yovvoyi o'tlarga qarshi kurashish qoidalarini buzish va boshqa nojo'ya harakatlar uchun kelib chiqadi. Yerlarning huquqiy holatini buzganlik uchun ma'muriy jazo qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 60, 65-69-moddalarida belgilangan. Ushbu jazo quyidagi huquqbuzarliklar, ya'ni yerdan o'zboshimchalik bilan foydalanish; yer bilan bog'liq bo'lgan g'ayriqonuniy bitimlar tuzish, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish; yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash; yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga keltirish,

⁵³ Козлов Ю.М. Советское административное право. Учебник.- М.: "Знание", 1984.-В.153

⁵⁴ Жариков Ю.Г. Охрана права землепользования. Учебный пособия.- М.: "Юрид. Лит", 1974.-В.114

yerlarni kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish; yer berish tartibini buzish; vaqtincha egallab turgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni yaroqli holga keltirmaslik, yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish; davlat kadastri qoidalarini buzish; yerdan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni buzib ko'rsatish; axborotlarni berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri axborot berish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik kodeksi"ning 60, 70, 71-moddalarida yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik jazo choralari belgilangan. Bu xildagi huquqbuzarliklarga yer osti boyliklaridan o'zboshimchalik bilan foydalanish; yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqini buzilishi; va ulardan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; foydali qazilmalar joylashgan maydonlarga o'zboshimchalik bilan imorat qurish; yer osti boyliklaridan foydalanish talab va tartiblarini buzish; yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoidalariga rioya etmaslik; geologik jihatdan o'rganish ishlarini olib borish qoidalarini buzish va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 60, 72-76-moddalarida suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Bu javobgarlik quyidagi huquqbuzarliklar uchun kelib chiqadi: suvdan o'zboshimchalik bilan foydalanish, davlatning suvga bo'lgan mulk huquqini buzish, suvdan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish, suvlarni ifloslantirish va bulg'atish, korxonalar va boshqa ob'ektlarni suvlarning ifloslanishi va bulg'anishi yoki ularni zararli ta'sirini oldini oluvchi inshootlar va qurilmalarsiz foydalanishga topshirish, yer osti suvlaridan foydalanish inshootlari va uskunalardan foydalanish qoidalarini buzish; suvdan foydalanish me'yorlari va limitlariga rioya etmaslik, gidrotexnika ishlarini o'zboshimchalik bilan boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish, suvdan foydalanish dastlabki hisobini yuritish va oqova suvlarning sifatini aniqlash qoidalarini, shuningdek suv kadastri yuritish tartibini buzish va boshqalar.

Navbatdagi ma'muriy jazo choralari o'rmon huquqbuzarliklari uchun belgilangan. Bu jazo choralari O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik kodeksi"ning 60, 77- 81 va 84-moddalarida o'rnatilgan. Ushbu moddalarga binoan, quyidagi huquqbuzarlik, ya'ni o'rmonlardan o'zboshimchalik bilan foydalanish, o'rmonlarga bo'lgan mulk huquqini buzish, o'rmondan foydalanish huquqini

boshqa shaxsga berish, kesiladigan o'rmon fondidan foydalanish tartibini buzish, daraxtlar va boshqa o'rmon o'simliklarini shikastlantirish yoki yo'q qilish, o'rmonlarni tiklash qoidalariga rioya etmaslik, "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklarni yig'ish, o'rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish uchun ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 60, 90, 92, 93 va 94-moddalarida hayvonot dunyosining huquqiy holatini belgilovchi qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik jazo choralari qo'llash mumkinligi ko'rsatilgan. Bu jazo choralari quyidagi huquqbuzarliklar: ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish, hayvonlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzish, "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar turlarini saqlashga zarar keltiradigan hayvonlar va o'simliklarni xilof ravishda O'zbekistonga olib kelish sodir etilganda qo'llaniladi.

Atmosfera havosini muhofaza etish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 85-88-moddalarida belgilangan. Ifloslantiruvchi moddalarni va biologik organizmlarni yo'l qo'yiladigan normalardan ortiq darajada atmosferaga chiqarib tashlash, atmosfera havosiga yo'l qo'yiladigan normativdan ortiq darajada zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish, atmosferaga ruxsatsiz ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni chiqarib tashlash yoki ruxsat talab qilinadigan hollarda bunday ruxsatsiz atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish, zararli moddalarni yoppasiga chiqarib tashlashning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirmaslik, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootlaridan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek, ulardan foydalanmaslik, chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo'lganda transport va boshqa harakatlanuvchi vositalarni tayyorlash, ta'mirlash va foydalanishga chiqarish bu xildagi huquqbuzarliklar hisoblanib, uni sodir etganlar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. O'simliklarni himoya qilish vositalarini va boshqa dorilarni tashish, saqlash hamda qo'llash qoidalariga rioya qilmaslik, ishlatish taqiqlangan va ishga yaroqsiz bo'lib qolgan kimyoviy moddalarni zararsizlantirish bo'yicha qoidalarini buzish, sanoat chiqindilarini tashish, joylashtirish, ko'mib tashlash chog'ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxiralarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf

etish choralarini ko`rmaslik hamda loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizaning ijobiy xulosasi ro'yobga chiqarish kabilar ham ma'muriy huquqbuzarliklar hisoblanib, shunday nojo'ya xatti-harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 89, 89', 91, 95, 96-moddalariga binoan javobgarlik jazo choralari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"da atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquqbuzarliklar uchun ham javobgarlik belgilangan. Bularga, masalan, soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yoxud soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan bo'yin tovlash kabilar kiradi (174-modda). Agar shaxs yer solig'ini to'lashdan qasddan bo'yin tovlasa yoxud foydalanayotgan yer uchastkasi miqdorining soliq organlariga noto'g'ri ko'rsatsa yoki atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlangan chiqindilar miqdorini kamaytirib ko'rsatsa ham shu modda bilan javobgarlikka tortiladi. Ushbu kodeksning 198-moddasida hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlik yoki xizmat vazifasini bajarishga to'sqinlik qilish uchun javobgarlik belgilangan.

Ekologik standartlarni yoki ekologik sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 212, 214-moddalarida javobgarlik belgilangan.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun aybdorlarga "Ma'muriy javobgarlik kodeksi"ga ko'ra quyidagi turdagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi: Birinchisi-jarimadir. Uni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 25-moddasida ko'rsatilgan. Bu jazo turini qo'llash ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirilishni bildiradi. Ekologik huquqbuzarliklar uchun belgilangan jarimaning miqdori O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 60, 65- 96, 125, 139, 162, 174, 198, 212, 214-moddalarida belgilangan.

Ikkinchi turdagi jazo turi, bu ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilishdir. Bu jazo tuman (shahar) sudining jinoyat ishlar bo'yicha sud'yasi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ov qilish qoidalari qo'pol

ravishda buzilgan taqdirda ov qurollari, ushbu kodeksning 94-moddasiga muvofiq esa noyob yoki yo`q bo`lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo`q qilib yuborish yoxud ushbu moddada ko`zda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo`lgan ashyolarni musodara qilish qo`llaniladi. Ma`muriy huquqbuzarlik natijasida tabiiy resurslar o`zlashtirib olinsa, masalan, yer egallab olinsa, daraxt kesilsa, hayvonlar ovlansa, ular davlatga qaytarib beriladi va bu musodara hisoblanmaydi, faqat huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki ashyosi musodara qilinishi mumkin. Uchinchi turdagi ma`muriy jazo maxsus huquqdan mahrum etish deb yuritiladi. O`zbekiston Respublikasi “Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeks”ning 28-moddasi va 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ov qilish qoidalarini qo`pol ravishda buzgan hollarda ov qilish huquqidan o`n besh kundan uch yil muddatgacha mahrum etilishi mumkin.

Navbatdagi ma`muriy jazo turi, bu - ma`muriy qamoqqa olish hisoblanadi. Ma`muriy qamoqqa olish jazo chorasini homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo`lgan ayollarga, o`n to`rt yoshgacha bo`lgan bolasini yakka o`zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslarga, I va II-guruh nogironlariga nisbatan qo`llash mumkin emas (O`zbekiston Respublikasi “Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi”ning 29-moddasi).

O`zbekiston Respublikasi “Ma`muriy javobgarlik to`g`risida”gi kodeksining 20-moddasida ko`rsatilishicha, ma`muriy javobgarlik jazo choralari qo`llashda tegishli organ yoki mansabdor shaxs javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarlarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sababini, albatta, ko`rsatib turib, ma`muriy javobgarlikdan ozod etishi yoki mazkur kodeksning maxsus qismi moddalarining jazo belgilash qismida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham engilroq jazo chorasini qo`llashi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi “Ma`muriy javobgarlik to`g`risida”gi kodeksining uchinchi bo`limida ma`muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqishga vakolatli bo`lgan organlar (mansabdor shaxslar) ko`rsatilgan. Tuman (shahar) sudining jinoyat ishlar bo`yicha sud`yasi ushbu kodeksning 245-moddasiga muvofiq 60, 66, 67, 90-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarni, hamda huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ma`muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi barcha ishlarni, ya`ni ko`rib chiqish boshqa organlar vakolatiga kiradigan ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqadi. Ekologik huquqbuzarliklar to`g`risidagi ma`muriy ishlarni

maxsus vakolatga ega bo'lgan organlarning mansabdor shaxslari - inspektorlari ko'rib chiqishga haqlidirlar. Ularning ushbu ish bo'yicha vakolatlari O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 257-moddasida (davlat sanitariya organlari), 260-moddasida (Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi organlari), 261-moddasida (Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari), 261-moddasida (Yer resurslari davlat qumitasi organlari), 262-moddasida (Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «O'zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlari) ko'rsatilgan.

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida huquq-buzarliklar uchun qo'llaniladigan asosiy javobgarlik turlaridan biri fuqarolik-huquqiy javobgarlik bo'lib, u tabiat ob'ektlariga mulkiy zarar yetkazilganda kelib chiqadi. Bu javobgarlik yuridik javobgarlikning mustaqil turi hisoblanib ekologik munosabatlarda tabiiy boyliklar egasi, mulkdori, foydalanuvchisiga nisbatan mulkiy zarar, ya'ni yerni, suvni, havoni ifloslantirganlik, ishdan chiqarganlik kabi holatlarda qo'llaniladi.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning qo'llanilishida u quyidagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi: javobgarlik mulkiy xarakterda bo'ladi hamda buzilgan huquqlarni tiklashga imkon yaratadi. Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha «fuqaroviy-huquqiy javobgarlik huquqbuzarlikning salbiy, mulkiy oqibatlarini huquqbuzar zimmasiga yuklatilgan davlat majburlovi bo'lib, har doim huquqbuzar axloqining jamoatchilik tomonidan qoralanishi bilan bog'liq bo'ladi».⁵⁵ Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun yuklatiladigan fuqaroviy-huquqiy javobgarlik huquqbuzar zimmasiga jabrlangan tomon ko'rgan zararni natura shaklida (real qoplash) yoki pul shaklida qoplash majburiyatining yuklatilishidan iboratdir. Bu zarar atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy talablarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.⁵⁶ Chunonchi, O.S.Ioffening yozishicha: «Fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqbuzarlik uchun aybdorga sub'ektiv fuqarolik huquqlaridan mahrum etish ko'rinishida yomon holat keltiruvchi yoki yangi fuqarolik-huquqiy majburiyatlar yuklovchi sanksiyadir».⁵⁷ «Fuqarolik-huquqiy javobgarlik deganda deb, - ta'kidlaydi A.A.Sobchak, -

⁵⁵ Белякова А.М. Возмещение причиненного вреда. Отдельные вопросы.- М.: "Изд-во МГУ", 1999.-В.28

⁵⁶ Колбасов О.С. Правовые исследования по охране окружающей среды в СССР. Учебный пособия.-М.: "ВНИИТИ", 1988.-В.123

⁵⁷ Иоффе О.С. Обязательственное право. Учебник.-М.: "Юристъ", 1997.-В.97

qonunda yoki shartnomada belgilangan buzilgan holatni tiklash va huquqbuzar hisobidan jabrlanuvchini qondirish maqsadida qo'llaniladigan mulkiy xarakterdagi davlat majburlov chorasini tushunish mumkin».⁵⁸

Ba'zi mualliflarning fikricha, tabiatni muhofaza qilish borasidagi qonunchilikni taraqqiy etishi va takomillashishi hamda bir tizimga solinishi bilan bog'liq ravishda tabiatni muhofaza qilish borasidagi qonunchilik normalari sanksiyalari tabiatni muhofaza qilish huquqining mustaqil bo'limiga aylanadi. Hozircha esa, ushbu institutning ta'sir doirasi munosabatlarning konkret turlariga va usullari xususida fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'lish uchun tabiatni muhofaza qilish borasidagi qonunchilik normalari dispozitsiyalari va sanksiyalarini huquqning boshqa sohalaridan axtarishga to'g'ri keladi.⁵⁹ 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 49-moddasiga binoan atrof muhitga, odamlar salomatligiga va davlatga atrof muhit muhofazasi to'g'risidagi qonunchilikni buzish oqibatida zarar yetkazgan yuridik va jismoniy shaxslar zararni qoplashlari shart. Bu modda "Fuqarolik kodeksi"ning 985-moddasida nazarda tutilgan zararni qoplash to'g'risidagi umumiy qoidalarni nazarda tutadi. Atrof tabiiy muhit sohasidagi mulkiy javobgarlikning xarakterli xususiyati zararni hisoblab chiqishning taksa usulidir. Taksa tabiat ob'ektlariga yetkazilgan zararni hisoblashning taxminiy birligidir. Uning miqdori davlat tabiat muhofazasi yo'lida qilingan xarajatlarining tegishli qismi va bundan tashqari yana ma'lum summani tashkil etadi.⁶⁰ Taksaga oid javobgarlikning o'ziga xosligi shundaki, u maxsus normativ hujjatlar asosida belgilanadi hamda tabiiy ravishda, inson mehnati sinmagan tabiat ob'ektlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Taksaga oid javobgarlikning yuridik tabiati masalasiga mutaxassislar juda ko'p e'tibor qaratishgan. Masalan, V.V.Petrovning hisoblashicha, taksaga oid javobgarlik tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunchilik bo'yicha javobgarlikning mustaqil turi bo'lib, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikdan farqli o'laroq maxsus normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi; inson mehnatining moddiy mahsulotlari emas, balki tabiat elementlari uning muhofaza ob'ektidir. U maxsus taksalarga muvofiq zararni qoplatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tabiatni muhofaza qilish

⁵⁸ Ерофеев Б.В. Экологическое право России. Учебник.-М.: "Юрист", 1996.-В.362

⁵⁹ Осипов Н.Т. Методы правовой охраны окружающей среды. Учебник.- Л.: "Юрид. лит.", 1989.-В.55

⁶⁰ Осипов Н.Т. Природноресурсовое право и правовая охрана окружающей среды. Учебник.- М.: "Юрид. Лит", 1988.-В.162

sohasidagi moddiy javobgarlik instituti tomonidan amalga oshiriladigan zararni qoplash hamda jazo funksiyalari unga fuqarolik hamda ma'muriy javogarlilikdan tubdan farq qiladigan tabiatni muhofaza qiluvchi javobgarlikning mustaqil turi ahamiyatini baxsh etadi.⁶¹ Yana bir qator mualliflar, shu jumladan S.N. Kravchenko,⁶² N.I. Titovalar⁶³ taksaga oid javobgarlikni javobgarlikning mustaqil turi sirasiga kiritadilar.

Ammo boshqa fikr-mulohazalar ham mavjud. Chunonchi, O.S. Kolbasov⁶⁴ taksani asosiy funksiyasi zararni qoplash bo'lgan mulkiy javobgarlikning maxsus sanksiyalari qatoriga kiritadi. Tabiat ob'ektlari yo'q qilinganda yoki ularga shikast yetkazilganda mulkiy (taksaga oid) javobgarlik yuzaga keladi. M.G.Masevich esa taksaga oid javobgarlik zararni qoplash institutining bir turi deb hisoblaydigan mualliflarning fikriga qo'shilganday bo'lib, zararni qoplash to'g'risidagi fuqarolik huquqining umumiy normalari g'ayrihuquqiy zarar yetkazishning har qanday hollarida ham qo'llaniladi, chunki ular maxsus qonun bilan o'zgartirilgani yo'q, deb ko'rsatadi. Maxsus qonun fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning ba'zi masalalarini boshqacha talqin etishi mumkin, ya'ni bu javobgarlik hajmini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin, bunday hollarda umumiy norma emas, balki maxsus norma qo'llaniladi. Tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunchilikda ham shunday maxsus normalar mavjud, ammo bu hol fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning umumiy tabiati, tamoyillari va shart-sharoitlarini o'zgartirmaydi.⁶⁵

Javobgarlikning ushbu turining o'ziga xosligini ta'kidlab, O.S.Kolbasov tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunchilikni buzish yo'li bilan yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha bo'lgan munosabatlarni tartibga solish uchun fuqarolik huquqining majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalari qo'llanishi mumkin, deb hisoblaydi. Bu majburiyatlar zarar yetkazish natijasida yuzaga keladi. Ammo baribir, ushbu zararni qoplashning tartibini qo'shimcha ravishda maxsus tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuning uchun zararni qoplash to'g'risidagi fuqarolik huquqining umumiy qoidalarini rivojlantirish maqsadida tabiat

⁶¹ Петров В.В. Экологическое право России. Учебный пособия.-М.: "Экология", 1997. -В.154

⁶² Кравченко С.Н. Имущественная ответственность за нарушение природоохранительного законодательства. Учебный пособия.- Львов.: "Наук", 2003.-В.71

⁶³ Титова Н.И. Материальная ответственность работников сельскохозяйственных предприятий.- М.: "Юрид. лит.", 1998.-В.8-10

⁶⁴ Колбасов О.С. Правовое исследование по охране окружающей среды. Учебник.- М.: "ВНИИТИ", 1988.- В.101

⁶⁵ Мaseвич М.Г. Споры о возмещении вреда, причиненного природным ресурсам. Учебный пособия.- М.: "Юрид. лит.", 1981.-В.63

ob'ektlaridan noqonuniy foydalanish oqibatida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida maxsus normalar chiqariladi.⁶⁶

Menimcha, taksaga oid javobgarlik mulkiy javobgarlikning alohida turi bo'lib, u zararni qoplashning fuqarolik huquqida nazarda tutilgan umumiy asoslari mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar uchun taksa javobgarligi respublikamizda o'simlik dunyosiga nisbatan tartibga solingan. O'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun taksa javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 27 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undiriladigan jarima miqdorlarini hisoblash taksalarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qaroriga asosan amalga oshiriladi. O'simlik dunyosiga yetkazilgan zararlar uchun undiriladigan jarima miqdorlarini hisoblash taksalari to'g'risida fikr yuritishda tabiatning boshqa ob'ektlariga, ya'ni yerga, yer osti boyliklariga, suvga, atmosfera havosiga, hayvonot dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undiriladigan jarima miqdorlarini hisoblaydigan taksalar ishlab chiqilmaganligini ta'kidlash o'rinlidir.

«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda atrof muhit muhofazasi to'g'risidagi qonunchilikni buzish yo'li bilan yetkazilgan zarar to'liq va majburiy ravishda qoplanishi nazarda tutilgan. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik faqat qonunda ko'rsatilgan shart-sharoitlar vujudga kelgandagina kelib chiqadi. Bu shart-sharoitlar fuqarolik huquqbuzarligining tarkibini tashkil qilib, shu xildagi huquqiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bular quyidagilardir: 1) Zararning mavjudligi. 2) Huquqqa zid hulq atvor. 3) Huquqqa zid hulq-atvor bilan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish. 4) aybning mavjudligi. Mana shu elementlar bo'lgandagina fuqarolik huquqiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartnomaga asoslangan va asoslanmagan majburiyatlar uchun yuzaga kelib chiqadi, ammo qonunda nazarda tutilgan ba'zi bir hollarda fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararni qoplashga bo'lgan javobgarlik fuqarolik huquqining butun tizimida uchraydi. Bularga quyidagilar kiradi: umumiy falokat, rekvizasiya, davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yerni olib qo'yganda yetkazilgan zarar, oxirgi zarurat holatida yetkazilgan zararni qoplash. Aybning mavjudligi fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashning asoslaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi FK ning 333-moddasiga ko'ra qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi uchun, agar

⁶⁶ Колбасов О.С. Возмещение вреда, причиненного неправомерным использованием природных объектов. Учебник.-М.: "Масква"1983.-В.99-100

qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Yuridik tarkibdagi barcha elementlar mavjud bo'lganda, ya'ni ayb, g'ayriqonuniy xatti-harakat, ular bilan yuzaga kelgan natija o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjud bo'lganda, tabiatga yoki inson salomatligiga zarar yetkazilganlik fakti yoki zarar yetishining real xavfi ekologik huquqbuzarlikning hal etuvchi, uning butun yuridik tarkibiga o'ziga xoslik baxsh etuvchi belgi hisoblanadi.⁶⁷

Fuqarolik huquqidagi zarar tushunchasining adabiyotlarda berilgan ba'zi tavsiflarini ko'rib chiqaylik. Ularning mohiyatan bir-birlariga o'xshash ekanliklarini ta'kidlab o'tish kerak. V.G.Verdnikovning hisoblashicha: «zarar qonun bilan himoya qilinadigan shaxsiy va mulkiy boyliklarning yo'q qilinishi yoki kamaytirilishini anglatadi.»⁶⁸ Ushbu tavsif bo'yicha zarar huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarning kamaytirilishi va shaxsning sub'ektiv huquqlariga ta'sirini anglatadi. G.K.Matvev ham huddi shu fikrni ta'kidlaydi: «U yoki bu shaxsiy yoki mulkiy boyliklarning har qanday kamaytirilishi zarar deb ataladi.»⁶⁹ A.M.Belyakov esa zararni «moddiy yoki moddiy bo'lmagan (insonning hayoti va sog'lig'i), qonun bilan muhofaza qilinadigan boyliklarning kamaytirilishi (yo'q qilib yuborilishi)dir», deb tavsiflaydi.⁷⁰

Moddiy boyliklarni kamaytirish (yo'q qilib yuborish) deganda atrof muhitning ifloslantirilishini, unga shikast yetkazish, yo'q qilib yuborish, putur yetkazish, tabiat resurslaridan nooqilona foydalanishni, nomoddiy boyliklarni kamaytirish deganda esa atrof muhitni ifloslantirish natijasida inson salomatligiga ziyon yetkazishni tushunmoq lozim. Ekologiya huquqida zarar tushunchasi ishlab chiqilmagan, u real zarar yoki boy berilgan foyda sifatida tushuniladi hamda ekologik va iqtisodiy turlarda ifodalanadi. Ekologik zarar butun jamiyatning toza va sog'lom tabiiy muhitga nisbatan bo'lgan manfaatlariga yetkaziladi, iqtisodiy zarar esa tabiatdan foydalanuvchining xo'jalik manfaatlariga yetkaziladi. Shunday qilib, «yuridik ma'noda ekologik zarar ekologik sabablar natijasida kelib chiqqan

⁶⁷ Петров В.В. Экология и право. Учебный пособия.- М.: "Наук", 1981.-В.117

⁶⁸ Шарл Гук. Аграрное право и право собственности во Франции. -М.: // "Государство и право", 1988. №7.- В.13

⁶⁹ Матвеев В.В. Основания гражданско-правовой ответственности. Учебный пособия.- М.: "Юрид. лит.", 2003.-В.37

⁷⁰ Шарл Гук. Аграрное право и право собственности во Франции. -М.: // "Государство и право", 1988. №7.- В.15

mulkiy zararning bir turidir»⁷¹. Shunga asoslanib ekologik zarar tushunchasining quyidagi tavsifini taklif etamiz: ekologik zarar ekologik huquqbuzarliklarning salbiy, ba'zi hollarda esa qaytarilmas oqibatlarini tashkil etadi. Ular qonun bilan himoya qilinadigan moddiy va nomoddiy boyliklarning yo'qotilishi, kamaytirilishida ifodalanib, uzoq vaqtlar davomida namoyon bo'la borishlari mumkin.

Fuqarolik huquqida huquqbuzarning ayb prezumpsiyasi amal qiladi. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 48-moddasida aytilishicha, faoliyati atrof muhit muhofazasi uchun oshiqcha xavf tug'dirish bilan bog'liq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, agar zarar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlay olmasalar yetkazilgan zararni qoplashlari shart. Shuningdek, qonunda faoliyati oshiqcha xavf bilan bog'liq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning zararni qoplashlari nazarda tutilgan. Atrof muhitga yetkazilgan zararning qoplanishi aybdan tashqari javobgarlikning barcha shartlari mavjud bo'lganda nazarda tutiladi.

Fuqarolik huquqida oshiqcha xavf manbaining batafsil tavsifi berilmagan. Shu sababdan adabiyotlarda uni turlicha tavsiflaydilar. Asosiy nuqtai nazarlardan birida aytilishicha, u moddiy dunyo ob'ektlaridan foydalanish bo'yicha yuklatiladigan faoliyatdir. Bu ob'ektlar inson tomonidan foydalanishi jarayonida ma'lum zarar keltiruvchi xususiyatlarga ega bo'ladilar, ammo ularni to'liq nazorat qilib bo'lmaydi. Shu sababdan ulardan foydalanilayotganda zarar yetishining oshiqcha imkoniyati paydo bo'ladi. Oshiqcha xavf manbaining muhim belgilari uning zarar keltiruvchi xususiyatlari va odamlar nazorati ostida emasligidir.⁷² A.Subbotinning yozishicha, Ob'ektning zarar keltiruvchi xususiyatlari va ularning paydo bo'lishi ustidan to'liq nazorat olib borishning imkoni yo'qligi oshiqcha xavf manbai huquqiy tushunchasining shakllanishi hamda ob'ektning oshiqcha xavf manbai deb tan olinishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.⁷³ Oshiqcha xavfli faoliyatlar sirasiga zararli moddalarni normadan ortiqcha miqdorda atmosfera havosiga chiqarish ham kiradi. Shu sababdan, atrof muhitni ifloslantirish natijasida mulkiy

⁷¹ Колбасов О.С. Возмещение гражданам экологического вреда.-М.:// "Государство и право".1994.№ 10.- В.100

⁷² Донцов С.Е, Глянец В.В. Возмещение вреда по советскому законодательству. Учебник.- М.: "Юрид. лит.", 1990.-В.119

⁷³ Субботин А.А. Проблемы возмещения вреда, причиненного источником повышенной опасности объектам природы и другим благам. Учебный пособия.- М.: "Наук", 1985.-В.10

zarar yetkazgan korxonalarni aybi bor-yo'qligidan qat'iy nazar javobgarlikka tortish taklif etiladi.⁷⁴

Texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar deyilganda sanoatdagi, transportdagi va boshqa joylardagi falokatlar, yong'inlar, portlashlar, kuchli ta'sir etuvchi va zaharli, radioaktiv hamda biologik xavfli moddalarni atmosferaga chiqaruvchi yoki chiqarish xavfini tug'diradigan falokatlar, binolar va inshootlarning to'satdan ag'darilib ketishi, dambalarning buzilishi, elektrostansiyalar va aloqa tizimlaridagi falokatlar tufayli yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar anglashiladi. Qonunning 35-moddasida texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlar natijasida fuqarolar sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash nazarda tutilgan. Shuningdek atrof muhitga, ya'ni yerga, suvga, nabobot olamiga yetkazilgan zarar ham qoplanishi shart. Yerni rekul'tivatsiya qilish hamda uning tabiiy hosildorligini tiklash borasida qilingan xarajatlar ham shu jumlagi kiradi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ikkita asosiy shakli mavjud. Bular birinchidan, zararni qoplash va ikkinchidan, neustoyka. Zararni qoplash va neustoyka o'ziga xos xususiyatlarga ega. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning shakllari ichida zararni undirish alohida o'rin egallaydi. Chunki fuqarolik huquqbuzarlik, jumladan majburiyatlarni bajarmaslikka ko'pinchalik hollarda zarar yetkazishga borib taqaladi. Fuqarolik huquqiy javobgarlikning boshqa shakllari bunday umumiy ahamiyatga ega emas, ular muayyan huquqbuzarlikka nisbatan bevosita qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina qo'llanilishi mumkin. Shikast yetkazilganligi uchun neustoykani undirishga faqat qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan har bir mulkiy zarar keltirish bilan bog'liq holatlarda javobgarlik chorasi sifatida zararni to'lash jazosi qo'llaniladi. Bu jazo shartnoma shartlarini buzgan aybdorni jazolash va zarar ko'rgan tomonning mulkiy huquqlarini tiklashga yordam beradi. «Zararni undirish,- V.A.Xoxlovning ta'kidlashicha,- mulkiy javobgarlikning asosiy, umumiy shaklidir, chunki umumiy qoidagan binoan u asosiy javobgarlik vazifasini bajaradi: zararni to'lashda o'z mulkining bir qismidan mahrum bo'lgan kreditorning yo'qotishlarini kompensatsiya qiladi, qarzdorni ta'minlaydi».⁷⁵

⁷⁴ Малеин Н.С. Правовая охрана природы и здоровья населения СССР.- М.: "Юрист", 1976.-В.79

⁷⁵ Хохлов В.А. Ответственность по обязательствам (колхоз, совхоз, арендатор). Учебный пособия.- М.: "Юрид. лит.", 1990.-В.46

Neustoyka (penya, shtraf) fuqarolik- javobgarlikning bir shakli sifatida tabiatni muhofaza yuzasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z vaqtida va yetarli darajada bajarishni ta'min etishning muhim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Agar fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida zararni to'lash yetkazilgan mulkiy ziyonni to'ldirsa, neustoyka esa shartnoma majburiyatini buzganlik uchun jarima solish va penya undirishni bildiradi.

Neustoyka qonunda ham aniq belgilangan bo'lishi yoki tomonlarning kelishuviga binoan ham belgilanishi mumkin. Agar neustoyka tomonlarning kelishuviga binoan belgilansa, u shartnomada aniq belgilab olinishi kerak.

Mulkiy javobgarlikning shakllari sifatida zararni undirish va neustoykaga xos xususiyatlarni H.R.Raxmonqulov quyidagicha tavsiflaydi: birinchidan, garchi zararni undirish qonunda javobgarlik chorasi sifatida ko'rsatilsada, ularning miqdori qoidaga ko'ra, yetkazilgan zarar miqdoriga borlab hisoblanadi va ular isbotlanishi kerak. Zararni undirish shartnomada oldindan aniq so'mmada belgilanishi mumkin. U yoki bu huquqbuzarlik turi uchun neustoyka (penya va jarima) qo'llash va uning miqdori ham qanday holatda oldindan qonun va shartnomada belgilanadi; ikkinchidan, zararni undirish uchun umumiy da'vo muddati harakatda bo'ladi, neustoyka (penya, jarima) uchun qisqartirilgan da'vo muddati; uchinchidan, zararni undirish uchun javobgarlik asoslarining to'la tarkibi, ya'ni huquqqa qarshi harakat, zarar, huquqqa qarshi harakat bilan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, zarar yetkazganning aybi bo'lishligi talab etiladi. Neustoykani undirishda zarar va sababiy bog'lanish to'g'risida isbot talab etilmaydi, qonunga qarshi harakat va qarzdorning aybi bo'lsa yetarli.⁷⁶

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 193-204-moddalarida ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddalarda ko'rsatilgan jinoiy huquqbuzarliklar umumiy ekologik talablarga rioya etmaslik oqibatida vujudga kelib, tabiiy resurslarning huquqiy holatini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 193-moddasida ekologiya xavfsizligiga oid norma va talablarni buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ushbu jinoyat sanoat, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanishda belgilangan

⁷⁶ Qarang: Raxmonqulov X.R. Договорные отношения в агропромышленном комплексе. Учебный пособия.-Т.: "Fan", 1999.-Б.115

ekologik normalarni buzishdan iborat. Mazkur ekologik talablarga ob'ektlarni joylashtirishda shamol oqimi, sanitar zonalarga oid talablar, zararli moddalarni chiqarib tashlashning yo'l qo'yiladigan doiralari, ob'ektlarni ekologik ekspertizadan o'tkazish yoki uning salbiy xulosasi to'lgan taqdirda ob'ektlarning qurilishi va ishga tushirilishining man etilishi kiradi. Ushbu moddada ob'ektlarni ishga tushirish hamda qabul qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ekologik xavfsizlik qoidalari O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuninig 41-moddasida, tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarning tegishli moddalarida hamda qonun osti aktlarida o'z aksini topgan. Ushbu normalarning mohiyati shundan iboratki, ob'ektlarni qurish, loyihalashtirish, joylashtirish, ishga tushirish faqat tabiatni muhofaza qilish choratadbirlari ko'zda tutilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Atrof tabiiy muhitni ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 194-moddasida belgilangan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 28-moddasiga muvofiq shunday ma'lumotlarni taqdim etish atrof tabiiy muhitning holati tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv, maxsus vakolat berilgan organlar, shuningdek, faoliyati atrof tabiiy muxitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kuzatuv ma'lumotlarini, Vazirlar Mahkamasi belgilangan tartibda, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga va boshqa organlarga berilishi shart. Bundan tashqari, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 38-moddasiga muvofiq korxona, muassasa va tashkilotlar falokat xaqida va uni bartaraf etish yuzasidai ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati va tabiatni muhofaza qilish organlariga darhol xabar berishlari shart. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari qatorida chiqariladigan chiqindilar hamda fizikaviy omillarning hisobini yuritish va belgilangan tartibda statistika hisobotini taqdim etish hamda korxonalar va transport kommunikasiyalarini ta'sir doirasida atrof muhitga hamda aholining salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatilishini baholash ko'zda tutilgan. Mazkur jinoyat maxsus vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxs, ya'ni atrof tabiiy muxitning ifloslanganligi to'g'risida ma'lumotlarni yig'adigan yoki yig'ish ustidan nazorat

olib boradigan hamda tegishli organlarga takdim etish bo'yicha ma'sul shaxs tomonidan sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 195-moddasida atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik uchun javobgarlik belgilangan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 47-moddasi oltinchi xat boshiga muvofiq atrof tabiiy muhitni tiklash, unga zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rmaganlikda aybdor bo'lgan shaxslarning javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ni 95-moddasida tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxiralarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 195-moddasida, atrof tabiiy muhit ifloslangan joylarni dezaktivasiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko'rmaslik yoki bunday ishlarni etarli darajada bajarmaslik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur jinoyat odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, hosil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunini 14-moddasiga binoan, xo'jalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga zararli ta'siri atrof tabiiy muhit sifati, aholining ekologik jihatdan xavfsizligi, tabiiy, resurslarni tiklash va muhofaza qilishni kafolatlovchi normativlar hamda standartlar bilan cheklanib qo'yiladi. Bundan tashqari, atmosfera havosiga va suv ob'ektlariga zararli moddalar va biologik organizmlarni chiqarish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining ruxsati asosida amalga oshiriladi. Demak, atrof tabiiy muhitga zararli moddalar va biologik organizmlarni ruxsatsiz chiqarish yoxud belgilangan normativlardan ortiq chiqarish noqonuniy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"ni 79-moddasiga muvofiq, yerlarni muhofaza qilish maqsadida ularni ishlab chiqarish, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishidan, suv va shamol eroziyasidan, sho'rlanishidan va boshqa salbiy toifadagi buzilishlardan yuridik va jismoniy shaxslar himoya qilishlari shart. Ushbu kodeksning 81-moddasiga muvofiq, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanish natijasida, ekologiya va sanitariya-gigienaga oid talablarga javob beradigan mahsulot olish ta'minlanmayotgan yer uchastkalari, qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarilishi va konservasiya qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 196-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat ob'ekti yer, suv va atmosfera havosining ifloslanishdan muhofaza qilishni belgilangan tartibi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat kodeksi"ning 197-moddasi yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilaydi. Yerlardan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"da belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"ni 40-moddasida yer egasi, yerdan foydalanuvi va ijarachi yer uchastkasidan belgilangan maqsadlarda oqilona foydalanishi, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo'llashi, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik va boshqa majburiyatlar ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, shunga o'xshash boshqa majburiyatlar mazkur kodeksning 48,79 va boshqa moddalarida mustahkamlangan. Yerdan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida odamlarning kasallanishi, hayvonot va o'simlik dunyosining nobud bo'lishi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining keskin pasayib ketishi og'ir oqibatlar toifasiga kiradi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish talablari O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risidagi"gi qonunning 13-15, 18, 24-25, 29, 30-33, 36-38-moddalarida o'z aksini topgan. Agar yer osti boyliklaridan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida odamlarning kasallanishiga, hayvonot va o'simlik dunyosini nobud bo'lishiga, foydali qazilmalarni qazib olishning to'xtatilishiga va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelsa, mazkur moddada ko'rsatilgan jinoyat sodir etilgan deb hisoblanishi lozim.⁷⁷

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 198-moddasida ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning birinchi qismida olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish natijasida ekinzor, o'rmon yoqi boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazilsa yoki boshqa bir og'ir oqibatlar vujudga kelsa, jinoiy javobgarlikka tortish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunining 10-moddasiga muvofiq, o'simlik

⁷⁷Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qismi. Darslik.-T.: "Adolat".2005.-B.225

dunyosi ob'ektlaridan foydalanish joylarida yuridik va jismoniy shaxslar yong'in xavfsizligiga rioya etishlari va yong'inga qarshi tadbirlarni amalga oshirishlari, yong'in chiqqan hollarda esa, uni o'chirish chora-tadbirlarini ko'rishlari shart. Huddi shunday majburiyat O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi qonunini 30 va 31-moddalarida mustahkamlangan. Ushbu moddada ko'rsatilgan ko'p miqdorda zarar yetkazish deganda, eng kam ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdordagi zarar tushuniladi. Boshqa og'ir oqibatlar deganda, dov-daraxtlarning katta maydonda tiklab bo'lmaydigan darajada nobud qilinishi tushuniladi. Ushbu moddaning ikkinchi qismida o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesib, ko'p miqdorda zarar yetkazilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaning uchinchi qismida ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu jinoyat ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish, noqonuniy ravishda mol boqish yoki mollarni haydab o'tish, avtomobil' yoki qishloq xo'jaligi va boshqa texnikani haydab o'tishda yoxud ekinzorlarda qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirishda sodir etilishi mumkin. Mazkur moddada belgilangan jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zararni aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 27 iyuldagi 293-sonli "O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosiga yetkazilgan ziyonni undirish bo'yicha miqdorini hisoblash uchun taksalarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qo'llanilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat kodeksi"ning 199-moddasida o'simliklar kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 42-moddasiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, qo'llash chog'ida ekologiya talablariga rioya qilishlari, ularni qo'llashning zararli oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishlari shart. O'zbekiston Respublikasida qo'llanilishi ruxsat etilgan kimyoviy moddalar ro'yxati Vazirlar Mahkamasi qoshidagi maxsus komissiya tomonidan tasdiqlanadi. O'simliklar kasalliklari zararkunandalari bilan kurashish chora-tadbirlari amalga oshirilganda, inson salomatligini ta'minlovchi sanitariya va gigiena qoidalariga hamda o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek atrof tabiiy muhitning boshqa

ob'ektlarini muhofaza etish talablariga rioya etilishi lozim.⁷⁸ Xususan, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 33-moddasida o'simliklarni vositalari va boshqa dorilarini qo'llash paytida o'simlik hamda hayvonot dunyosi ob'ektlari o'sadigan (yashaydigan) muhitni muhofaza qilish talablari hisobga olinishi to'g'risidagi qoidalarga rioya etish majburiyati mustahkamlangan. Ushbu moddada nazarda tutilgan og'ir oqibatlar deb odamlarning zaharlanishi oqibatida kasal bo'lishi, o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlarining ko'p miqdorda nobud bo'lishini tushunish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 200-moddasida veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish hayvon yoki parrandalar epidemiya (epizootiya)sining tarqalishiga, ularni yalpi qirilib ketishiga yoki boshqa oqibatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lganda jinoiy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi "Veterinariya to'g'risida"gi qonunining 12 va 18-moddalarida veterinar xizmati hamda hayvonlar egalarining veterinariya bo'yicha majburiyatlari belgilangan. Veterinariya va zootexnika qoidalarini hayvonlarni yuqumli kasalliklarining oldini olish yoki ular kasallikka chalingan taqdirda kasallanish oqibatlarini bartaraf etish hamda kasallik tarqalishiga qarshi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mazkur jinoyat veterinariya yoki zootexnika ishlarini amalga oshirishning belgilangan tartibini buzish natijasida sodir etiladi. Ushbu jinoyatning og'ir oqibatlariga insonlarning yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi, hayvon va parranda mahsulotlarining yaroqsiz bo'lishi, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish uchun sarflangan xarajatlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 201-moddasida xo'jalik faoliyatida o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o'g'it, o'sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish, qo'llash chog'ida ekologiya talablariga belgilangan normativ va qoidalarga rioya qilish, ularni qo'llashning zararli oqibatlarini oldini olish va brataraf etish chora-tadbirlarini ko'rish bo'yicha yuridik hamda jismoniy shaxslarning majburiyati belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 202-moddasi hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq ovchilik, baliqchilik yoki noyob hayvonlarning yoki shifobaxsh oziq-ovqat va dekorativ o'simliklardan

⁷⁸ Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qismi. Darslik. -T.: "Adolat". 2005.-B.265

yoxud alohida foydalanish tartibi va shartlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur jinoyat, agar ancha miqdorda (eng kam ish haqining o'ttizdan yuz baravarigacha) ziyon yetkazilsa, tugallangan deb hisoblanadi. Mazkur moddada ko'zda tutilgan qoidalar O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza etish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza etish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi qonunlarida, Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 10 aprel' 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida ov qilish, ovchilik-baliq ovlash xo'jaligini yuritish to'g'risida"gi Nizomida, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tasdiqlagan "O'zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq tutish Qoidolari"da o'z aksini topgan. Hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanishning umumiy talablariga ruxsatnoma asosida maqsadli hamda ruxsatnomada ko'zda tutilgan miqdor va turlarda foydalanish kiradi. Agar hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish qoidalarini buzib, "Qizil kitob"ga kiritilgan ob'ektlardan foydalanish yoki katta miqdorda (eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha) ziyon yetkazilsa, yoxud bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202-moddasi ikkinchi qismi bilan kvalifikasiya qilinishi lozim. "Qizil kitob"ni yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9 martdagi 109-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitob"i to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan. Agar ov qilish, baliq tutish yoxud hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanishning boshqa qoidalari xavfli residivist tomonidan shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalanib, yer, suv yoki havoda ishlatiladigan mexanizasiyalashgan vositalardan foydalanib portlash qurilmalari, zaharli kimyoviy moddalar yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan usullarni qo'llab, uyushgan guruh tomonidan, juda ko'p (eng kam ish haqining uch yuz baravaridan bo'lgan) miqdorda zarar yetkazib sodir etilsa, bu jinoyat mazkur moddaning uchinchi qismi bilan kvalifikasiya qilinadi. Bu jinoyat hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanishning belgilangan tartibini buzish natijasida sodir etiladi⁷⁹.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 203-moddasida suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Suv va suv havzalaridan foydalanish shartlari "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida, "Suv va suvdan foydalanish

⁷⁹ Yakubov A. S., Kabulov R.T., Zaripov Z.S., Mirzajanov A.Q., Pulatov Y. S. Jinoyat huquqi. Darslik.-T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2012.-B.448

to'g'risida"gi qonunning 12-15, 17, 30, 35 va boshqa moddalarida hamda Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi 385-sonli "Limitlangan suvdan foydalanish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan. Suv va suv havzalaridan foydalanish qoidalarini buzishga quyidagilar kiradi: o'zboshimchalik bilan suvdan foydalanish, limitlarga rioya qilmasdan suv olish, suvlarning ifloslanishi, bulg'alanishi hamda ularni zararli ta'sirining oldini oluvchi qurilma va moslamalarsiz korxona yoki boshqa ob'ektlarni ishga tushirish, suvlardan xo'jasizlarcha foydalanish, suv xo'jalik inshootlari va qurilmalarini buzish hamda ulardan foydalanish qoidalarini buzish va boshqalar⁸⁰. Mazkur jinoyat suv va suv havzalaridan foydalanishning belgilangan tartibiga rioya etmaslik oqibatida sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 204-moddasiga muvofiq, alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunida va har bir qo'riqxonada, milliy tabiiy bog'lar, buyurtmali qo'riqxonada, tabiiy yodgorlik va boshqa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi nizomlarda aks ettirilgan. Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyatlar ko'p miqdorda (eng kam ish haqining yuzdan uch yuzgacha baravarida) ziyon yetkazilsa yoki noyob o'simlik va hayvonot dunyosining turlarini kamayib ketishi, ularning tabiiy sharoitlarini o'zgarishi kabi oqibatlar vujudga kelsa, tugallangan hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 204-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat alohida muhofaza qilinadigan hududlarda tabiiy ob'ektlarni qasddan nobud qilib yoki shikastlantirib, ko'p miqdorda zarar yetkazilsa, yoxud alohida muhofaza etiladigan hududning o'z noyob xususiyati va qimmatligini yo'qotsa yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelsa sodir etilgan hisoblanadi.

Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat kodeksi"ning 193-204-moddalari sanksiyalarida jinoiy javobgarlik jazo choralari sifatida eng kam ish haqining yuz baravarigacha jarima, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, olti oygacha qamoq, besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish kabilar ko'rsatilgan.

⁸⁰ Yakubov A. S., Kabulov R.T., Zaripov Z.S, Mirzajanov A.Q., Pulatov Y. S. Jinoyat huquqi. Darslik.-T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2012.-B.448

2.3 Ekologiya sohasidagi xalqaro javobgarlik hamda xalqaro va mintaqaviy ekologik tashkilotlar

Xalqaro ekologik javobgarlik. Xalqaro huquq sub'yektlarining ekologik javobgarligi zararli yoki xilof harakatlari, ularning o'z iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, texnologik, rekratsion va shu kabi xo'jalik faoliyatlari natijasida kelib chiqadigan atrof-muhit muhofazasiga zid bo'lgan harakat yoki harakatsizliklaridir.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik — xalqaro ekologik ob'yektlardan universal, regional va ikki davlat o'rtasida belgilangan xalqaro-huquqiy me'yorlardan oshirib foydalanish yoki ularni buzish orqali atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash orqali kelib chiqadigan va xalqaro huquq sub'yektlariga qo'llaniladigan noqulay moddiy va siyosiy sharoitlarning majburiy kechinmasi yoki ularning yuridik jazoga tortilishi⁸¹.

Yuridik javobgarlikning noqulay moddiy kechinmasi yoki moddiy javobgarligi deganda biz ekologik ziyon ko'rgan davlatlarga yoki davlatlar yuridiksiyasida bo'lmagan ekologik ob'yektlarga (xalqaro ekologik tashkilotlar orqali) yetkazilgan zararni moliyaviy (reparatsiya), natural holda (restutitsiya) yoki almashtirish (substitutsiya) orqali qoplashni tushunamiz.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikning moddiy qoplanishining «restoratsiya» usulini, ya'ni muayyan tabiiy ob'yektni yoki moddiy ob'yektni huquqbuzar sub'yekt tomonidan to'liq tiklab berish sanksiyasini qo'llash ham mumkin. Masalan, tuproq unumdorligini tiklash, suvni tozalab berish yoki eroziya oqibatida buzilgan binoni xalqaro huquq sub'yekti tomonidan tiklab berilishi⁸².

Milliy ekologik javobgarlikdan xalqaro ekologik javobgarlikning asosiy farqi ularda qo'llaniladigan sanksiyalardadir. Xalqaro huquq sub'yektlarini ozodlikdan mahrum qilish, kam ish haqi to'lanadigan vazifaga tushirib qo'yish, mol-mulkini musodara qilish, ma'muriy jazoga tortish imkoniyati bo'lmaganligi uchun ham jazo sanksiyalarining o'zgacha turlarini qo'llashni taqozo qiladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikda aybdorlarga nisbatan noqulay siyosiy kechinmalarni qo'llash sanksiyasi ham mavjud. Jazo turi xalqaro tashkilotlar yoki ularning sudlov organlarining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Aybdor deb topilgan xalqaro sub'yekt xalqaro tashkilotlar safidan chiqariladi yoki ularga nisbatan turli ko'rinishdagi yoki shakldagi iqtisodiy,

⁸¹Иванченко Н.С. Природоохранный аспект международно-правовой проблемы.-Л.: "ЛГУ",1983.-С.14.

⁸²Иванченко Н.С. Природоохранный аспект международно-правовой проблемы.-Л.: "ЛГУ",1983.-С.14.

siyosiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy, ekologik «boykot» e'lon qilinadi⁸³. Bunga yaqqol misol qilib BMTning Iroq Respublikasiga nisbatan bir necha yil mobaynida qo'llanilgan iqtisodiy «boykot»ini olsak bo'ladi. 2000-yil fevral oyida Rossiya Federatsiyasiga qarashli «Volga-Don» mazut tashuvchi daryo kemasi Bosfor bo'g'ozida Iroq xom ashyosini olib ketayotganda ushlandi va yoqilg'i konfiskatsiya qilindi hamda kema qarashli kompaniyaga katta jarima solindi. Iroq Respublikasi urushni targ'ib qilish va yadro qurolini yaratish orqali tabiatga va inson hayotiga tajovuz qilayotgan harakatlari uchun u xalqaro Gaaga sudi qarori bilan siyosiy sanksiyaga tortildi. Ammo yurisprudensiyada qo'llaniladigan asosiy prinsiplardan biri «Huquqbuzarliklar uchun jazoning muqarrarliligi» xalqaro-ekologik javobgarlikda hanuzgacha to'lig'icha qo'llanilmayapti, desak to'g'ri bo'ladi.

Eng nufuzli xalqaro sudlov organi — **BMT ning xalqaro Gaaga sudi** 1945-yil BMT bilan bir vaqtda faoliyat yurgiza boshladi. Sudyalar Bosh Assambleya tomonidan 5 yil muddatga saylanadilar. BMT Nizomining 99-moddasiga binoan Gaaga sudi Xavfsizlik Kengashiga, xalqaro ekologik masalalar, jumladan, ekologik xavfsizlikni saqlashga doir har qanday masalalarni ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish huquqiga ega. Xalqaro ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra Yer kurrasida davlatlar yoki transkontinental kompaniyalar tomonidan sodir etilayotgan ekologik huquqbuzarliklarning bor-yo'g'i 7—8 foizi xalqaro sudlov organlari tomonidan ko'rib chiqilmoqda⁸⁴. Vaholanki, ularning hammasi ham yetarlicha javobgarlikka tortilmayaptilar, natijada atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni qoplash uzoq muddatga cho'zilib ketmoqda. Gaaga sudidan tashqari bir qancha regional va subregional toifadagi xalqaro sudlar mavjud. Ular 200 dan ziyod ikki va ko'p tomonlama imzolangan shartnoma va kelishuvlar bo'yicha xalqaro ekologik javobgarlik sanksiyalarini qo'llashlari mumkin. Bunda davlatlar o'zlarining milliy qonun me'yorlarini yoki xalqaro tashkilotlarning Nizomlarini «ro'kach» qilib ko'rsatishlari aslo inobatga olinmasligi kerak. Chunki, xalqaro ekologiya huquqi prinsipiga binoan atrof-muhitni muhofaza qilishda xalqaro huquqiy-me'yoriy normalar milliy normalarga nisbatan ustuvorlikka egadir. Undan tashqari, xalqaro shartnoma va kelishuvlarda ekologik-huquqiy javobgarlik ko'pincha inobatga

⁸³ Иванченко Н.С. Природоохранный аспект международно-правовой проблемы. Учебный пособия.-Л.: «ЛГУ», 1983.-С.18

⁸⁴ Кравченко С.Н. Имущественная ответственность за нарушение природоохранительного законодательства. Учебник.- Львов.: «Наук», 2003.-В.65

olinmaydi, agar olingan bo'lsa ham davlatlarning u yoki bu tabiiy ob'yektlari muhofazasiga qaratilgan, xolos. MDH va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida tuzilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda yuridik javobgarlikni qo'llash turi aniq bir tabiiy maydon yoki makon bo'yicha me'yori ko'rsatib o'tilmagan. Hanuzgacha ekologik-huquqiy manba sifatida ular orasida javobgarlik Konvensiyalari imzolangan. Moddiy va siyosiy sanksiyalar turi, miqdori va ularni undirish yoki ishlatish mexanizmi yo'q. Ularni amalga oshiruvchi nazorat, inspeksiya va sudlov organlarini tuzish shu kunning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

Xalqaro ekologik tashkilotlar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 1945-yilning 25-oktabridan buyon faoliyat yurgizib kelayotgan eng nufuzli xalqaro davlatlararo tashkilot bo'lib, u o'z oldiga davlatlar o'rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadini qo'yadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi BMT Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bosh Assambleya—BMTning eng oliy toifadagi organlaridan bo'lib, u xalqaro masalalarga doir hamma dolzarb masalalarni kun tartibiga kirgizadi. Bosh Assambleya atrof-muhit muhofazasiga doir muammolar yuzasidan unga a'zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tegishli tavsiyalar berishga haqlidir.

Bosh Assambleya qoshidagi BMTning **Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS)**dir. EKOSOS o'zining qo'mita va komissiyalar faoliyati natijalarini umumlashtirib Bosh Assambleyaga tavsiyanomalar beradi va konvensiyalar tayyorlaydi, o'z vakolat doirasida xalqaro ekologik konferensiyalar chaqiradi, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda ekologik bitimlar tuzadi.

Aniq bir turdagi ekologik masalalarni **BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari** olib boradi. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar BMT Nizomining 57-moddasiga muvofiq davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar orqali tashkil etiladi va o'zlarining ta'sis hujjatlariga binoan bevosita yoki bilvosita ekologik masalalar bilan 63-moddasida ko'rsatilgan qoidalarga asoslangan holda faoliyat olib boradi.

BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi (YUNEP) 1972-yil 15-dekabrda tashkil topgan. YUNEP ning uchta bo'limi — boshqaruvchilar Kengashi, atrof-muhit muhofazasini muvofiqlashtiruvchi Kengash va atrof-muhit Jamg'armasi mavjud.

O‘zining ekologik funksiyalari bilan YUNEP ga yaqin bo‘lgan BMT tashkilotlaridan biri (**YUNESKO**) — **madaniyat, fan va maorif masalalari bo‘yicha xalqaro tashkilot**.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) eng birinchilar qatori (1946-yil)da tuzilgan BMT ning tashkiloti bo‘lib, u atrof-muhitning salbiy o‘zgarishi natijasida inson salomatligi holati, uni saqlash va mustahkamlashga o‘z faoliyatini qaratadi.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) 1945-yilda tuzilgan bo‘lib, uning qarorgohi Rim shahrida. FAOning ekologik faoliyati xalqaro tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali Yer yuzida ortib borayotgan aholini oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish.

Hukumatlararo dengiz kengashi tashkiloti (HDK) 1948-yilda tuzilgan bo‘lib, uning qarorgohi London shahrida. HDK dunyo okeani va dengizlarda suv transportidan foydalanishning ekologik xavfsizlik darajasini ta‘minlab berishda faol ishtirok etmoqda hamda ularning ifloslanishiga qarshi kurash bo‘yicha bir qator konvensiyalar ishlab chiqqan.

Jahon meteorologik tashkiloti (JMT) 1947-yilda tuzilgan bo‘lib, uning qarorgohi Jeneva shahrida. JMTning maqsadi insonlarning xo‘jalik faoliyatini planetamiz iqlimiga ta‘sir ko‘rsatish darajasini tadqiq qiladi va ularga oid materiallar to‘playdi.

BMTning **Tabiiy ofatlarni bartaraf etishga yordam ko‘rsatish bo‘yicha byurosi (YUNDRO)** turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko‘rsatishni tashkillashtiradi va olib boradi. 1948-yilda tashkil topgan.

Tabiat va tabiiy resurslarni muhofazalashning xalqaro ittifoqi (TMXI) nodavlat tashkiloti bo‘lib, u 100 dan ziyod davlat va 500 dan ziyod nodavlat tashkilotlarni a‘zo qilib olgan. TMXIning asosiy vazifasi unga a‘zo bo‘lib kirgan mamlakatlar va ularda faoliyat yurgizayotgan tashkilot, birlashma, uyushma va fuqarolarning ekologiya sohasida hamkorligini yanada rivojlantirishdir.

Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik (MAGATE) — 1957-yilda tashkil etilgan davlatlararo tashkilotdir. Agentlikning Nizomiga binoan, uning maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga erishishga ko‘maklashish va uni nazorat qilish.

OBSEga barcha Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada va MDH davlatlari a'zodirlar. Ushbu nufuzli regional tashkilot Xelsinki shahrida 1975-yil 1-avgustdan faoliyat yurgiza boshlagan. OBSEning maqsadlaridan biri unga a'zo mamlakatlar doirasidagi hududlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bu sohada ular o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish.

Arab davlatlari ligasi (ADL) 1945-yilda tashkil qilingan bo'lib, 21 ta arab mamlakatlari va Falastin Ozodlik tashkilotining tabiiy resurslaridan (ayniqsa neftdan) kelishgan holda foydalanish va sog'liqni saqlashning ekologik masalalarini ko'rib chiqadi.

Afrika birligi tashkiloti (ABT) 1963-yilda Addis-Abebada bo'lib o'tgan konferensiyada tashkil etilgan. ABT da ekologik muammolardan hayvonot va o'simlik dunyosining xilma-xilligini saqlab qolish bo'yicha milliy bog'lar tashkillashtirish va ularni muhofaza qilishning yagona rejasi ishlab chiqilgan.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) 1947-yili Rio-de-Janeyroda tashkil topgan. ADT tarkibida atrof-muhit muhofazasiga doir ixtisoslashgan tashkilot mavjud bo'lib, uning asosiy maqsadi Amerika qit'asidagi biologik xilma-xillikni saqlashdir.

Davlatlararo ekologik kengash (DEK) 1992-yil 8-fevralda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) rahbarlarining Moskvada bo'lib o'tgan kengashida tasdiqlangan. DEK ga a'zo 10 davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Kelishuvga muvofiq (1-modda) uning a'zolari o'z hududlari uchun atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqadilar va shu asosda huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy zamin yaratadilar hamda o'zaro hamkorlik qiladilar.

1993-yil mart oyida Qozog'istonning Qizilo'rda shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyodagi besh davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida **Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash** va uning Ijroiya qo'mitasi hamda Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi va hokozolarni misol keltirish mumkin.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishi XXI asrdagi ekologik tahdidlar va ularni bartaraf etishning huquqiy chora-tadbirlari mavzusida olib borildi. Unda ekologik tahdidlarning vujudga kelishi va tarixi, hamda ularning jahon mamlakatlariga va jamiyatimizga ta'siri va oqibatlari imkon qadar o'rganildi. Bundan tashqari mamlakatimizdagi ekologik hotat va uni bartaraf etishning huquqiy jihatlari o'rganishga harakat qilindi. Ayniqsa ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklarga milliy va xalqaro javobgarlik masalalari qiyosiy tahlil qilindi. Shu sababli tabiatni muhofaza qilishda huquq alohida ahamiyatga ega bo'lib, u yuridik va jismoniy shaxslarga tabiatdan oqilona foydalanish hamda muhofaza etish tartib qoidalarini belgilab beradi. Harakatdagi tabiatni muhofaza qilishga bag'ishlangan qonunlardagi ekologik talablarga rioya etilishini, ularni amaliyotda to'g'ri tadbir qilinishini ta'minlashda ekologiya qonunchiligini mukammal bilish zarur bo'ladi. Chunki, ekologik noxushliklar ko'pincha ushbu qonunlarni bilmaslik hamda ularga rioya etmaslik oqibatida kelib chiqadi⁸⁵. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozish davomidagi izlanishlardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. Tabiat ob'ektlarini muhofaza qiladigan me'yoriy hujjatlarni birlashtirish, ularni yagona bitta normativ hujjatda umumlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, huquq tartibga soladigan munosabatlar, ob'ektlar turli xil bo'lib, ularning har biri mustaqqil va o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lsa, ular majmualashgan me'yoriy hujjat, ya'ni kodeks bilan tartibga solinishi kerak. Shuning uchun tabiatni huquqiy muhofaza qilish munosabatlarining umumiyligi, ya'ni tabiat ob'ektlari ekanligi, shuningdek har bir tabiat ob'ektining alohida avtonomligini e'tiborga oladigan bo'lsak bunday huquqiy munosabatlar, tabiiyki kodeks bilan tartibga solinishi lozim. Bu kodeksni ekologiya kodeksi deb atash maqsadga muvofiq bo'lib, unda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solinishi lozim. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tabiiy resurslardan foydalanish huquqini ekologik munosabatlar doirasiga kiritmaslik, bu munosabatlarni tabiiy resurslardan foydalanish huquqining alohida sohalari: yer, suv, kon, o'rmon huquqi normalari bilan tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Ekologiya kodeksi bilan esa faqat tabiat ob'ektlarini

⁸⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998. -B.16

huquqiy muhofaza qilish munosabatlari tartibga solinishi lozim deb o'ylayman. Bu bilan, menimcha, birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni tabiiy resurslardan foydalanishdan ustuvorligini ta'minlash, ikkinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni majmualashgan bitta qonun (ekologiya kodeksi) bilan tartibga solish, uchinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunchiligi sifati va ta'sir kuchini oshirish, to'rtinchidan, tabiatni huquqiy muhofaza qilish samaradorligini yanada oshirishga erishish mumkin. Bu kodeksda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalari, maqsadlari, tamoyillari o'rnatilishi lozim. Shuningdek, ekologiya kodeksi o'zida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza etishga tegishli vakolatlari, tabiiy muhit sifati normativlari va standartlari, ekologik monitoring, ekologik ekspertiza, ekologik nazorat, tabiat ob'ektlari (yer, suv, er osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi, alohida muhofaza hududlari)ni huquqiy muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik kabi munosabatlarni tartibga solishni mujassam etishi kerak.

2. Orol dengizidagi ahvolni yaxshilash masalasiga kelsak, bunda Qozog'iston Respublikasi tutgan yo'lni tanlasak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yani Orol dengizining O'zbekistonga tegishli qismida Qozog'istondagi qismidagidek orol tashkil qilish kerak. Sababi Qozog'iston o'z qismida Ko'korol tashkil qilib o'sha qismini damba bilan yopib, Sirdaryoni suvini to'plab, balikchilikni rivojlantirmoqda. O'zbekiston ham Amudaryo qismida shunday ishlarni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'lib, orol va orolbo'yidagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Buning uchun chetel investitsiyasini jalb qilish kerak bo'ladi.

3. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish uchun tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lov normativlarini hamda ularni undirish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

4. Bundan tashqari, yerga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuklatishning maxsus normalari ham ishlab chiqilishi kerak.

5. Shuningdek, ekologik zararni hisoblab chiqish uslubi va ekologik zararni aniqlash masalalarini tartibga soluvchi davlatlararo bitimlar va shartnomalarning mavjud emasligi ham katta muammo bo'lib turibdi. Shu nuqtayi nazardan ekologik

munosabatlarda Xorij tajribasidan keng foydalanish va ularni qonunchiligimizda tadbiq etish zarur. Ayniqsa javobgarli masalalarida bunga e'tabor qaratish zarur.

6. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga sarflanadigan budjet mablag'lari hajmi yetarli darajada emas. Shu sababdan, ko'rsatilgan to'lovlarni sarflashning amaldagi tartibi atrof muhit muhofazasi uchun samarasiz bo'lib qolmoqda. Mahalliy ijro organlari bu mablag'lar hisobidan faqat o'zlarining mahalliy muammolarini hal etmoqdalar, xolos. Shuning uchun, ekologik tadbirlarni moliyalashtirish, ya'ni ularni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini qaytadan ko'rib chiqish, ekologiya jamg'armalari avtonomligini (alohidaligini), budjetga qaram bo'lmasligini ta'minlash lozim.

7. Fuqarolar hamda yuridik shaxslarni sog'lig'iga va mulkiga zarar yetkazganlik, shuningdek, atrof muhitni ifloslantirish natijasida zarar yetkazganlik ekologik sug'urtaning mavjud bo'lishini taqozo etmoqda. Buning uchun birinchi navbatda «Majburiy (zaruriy) sug'urtani tashkil etish va amalga oshirish shartlari to'g'risida»gi nizom ishlab chiqilishi kerak. Yuritayotgan xo'jalik faoliyati oshiqcha ekologik xavf tug'diridigan korxonalar majburiy ravishda ekologik sug'urtalanishi lozim. Bozor munosabatlari tizimida faoliyat yuritayotgan tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan majburiy sug'urta shaklini qo'llash, ya'ni ularni majburiy tarzda sug'urtalash ularning erkin xo'jalik yuritish huquqini qandaydir ma'noda cheklangandek tuyuladi. Ammo odamlarga yetkaziladigan zarar, shuningdek atrof muhitga yetkaziladigan zarar yetkazuvchi tomonidan har qanday hollarda ham qoplanishiga jamiyat har doim amin bo'lishi lozim.

8. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash masalalari bo'yicha xo'jalik sudlari amaliyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, bunday nizolarni hal etishning yagona amaliyoti mavjud emas. Harakatdagi fuqarolik va ekologiya qonunchiligining tahlili atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zararni qoplash masalalari hali yetarli ravishda tartibga solinmaganligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim deb o'ylayman. Ishlab chiqiladigan uslubiy qo'llanmalarda yetkazilgan zarar faqat bitta tabiat ob'ektiga emas, balki butun atrof tabiiy muhitga qarshi qaratilganligini, shuningdek, dastlabki ko'rinishidagi zarar bilan bir qatorda uzoq yillar davomida namoyon bo'ladigan zarar oqibatlarini ham hisobga olish lozim deb hisoblayman.

9. Respublikamizda o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun jarima miqdorini hisoblash taksalari ishlab chiqilgan. Ammo qolgan tabiat ob'ektlari — yer, yer osti boyliklari, suv, atmosfera havosi va hayvonot dunyosiga zarar yetkazganlik uchun undiriladigan jarima miqdorlarini hisoblash taksalari ishlab chiqilmagan. Shu sababdan, tabiatning asosiy resurslari hisoblangan yer, yer osti boyliklari, suv, atmosfera havosi va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlovchi taksalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

10. Ekologik huquqbuzarlikning asosiy qismi zarar keltirib chiqaradi. Shuni hisobga olib, uni qoplash masalalari batafsil va qat'iy belgilanishi kerak. Jumladan, zararni natura bilan qoplash evaz to'lash usuliga qaraganda ustuvorlikka ega ekanligini ta'kidlash lozim. Yetkazilgan zararni aniq hisoblab bo'lmaydigan hollarda zararni to'liq qoplashning universal usuli bilan bir qatorda zararni eng yuqori miqdorda (maksimal) qoplash prinsipini ham mustahkamlab qo'yish kerak.

11. Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi moddiy javobgarlik masalalari qonunlarimizda ishlab chiqilmagan. Shu sababdan ular dolzarbligicha qolmoqda. Bu yo'nalishdagi choralardan biri, nazarimda, atmosfera havosining sifat holatini yomonlashtirganlik uchun moddiy javobgarlik yuklatilganligidir. Ifloslantiruvchi moddalarning atmosfera havosiga chiqarishga yo'l qo'ysa bo'ladigan normativlari, atmosferaga zararli fizik ta'sirlar ko'rsatish darajasi, shuningdek atmosfera havosidagi zararli moddalarning yo'l qo'ysa bo'ladigan miqdori moddiy javobgarlik yuklatilishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Moddiy javobgarlikka tortishning faktik asosi tegishli tarzdagi ruxsatnomasiz ushbu normativlardagi talablarga rioya qilmaslik, ularni oshirilib yuborilishidir. Atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar va normativlarda belgilangan miqdorlardan oshib ketgan taqdirlarda aybdor yuridik va jismoniy shaxslarga taksa bo'yicha tovon to'lash majburiyati yuklatilishi lozim. Shuning uchun tabiat yaxlitligini, butunligini ta'minlash maqsadida tabiat ob'ektlarini o'rab turadigan va ularga ta'sir ko'rsatadigan atmosfera havosining sifat ko'rsatkichlari yomonlashuvi natijasida tabiatga yetkaziladigan zararni majmuiy hisoblash usullarini ishlab chiqish juda muhimdir.

13. Yuqorida bayon qilingan kamchiliklarni hisobga olgan holda huquqiy adabiyotlarda jinoiy va ma'muriy javobgarlik mexanizmini takomillashtirish yuzasidan turli choratadbirlar taklif etiladi. Taklif etilayotgan choralar, fikrimizcha, ulardagi uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: amaldagi

qonunchilikni takomillashtirish; ekologik huquq-tartibot holatiga ta'sir ko'rsatadigan ekologik munosabatlar doirasidagi o'zgarishlarni o'rganish va hisobga olish asosida javobgarlik to'g'risidagi yangi normalarni ishlab chiqish; jinoiy va ma'muriy huquqiy normalarga rioya qilish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy va moddiy-texnikaviy shart-sharoitlarini yaratish. O'ylashimizcha, javobgarlik normalari konstruksiyasi shunday qurilishi lozimki, javobgarlik ekologik noto'g'ri faoliyatning noxush oqibatlarini qamrab olish bilan cheklanmasligi, uning o'tkir tig'i huquqbuzarlikning sabablari, manbalari va shart-sharoitlarini yo'qotishga qaratilishi lozim. Bunga esa tarkiblarni blanket dispozisiyalar bilan tuzish orqali erishish mumkin. Bir qator hollarda esa yasama tarkiblar tuzish zarur bo'ladi.

14. Qayd etib o'tilgan nuqtai nazarlarni amalga oshirish va aniqlashtirish tartibida tabiatni muhofaza qilish borasidagi turli tadbirlarni loyihalashtiradigan organlarning mansabdor shaxslari va mas'ul xodimlarining javobgarligini belgilab qo'yish taklif etiladi. Ko'ra bila turib g'ayriilmiy, moslashtirilmagan loyihalar tuzilishiga yo'l qo'yan rahbarlar javobgarlikka tortilishlari lozim. Bundan tashqari, korxona atrof muhit muhofazasi bo'yicha tuzilgan rejalar va tadbirlarni bajarmasa, jumladan, atrof muhit muhofazasi uchun ishlatiladigan mablag' aybli ravishda o'zlashtirilsa, tabiat muhofazasi uchun ishlatiladigan aslahalar va moslamalar to'liq holda ishlab chiqarilmasa yoxud sifatsiz va andozaga mos kelmaydigan holda ishlab chiqarilsa, shuningdek ularning yo'qligi hamda sifatsizlarning qo'llanishi tabiiy muhitga sezilarli darajada zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, tabiatga chiqarilgan zararli moddalarning laboratoriya tashhislari natijalari buzib ko'rsatilsa va ularning tabiat boyliklari tarkibidagi ulushi oshib ketsa, tabiatni muhofaza qilish borasidagi amalga oshirilgan tadbirlar holati to'g'risida ko'ra-bila yolg'on ma'lumotlar berilsa, atrof-muhitga katta xavf manbai bo'lishi mumkin bo'lgan inshootlarni qurishda qurilish normalari va qoidalari hamda loyiha texnologiyalari qo'pol tarzda buzilsa, tabiat muhofazasi borasidagi inshootlar va qurilmalardan foydalanish qoidalari buzilsa ham mansabdor hamda mas'ul shaxslar javobgarlikka tortilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raxbariy adabiyotlar

- 1.1 Karimov.I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: "O'zbekiston", 1992. - 364 b.
- 1.2 Karimov.I.A O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: "O'zbekiston", 1992. - 364 b.
- 1.3 Karimov I.A. Vatan, el manfaati muqaddasdir // Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. -T.: "O'zbekiston", 1996. - 382 b.
- 1.4 Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. -T.: "O'zbekiston", 1996. - 366 b.
- 1.5 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998. -432 b.
- 1.6 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: "O'zbekiston", 2000. - 350 b.

2. Normativ-huquqiy hujjatlar

- 2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2012. 40 b.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.7. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik prosessual Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.8. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi. <http://www.lex.uz>
- 2.9. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.10. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>

- 2.11. O'zbekiston Respublikasining "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.12. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.13. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.14. O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.15. O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.16. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.17. O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.18. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.19. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.20. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.21. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami.T.2 -T.: "Adolat", 1997. - 452 b.
- 2.22. O'zbekiston Respublikasining "Yer va yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni. <http://www.lex.uz>
- 2.23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlar kabi manbalarining suvini muhofaza qilish zonalari haqidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. <http://www.lex.uz>

3. Maxsus adabiyotlar

- 3.1. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K., Raximov J.M. Global iqtisodiyotga integratsiya (O'quv qo'llanma), - T.: "TDIU", 2009. - 232 b.
- 3.2. Mahkam A. Avesto - tarixiy-adabiy yodgorlik. -T.: "Sharq", 2001. -358 b.
- 3.3. Mansur A. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi.-T.: "TIU", 2001. -673 b.
- 3.4. Mayor F. Kelajak xotirasi. -T.: "O'zbekiston", 1996.-154 b.
- 3.5. Murodov Sh.O., Panjiev U.R. Atmosfera xavosini muxofaza qilish texnologiyasi.-Q.: "QashDU", 2003. – 103 b.
- 3.6. Mansur A. Poklik imondandir. –T.: "O'zbekiston",1999.-73 b.
- 3.7. Nigmatov A.N., Nig'matova G.N. Atrof muhofazasida iqtisodiy mexanizm.-T.: // "Iqtisod va hisobot", 10-son, 1997. -177 b.
- 3.8. Nigmatov A., Pardayev G'. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – T.: "TDYI".2005. -109 b.
- 3.9. Nigmatov A.N. Ekologiya huquqi. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999.-148 b.
- 3.10. Nigmatov A.N. O'zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. – T.: "TDYI nashriyoti", 2004. -370 b.
- 3.11. Namazov F.S. O'zbekistonda o'rmonlardan foydalanish huquqi. -T.: NPO "Vostok", 2000. – 192 b.
- 3.12. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. -T.: "Qomuslar bosh tahririyati", 2000. -386 b.
- 3.13. O'zoqova G.SH. Aholi punkti yerlaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish muammolari, "TDAGU". 2006.-154 b.
- 3.14. O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi. T.12.-T.: "Toshkent", 2006. -702 b.
- 3.15. Qomidjon H. Zardusht.-T.: "Tafakkur", 2001. 1-son, -107 b.
- 3.16. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi.Maxsus qismi. -T.: "Adolat",2005. -325 b.

- 3.17. Rustamboyev M.X., Usmonov M.Y., G'ofurov Z. Tabiatni muhofaza qilishning manaviy huquqiy asoslari.-T.: "Adolat", 2005. – 261 b.
- 3.18. Shodimetov Y. A. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. — T.: "O'qituvchi", 1994. - 172 b.
- 3.19. To'raev V.A. Insoniyatga glaballashuv tahdidlari // "Jahon adabiyoti", 2003. 1-18-sonlar.
- 3.20. Shodiyev A.U. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. -T.: "O'zbekiston", 1997.- 123 b.
- 3.21. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.-T.: "Saodat RIA", 1997.-175 b.
- 3.22. Odilqoriev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi. -T.: "Adolat", 2002. -491 b.
- 3.23. Xolmuminov J. Ekologiya va qonun. -T.: "Adolat", 2000. -325 b.
- 3.24. . Xolov Y.D., Tўраев M.M. Ekolgiya konsepsiyasi va tarixi.-B.: "BuxDU nashiryoti",2010. - 356 b.
- 3.25 Yakubov A. S., Kabulov R.T., Zaripov Z.S., Mirzajanov A.Q., Pulatov Y.S. Jinoyat huquqi.-T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ", 2012. – 448 b
- 3.26. Рахманкулов Х.Р. Договорные отношения в агропромышленном комплексе – Т.: "Фан", 1989. – 206 б.
- 3.27. Толипов Г.А. Земельные ресурсы Узбекистана и проблемы их рационального использования. -Т.: "TashDU", 1992. - 45 с.
- 3.28. Файзиев Ш.Х. Конституционные проблемы обеспечения экологической безопасности в Республике Узбекистан // Независимость и мировоззрение: реальность и философские проблемы возможностей развития. Часть - II. - Т.: "Фан", 1993. - 56 б.

4. Xorijda chiqqan adabiyotlar

- 4.1. Белякова А.М. Возмещение причиненного вреда. Отдельные вопросы.- М.: "Изд-во МГУ", 1999. -185 с.
- 4.2. Донцов С.Е, Глянецв В.В. Возмещение вреда по советскому законодательству. - М.: "Юрид. лит.", 1990. - 219 с.

- 4.3. Еренов А.Е., Мухитдинов Н.Б., Ильяшенко Л.В. Правовое обеспечение рационального природопользования. - Алма-Ата: "Наук" 1998. – 305 с.
- 4.4. Ерофеев Б.В. Экологическое право России. -М.: "Юристь", 1996. – 624 с.
- 4.5. Жариков Ю. Закон на страже землепользования: предупреждение земельных правонарушений. - М.: "Юрид. лит.", 1985. – 265 с.
- 4.6. Жариков Ю.Г. Охрана права землепользования.- М.: "Юрид. лит.", 1974.- 214 с.
- 4.7. Иванченко Н.С. Природоохранный аспект международно-правовой проблемы. - Л.: "ЛГУ", 1983. - 119 с.
- 4.8. Козлов Ю.М. Советское административное право.- М.: "Знание", 1984. - 153 с.
- 4.9. Колбасов О.С. Возмещение вреда, причиненного неправомерным использованием природных объектов. - М.: "Масква"1983. - 264 с.
- 4.10. Колбасов О.С. Возмещение гражданам экологического вреда // "Государство и право", - М.:1994.- № 10, - 107 с.
- 4.11. Колбасов О.С. Правовое исследование по охране окружающей среды.- М.: "ВНИИТИ", 1988. - 201 с.
- 4.12. Колбасов О.С. Природноресурсовое право и правовая охрана окружающей среды.- М.: "Юрид. лит.", 1988. - 162 с.
- 4.13. Кравченко С.Н. Имущественная ответственность за нарушение природоохранительного законодательства.- Львов.: "Наук", 2003. - 171 с
- 4.14. Кравченко С.Н. Материальная ответственность в системе охраны природы .-К.: "Вища школа", 1981. - 406 с.
- 4.15. Масевич М.Г. Споры о возмещении вреда, причиненного природным ресурсам.- М.: "Юрид. лит.", 1981. - 63 с.
- 4.16. Осипов Н.Т. Методы правовой охраны окружающей среды. - Л.: "Юрид. лит.", 1989. - 95 с.
- 4.17. Петров В.В. Правовая охрана природы в СССР. - М.: "Юрид. лит.", 1984. - 294 с.

- 4.18. Петров В.В. Экологическое право России. - М.: “Экология”, 1997. - 557 с.
- 4.19. Петров В.В. Экология и право. - М.: “Наук”, 1981. - 154 с.
- 4.20. Субботин А.А. Проблемы возмещения вреда, причиненного источником повышенной опасности объектам природы и другим благам. - М.: “Наук”, 1985. - 102 с.
- 4.21. Титова Н.И. Материальная ответственность работников сельскохозяйственных предприятий. - М.: “Юрид. лит.”, 1998. - 108 с.
- 4.22. Хохлов В.А. Ответственность по обязательствам (колхоз, совхоз, арендатор). - М.: “Юрид. лит.”, 1990. - 146 с.
- 4.23. Шалтакбаев С.Ж. Теоретические вопросы правовой охраны вод. Авт. Дис. ... к.ю.н. // - А., 1999. -165 с.
- 4.24. Шарл Гук. Аграрное право и право собственности во Франции. - М.: // “Государство и право”, 1988. № 7, - 19 с.
- 4.25. Jon Edmund. Protection of Environment.-L.: “Maccillan”,2009.-129 p.

5. Ilmiy ishlar

- 5.1. Komilova N.Q. O'zbekiston tabiiy geografik sharoitlarining hududiy tahlili. g.f.n. ... dis. - T., 2012. - 132 b.
- 5.2. Turaboyev A.N. Tog' jigarrang tuproqlarning xilma-xilligini saqllovchi ayrim tabiiy omillari tasnifi. e.f.n. ...dis. - T., 2012. - 126 b.
- 5.3. Shixov O.O. Mustaqillik sharoitida quyi amudaryo hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. i.f.n. ...dis. - T., 2012. - 112 b.

6. Internet saytlari

6.1 <http://www.eko.uz>

6.2 <http://www.proc-ender.uk>

6.3 <http://www.lex.uz>

6.4 <http://www.wikipedia.ru>